

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta-maxsus ta’lim vazirligi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Fizika-matematika fakulteti

“Fizika o‘qitish metodikasi” kafedrası

**NAZARIY FIZIKA
(ELEKTRODINAMIKA)**

fanidan

O‘QUV USLUBIY MAJMUA

Bilim sohasi: 100000 – Ta’lim

Ta’lim sohasi: 110000 – Pedagogika

Ta’lim yo‘nalishi: 5110200 – Fizika va astronomiya o‘qitish metodikasi

Nukus – 2020

Fanning O'quv-uslubiy majmuasi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi tomonidan ma'qullangan (2018-yil 18-avgust kuni, Ro'yxat raqami BD-5110200-2.06) "Nazariy fizika" Fan dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi 107-sonli buyrug'i (2017-yil 1-mart kuni) talablariga uyg'un shaklda rasmiylashtirilgan.

Tuzuvchi:

Yavidov B. "Fizika o'qitish metodikasi" kafedrasida dotsenti, f-m.f.d.

Taqrizchilar:

Atashov B. "Fizika o'qitish metodikasi" kafedrasida dotsenti, f-m.f.n.

Turdanov K. "Fizika o'qitish metodikasi" kafedrasida dotsenti, f-m.f.n.

Fanning ishchi o'quv dasturi "Fizika o'qitish metodikasi" kafedrasining 2020- yil «____» - _____
dagi № ____ - sonli yig'ilishida muhokamadan o'tgan va fakultet kengashida muhokama qilish uchun
tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri:

Kamalov A.

Fanning ishchi o'quv dasturi Fizika-mehnat fakulteti Kengashida muhokama etilgan va foydalanishga
tavsiya qilingan (2020-yil «____» _____ № __ - sonli bayonnoma).

Fakultet kengashi raisi:

Jiyemuratov R.

Fanning ishchi o'quv dasturi Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Ilmiy-uslubiy
Kengashida ko'rib chiqilgan va tasdiqlangan (2020-yil "____" _____ dagi ____sonli majlis
bayoni).

Kelishildi:

O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i

_____ Abdiev A

O‘QUV USLUBIY MAJMUA

MUDARIJASI

1. O‘quv materiallari
 - Ma’ruza materiallari (matnlar)
 - Amaliy mashg‘ulot materiallari
 - Seminar mashg‘ulot materiallari
2. Mustaqil ta’lim materiallari
3. Glossariy
4. Ilovalar
 - Namunaviy dastur
 - Ishchi fan dasturi
 - Tarqatma materiallar
 - Testlar
 - Baholash mezonlari
 - Qo‘shimcha (boshqa) materiallar
 - Masalalar to‘plami
 - Nazarot savollari
 - Umumiy savollar
 - Adabiyotlar ro‘yxati
 - Xorijiy manbalar
 - Foydali maslahatlar

Ma'ruza № 4**Mavzu: Barqaror elektr va magnit maydoni (1- qism)****Auditoriya ishlari:**

Reja:

1. Zaryadlar tizimining elektr maydoni.
2. Puasson tenglamasi. Laplas tenglamasi.
3. Fazoda taqsimlangan zaryadlarning potentsiali.
4. Chiziqli va sirtiyl zaryadlarning potentsiali.
5. Cheklangan zaryadlar tizimining potentsiali (Multipol yoyish).

Mustaqil ta'lim topshiriqlari:

1. Ikki qatlam hosil qilgan elektr potentsial.
2. Bog'langan zaryadlar hosil qilgan maydon.
3. Zaryadlangan o'tkazgichlarning maydoni.

1. Zaryadlar tizimining elektr maydoni.

Elektromagnit maydonning eng sodda masalalari bu barqaror (statsionar) masalalardir. Barqaror holda elektromagnit maydonni tavsiflovchi Maksvel tenglamasiga kiruvchi fizikaviy kattaliklar vaqtga bevosita bog'liq bo'lmaydi.

Keling Maksvel tenglamasining integral va differentsial shakllarini eslab o'tamiz.

INTEGRAL SHAKL (SGS-o'lchov birliklar tizimida).

$$\oint_S \vec{D} d\vec{s} = 4\pi \int_V \rho dV \qquad \oint_{\Gamma} \vec{E} d\vec{l} = -\frac{1}{c} \oint_S \frac{\partial \vec{B}}{\partial t} d\vec{s}$$

$$\oint_S \vec{B} d\vec{s} = 0 \qquad \oint_{\Gamma} \vec{H} d\vec{l} = \oint_S \left(\frac{4\pi}{c} \vec{j} + \frac{1}{c} \frac{\partial \vec{D}}{\partial t} \right) d\vec{s}$$

DIFFRENTSIAL SHAKL (SGS-o'lchov birliklar tizimida).

$$\operatorname{div} \vec{D} = 4\pi\rho \qquad \operatorname{div} \vec{B} = 0$$

$$\operatorname{rot} \vec{E} = -\frac{1}{c} \frac{\partial \vec{B}}{\partial t} \qquad \operatorname{rot} \vec{H} = \frac{4\pi}{c} \vec{j} + \frac{1}{c} \frac{\partial \vec{D}}{\partial t}$$

$t = 0$ bo'lganda Maksvel tenglamalari bir-biriga bog'liq bo'lmagan ikki tenglamalar tizimiga ajraladi:

E-tizim:

$$\begin{aligned} \operatorname{div} \vec{D} &= 4\pi\rho \\ \operatorname{rot} \vec{E} &= 0 \\ \vec{D} &= \vec{E} + 4\pi\vec{P} \end{aligned}$$

M-tizim:

$$\begin{aligned} \operatorname{rot} \vec{H} &= \frac{4\pi}{c} \vec{j} \\ \operatorname{div} \vec{B} &= 0 \\ \vec{B} &= \vec{H} + 4\pi\vec{M} \end{aligned}$$

E-tizim tenglamalaridan **elektrostatika** masalalarini yechishda foydalaniladi.

M-tizim tenglamalaridan **magnitostatika** masalalarini yechishda foydalaniladi.

Agar elektr toki mavjud bo'lsa unda E- va M-tizimddan birgalikda foydalanamiz, chunki elektr toki zichligi

$$\vec{j} = \sigma(\vec{E} + \vec{E}^{tashqi})$$

Formulaga muvofiq E- tizim tenglamasi orqali aniqlanadigan elektr maydoni kuchlanganligiga bog'liq.

O'tkazuvchanlik toklar mavjud bo'lgan magnitostatika masalalari, umuman olgandan, statsionar (barqaror) tizimda qaralsada, ularda uzliksiz ravishda issiqlik ajralishi munosabati bilan nomuvozanatli jarayon (tizim) sodir bo'ladi.

Elektrostatika masalalari esa har doim muvozanatli jarayon hisoblanadi.

Elektrostatika masalalariga o'z e'tiborimizni qarataylik.

E-tizim tenglamalari quyidagi hollarda elektr maydoni kuchlanganlik vektorini topishga imkon beradi:

1. Butun fazoda zaryadlar taqsimoti ma'lum bo'lsa;
2. V hajmda zaryadlar taqsimoti va uning S sirtidagi chegaraviy shartlarga ko'ra shun hajm ichidagi elektr maydoni;
3. Dielektrik muhitda zaryadlangan o'tkazgichlar mavjud hollarda;
4. Tashqi elektr maydoni E_0 mavjud bo'lganda dielektrik muhitda.

Misol uchun 1- masalani qaraylik. Vakuumd elektrostatika tenglamalari

$$\operatorname{div} \vec{E} = 4\pi\rho$$

$$\operatorname{rot} \vec{E} = 0$$

ko'rinishga ega. Maboda masala dielektrikda qarayotgan bo'lsa birinchi tengalamaning o'ng tomoniga bog'langan zaryadlar zichligini tavsiflovchi

$$\rho^b = -\operatorname{div} \vec{P}$$

hadini qo'shish kerak. Bu holda elektr maydonini dielektrik muhitda topishimiz mumkin.

$\operatorname{rot} \vec{E} = 0$ bo'lgani uchun $\vec{E}$ ni biror skalyar funktsiyaning gradient sifatida yozsak bo'ladi

$$\vec{E} = -\operatorname{grad} \varphi \quad \text{yoki} \quad \vec{E} = -\nabla \varphi.$$

Bu yerda φ – elektrostatik potentsial.

2. Puasson tenglamasi. Laplas tenglamasi.

Oxirgi ifodani E-tizimning birinchi tenglamasi

$$\nabla \vec{E} = 4\pi\rho$$

ga qo'yamiz. U holda

$$\nabla \vec{E} = \nabla(-\nabla \varphi) = 4\pi\rho \quad (*)$$

Shu yerda, yuqoridagi ifodani soddalashtirish uchun

$$\nabla \varphi = \sum_i \frac{\partial \varphi}{\partial x_i} \vec{e}_i \quad \text{va} \quad \nabla \vec{A} = \sum_i \frac{\partial A_i}{\partial x_i}$$

tengliklarni esga tushiramiz. Natijada,

$$\nabla(\nabla \varphi) = \nabla^2 \varphi = \sum_i \frac{\partial}{\partial x_i} (\nabla \varphi)_i = \sum_i \frac{\partial}{\partial x_i} \frac{\partial \varphi}{\partial x_i} = \sum_i \frac{\partial^2 \varphi}{\partial x_i^2} = \Delta \varphi \quad \text{yani}$$

$$\nabla(\nabla \varphi) = \Delta \varphi \quad \text{yoki} \quad \Delta \varphi = \operatorname{div} (\operatorname{grad} \varphi)$$

ekanligini topamiz. Bu yerda Δ - Laplas operatori deb ataladi va Dekart koordinatalar tizimida quyidagicha yoziladi:

$$\Delta = \sum_i \frac{\partial^2 \varphi}{\partial x_i^2} = \frac{\partial^2 \varphi}{\partial x^2} + \frac{\partial^2 \varphi}{\partial y^2} + \frac{\partial^2 \varphi}{\partial z^2}$$

Dekart koor.tizimida

$$\nabla^2 = \Delta$$

munosabat o`rinli!!!

Shu o`rinda quyidagi ikki ayniyatni eslab qolish lozim:

$$\operatorname{div}(\operatorname{rot} \vec{a}) = 0! \quad \text{va} \quad \operatorname{rot}(\operatorname{grad} \varphi) = 0!$$

Yuqoridagilarni inobatga olib (*) formuladan)

$$\Delta \varphi = -4\pi\rho$$

tenglamani qo`lga kiritamiz. Bu tenglama **Puasson tenglamasi** deb atalib, u elektrostatikada katta ahamiyat kasb etadi va zaryadlarning fazoda taqsimotini bilgan holda ular tashkil qilgan potentsialni ixtiyoriy nuqtada topishga imkon beradi. Agar zaryadlar zichligi noga teng bo`lsa, yani

$$\rho = 0$$

bo`lsa Puasson tenglamasi

$$\Delta \varphi = 0$$

ko`rinishga keladi va **Laplas tenglamasi** deb ataladi.

Laplas va Puasson tenglamalari ikkinchi tartibli xususiy hosilali differentsial tenglamalar bo`lib, elliptic turdagi differentsial tenglamalar sinfiga kiradi. Bunday tenglamalarning yechilishi uchun *chagaraviy*

shartlar berilgan bo`lishi yani biror S sirtida potentsial  $\varphi$  ning yoki  $(\vec{n} \cdot \vec{E})$  qiymati berilgan bo`lishi darkor. Odatda S sirt sifatida cheksizlikda joylashgan sirt tanlanadi, chunki bu holda potentsial ham sekli biror qiymatga intiladi:

$$r \rightarrow \infty \quad \text{da} \quad \varphi(\vec{r}) \rightarrow \text{const} \quad \text{yoki} \quad \varphi(\vec{r}) \rightarrow 0$$

Laplas tenglamasining umumiy yechimi quyidagicha yoziladi:

$$\varphi(\vec{r}) = \sum_{l=0}^{\infty} (a_l r^l + b_l r^{-l-1}) \sum_{m=0}^l P_l^m(\cos \vartheta) (c_m \cos m\alpha + d_m \sin m\alpha).$$

Bu yerda a_l, b_l, c_m, d_m - lar ixtiyoriy doimiylar.

3. Fazoda taqsimlangan zaryadlarning potentsiali.

Nuqtaviy e zaryadning r masofada hosil qilgan potentsiali

$$\varphi = \frac{e}{r}.$$

Bu yecheimni fazoda taqsimlangan zaryadlar tizimi hosil qilgan potentsialni topish uchun foydalanish mumkinligini ko'rsatamiz. Buning uchun δ - funktsiya yordamida zaryadlarning hajmiy zichligini

$$\rho(\vec{r}) = \int \rho(\vec{r}') \delta(\vec{r} - \vec{r}') d^3 r'$$

shaklida yozamiz va uni Puasson tenglamasiga qo'yamiz:

$$\Delta \varphi(\vec{r}) = -4\pi \int \rho(\vec{r}') \delta(\vec{r} - \vec{r}') d^3 r'.$$

$$\Delta \frac{1}{|\vec{r} - \vec{r}'|} = -4\pi \delta(\vec{r} - \vec{r}')$$

munosabatni inobatga olsak Puasson tenglamasi quyidagicha yoziladi:

$$\Delta \varphi(\vec{r}) = \int \rho(\vec{r}') \Delta \left(\frac{1}{|\vec{r} - \vec{r}'|} \right) d^3 r' = \Delta \int \frac{\rho(\vec{r}')}{|\vec{r} - \vec{r}'|} d^3 r'$$

Demak, Puasson tenglamasining yechimi

$$\varphi(\vec{r}) = \varphi_0(\vec{r}) + \int \frac{\rho(\vec{r}')}{|\vec{r} - \vec{r}'|} d^3 r'$$

bilan beriladi. Bu yerda $\varphi_0(\vec{r})$ Laplas tenglamasining biror yechimi. Odatda otentsial $\varphi_0(\vec{r})$ - cheksizlikda joylashgan va $\rho(\vec{r})$ bilan inobatga olinmagan zaryadlar hosil qilgan potentsial deb talqin qilinadi. Agar biz $\rho(\vec{r})$ orqali hatto cheksizlikdagi zaryadlarni ham inobatga olingan deb hisoblasak, unda $\varphi_0(\vec{r}) = 0$ deb yozsak bo'ladi. Puasson tenglamasi yechimi esa faqat bitta had bilan aniqlanadi:

$$\varphi(\vec{r}) = \int \frac{\rho(\vec{r}')}{|\vec{r} - \vec{r}'|} d^3 r'.$$

Bu yechim Kulon qonuniga zid emas bo'lib, $\nabla \varphi_0 = 0$ shart bajariladagina o'rinlidir.

Agar zaryadlar tizimi biror hajm bilan cheklangan bo'lsa, yechim

$$\varphi(\vec{r}) = \varphi_0(\vec{r}) + \int_{V'} \frac{\rho(\vec{r}')}{|\vec{r} - \vec{r}'|} d^3 r'$$

bilan beriladi. Bunda chegaraviy shartlar bajarilishi lozim. Fizikaviy masalalarda uch turdagi chegaraviy shartlar uchraydi:

1. S sirtida potentsial φ berilgan (Dirixle masalasi);

2. S sirtida $(\vec{n} \cdot \vec{E})$ ning normal tashkil etuvchisi berilgan (Neyman masalasi);
3. S sirtning bir qismida potentsial φ , bosqa qismida $(\vec{n} \cdot \vec{E})$ ning normal tashkil etuvchisi berilgan (aralash masala)

Bu uchta sart elektr maydoni kuchlanganligini bir qiymatli aniqlaydi. Chegaraviy shartlarni qanoatlantiruvchi Puasson tenglamasining yechimi yagonadir. Bu ta'kidlanish yagonallilik teoremasi deb ataladi.

4. Chiziqli va sirtiy zaryadlarning potentsiali.

Agar zaryad biror S sirt bo'ylab taqsimlangan bo'lsa, va taqsimot σ sirt zichligi funktsiyasi bilan berilsa,

$$\sigma = \frac{dq}{ds}$$

u holda potentsial formulasiga muvofiq

$$\varphi(\vec{r}) = \int \frac{\sigma(\vec{r}')}{|\vec{r} - \vec{r}'|} ds'.$$

Agar zaryad biror egri chiziq bo'yicha taqsimlangan, tadsimlanish qonuni zaryadning chiziqli zichligi τ bilan berilgan bo'lsa,


$$\sigma = \frac{dq}{dl}$$

u holda potentsial formulasiga muvofiq

$$\varphi(\vec{r}) = \int \frac{\tau(\vec{r}')}{|\vec{r} - \vec{r}'|} dl'.$$

5. Cheklangan zaryadlar tizimining potentsiali (Multipol yoyish).

Biror V hajmda joylashgan zaryadlar tizimini qaraylik. Hajm ichida zaryadlar zichligi nolga teng emas: $\rho \neq 0$. Hajm cheklangan bo'lib, a radiusli shar ichiga sig'adi deb faraz qilamiz. O buqtani shar markazi, kuzatish nuqtasi koordinatasini $\vec{r}$, ixtiyoriy zaryad koordinatasini $\vec{r}'$ deb belgilaymiz (rasm).



Bu zaryadlar tizimining potentsiali

$$\varphi(\vec{r}) = \int \frac{\rho(\vec{r}')}{|\vec{r} - \vec{r}'|} d^3 r'$$

formuladan hisoblash lozim. Bizni olis masofalardagi maydon potentsiali qiziqtiradi $r \gg a$. Cheksizlikda $\rho = 0$ va potentsial φ Laplas tenglamasini qanoatlantiradi, shu sabab yechim kamayuvchi bo'lishi kerak:

$$\varphi(\vec{r}) = \sum_{l=0}^{\infty} \sum_{m=0}^l r^{-l-1} P_l^m(\cos \vartheta) (a_{lm} \cos m\alpha + b_{lm} \sin m\alpha) (***)$$

Potentsialning bunday qator ko'rinishida yozilishi **multipol yoyish** deb ataladi. Qatorning koeffitsientlari a_{lm} va b_{lm} (l,m) tartibli multipol momentlari, $n = 2^l$ soni esa multipollik deb ataladi. 2^l maydon hosil qilgan potentsiali

$$\varphi_l = \sum_{m=0}^l r^{-l-1} P_l^m(\cos \vartheta) (a_{lm} \cos m\alpha + b_{lm} \sin m\alpha)$$

munosabat orqali aniqlanadi va u $r \rightarrow \infty$ da r^{-l-1} kabi kamayadi.

$l = 0$ ($n = 1$) multipol bitta nuqtaviy zaryad **monopol** maydonini tavsiflaydi.

$l = 1$ ($n = 2$) multipol ikkita nuqtaviy zaryadlar tizimi **dipol** maydonini tavsiflaydi.

$l = 2$ ($n = 4$) multipol to'rtta nuqtaviy zaryadlar tizimi **kvadrupol** maydonini tavsiflaydi.

Multipol yoyilish qatorining koeffitsientlari zaryadlarning taqsimoti $\rho(\vec{r})$ ga bog'liq. Buni ko'rsatish uchun potentsial ifodasiga kiradigan

$$\frac{1}{|\vec{r} - \vec{r}'|}$$

ni $r > a > r'$ da to'g'ri bo'ladigan Teylor qatoriga yoyamiz:

$$\frac{1}{|\vec{r} - \vec{r}'|} = \sum_{l=0}^{\infty} \frac{(-1)^l}{l!} (\vec{r}' \nabla)^l \frac{1}{r}.$$

Ma'ruza № 5

Mavzu: Barqaror elektr va magnit maydoni (2- qism)

Auditoriya ishlari:

Reja:

1. Elektrostatik maydon energiyasi.
2. Zaryadlangan o'tkazgichlar tizimining energiyasi.

Mustaqil ta'lim topshiriqlari:

1. Tashqi maydondagi o'tkazgichlar va dielektriklar.
2. Elektrostatik maydonda o'tkazgichlarga va dielektriklarga ta'sir etuvchi kuchlar.

1. Elektrostatik maydon energiyasi.

Fazoning cheklangan sohasida dielektrik muhitda ixtiyoriy ravishda taqsimlangan zaryadlar tizimi hosil qilgan elektrostatik maydon energiyasi ifodasini topamiz. Berilgan zaryadlar tizimini o'z ichiga qamrab olgan S sirtini tanlaymiz. Uning hajmi V_0 yetarlicha katta bo'lsin. U holda hajm V_0 ichida joylashgan elektrostatik maydoni energiyasi

$$W_e = \frac{1}{8\pi} \int_{V_0} (\vec{D} \cdot \vec{E}) dV. \quad (5.1)$$

$\vec{E} = -\nabla\varphi$ ekanligini inobatga olib va yuqoridagi ifodada bo'laklab integrallash amalini bajarib

$$W_e = \frac{1}{8\pi} \int_{V_0} \varphi \operatorname{div} \vec{D} dV - \frac{1}{8\pi} \int_S \varphi (\vec{n} \cdot \vec{D}) dS \quad (5.2)$$

S sirtini cheksiz katta R radiusga ega sfera deb hisoblamiz. $R \rightarrow \infty$ da potentsial

$$\varphi \sim \frac{Q}{\epsilon_\infty R} \quad (5.3)$$

kabi kamayadi. Bu yerda Q - tizimning to'liq elektr zaryadi, ϵ_∞ - cheksizlikda muhitning dielektrik singdiruvchanligi. Elektr maydoni induksiyasi (siljish) vektori uchun Gauss teoremasiga binoan

$$Q = \frac{1}{4\pi} \oint_S (\vec{n} \cdot \vec{D}) ds. \quad (5.4)$$

Gauss teoremasidan foydalanib ikkinchi integralni quyidagicha baholash mumkin:

$$\frac{1}{8\pi} \left| \int_S \varphi (\vec{n} \cdot \vec{D}) dS \right| = \frac{Q^2}{2\epsilon_\infty R} + O\left(\frac{1}{R^2}\right) \quad (5.5)$$

Ko'rinib turganidek $R \rightarrow \infty$ da, bu ifoda (va bilan birga ikkinchi integral) nolga intiladi. U holda (5.2) formula quyidagi ko'rinishga keladi

$$W_e = \frac{1}{8\pi} \int_{V_0} \varphi \operatorname{div} \vec{D} dV. \quad (5.6)$$

$$\operatorname{div} \vec{D} = 4\pi\rho \quad (5.7)$$

Ekanligini inobatga olsak (5.6) formula yanada sodda ko'rinishga keladi:

$$W_e = \frac{1}{2} \int_V \rho \varphi dV \quad (5.8)$$

Oxirgi formulada integrallash zaryadlar egallab turgan V hajm bo'yicha bajariladi. Agar biz elektrostatik maydon potentsiali φ

$$\Delta\varphi = -4\pi(\rho + \rho_p) \quad (5.9)$$

Puasson tenglamasini qanoatlantirishini va bu tenglamaning yechimi

$$\varphi(\vec{r}) = \int_{V'} \frac{\rho' + \rho_p}{|\vec{r} - \vec{r}'|} dV' \quad (5.10)$$

ekanligini inobatga olsak, (...) formula quyidagicha yozilishi mumkin:

$$W_e = \frac{1}{2} \int_V \int_{V'} \frac{\rho(\rho' + \rho_p)}{|\vec{r} - \vec{r}'|} dV dV'. \quad (5.11)$$

(5.11) tenglama umumiy hol uchun yozilgan, va u vakuumda ham, dielektrik muhitda ham elektrostatik maydon energiyasini tavsiflaydi. Xususan, vakuumda $\rho_p = 0$ bo'lganligi sabab, (5.11) formula simmetrik shaklga keladi:

$$W_e = \frac{1}{2} \int_V \int_{V'} \frac{\rho\rho'}{|\vec{r} - \vec{r}'|} dV dV'. \quad (5.12)$$

Agar zaryadlar nuqtaviy bo'lsa, (5.12) formuladagi integrallar cheksizlikka intiluvchi integrallardan iborat bo'lib, ular zaryadning xususiy energiyalarini tavsiflaydi. Rostdan ham, agar q zaryad a radiusli shar hajmida bir jinsli ravishda taqsimlangan bo'lsa, elektrostatik energiya maydoni

$$W_e = \frac{q^2}{2a} \quad (5.13)$$

ga tengdir. Bu ifoda $a \rightarrow 0$ da cheksizlikka intiladi: $W_e \rightarrow \infty$. Shu sabab diskret (nuqtaviy) zaryadlar tizimi hosil qilgan elektrostatik maydon energiyasini hisoblaganda, shu xususiy yani cheksizlikka intiluvchi energiyasi tashlab yuboriladi. Bu maydon energiyasi xususiy energiyadan boshlanishini anglatadi. Buning oqibatida nuqtaviy zaryadlar tizimi hosil qilgan elektrostatik maydon energiyasi

$$W_e' = \frac{1}{2} \sum_{i \neq k} \frac{q_i q_k}{|\vec{r}_i - \vec{r}_k|} = \frac{1}{2} \sum_i q_i \varphi_i \quad (5.14)$$

formula orqali hisoblanishini topamiz. Bu yerda φ_i i - zaryad joylashgan nuqtada i - zaryaddan boshqa barcha k - zaryadlarning hosil qilgan maydoni potentsiali.

Elektromagnit maydonning eng sodda masalalari bu barqaror (statsionar) masalalardir. Barqaror holda elektromagnit maydonni tavsiflovchi Maksvel tenglamasiga kiruvchi fizikaviy kattaliklar vaqtga bevosita bog'liq bo'lmaydi.

Irnshteyn teoremasi: Faqat elektrostatik kuchlar ta'sirida elektr zaryadlar tizimi (уточивой) muvozanat holatida bo'lishi mumkin emas.

Irnshteyn teoremasi (5.14) formula yordamida isbotlanadi.

Endi dielektrik muhitning elektrostatik maydon energiyasiga qo'shadigan ulushini to'liqroq o'rganamiz.

Elektr maydon kuchlanganligi, siljish va qutblanish vektorlari orasidagi $\vec{D} = \vec{E} + 4\pi\vec{P}$ formulasidan foydalanib myhitning qutblanishi natijasida hosil bo'lgan elektr maydoni energiyasini

$$W_p = \frac{1}{2} \int_{V_0} (\vec{E} \vec{P}) dV \quad (5.15)$$

deb yozsak bo'ladi. Muhitning qutblanishi vektori ta'rifga ko'ra

$$\vec{P} = \frac{1}{\Delta V} \sum_{i \in \Delta V} q_i \vec{r}_i = \frac{1}{\Delta V} \sum_{i \in \Delta V} q^+ \vec{l}_i. \quad (5.16)$$

Bu yerda $|\vec{l}_i|$ i -molekula-dipolda musbat va manfiy zaryad $q^\pm$ lar orasidagi effektiv masofa. Molekulani o'zaro kvazitarang (kvazielastik) kuchlar bilan bog'langan qarama-qarshi zaryadlar tizimi deb qarab va taranglik koeffitsienti k ni kiritib, taranglik kuchi va elektrostatik kuchlar muvozanatini

$$q_i^+ \vec{E}_i = k \vec{l}_i \quad (5.17)$$

deb yozsak bo'ladi. (5.16) va (5.17) formulalarni inobatga olib, (5.15) formulani

$$W_p = \frac{1}{2} \sum_i q^+ (\vec{l}_i \vec{E}_i) = \frac{1}{2} \sum_i k l_i^2 \quad (5.18)$$

shaklda yozsak bo'ladi. Demak, dielektrik muhitning elektrostatik maydoni energiyasini undagi molekula-dipollarning taranglashish potentsial energiyasi deb talqin qilish mumkin.

Yuqoridagi natijaviy xulosaga o'xshash yakunga yani (5.15) formula muhitda $\vec{P}$ qutblanish hosil qilish uchun sarflangan ish ekanligiga, biror molekula-dipol modelidan foydalanmagan holda, faqat qutblanish vektori va kuchlanganlik vektori orasida chiziqli bog'lanish mavjud deb faraz qilibgina kelish mumkin.

Rostdan ham $\vec{P}(\vec{E}) = \chi \vec{E}$ bo'lsin. U holda (5.16) formuladan foydalanib va $\vec{E}$ maydon ΔV hajm doirasida kam o'zgaradi deb hisoblab, muhitning bog'langan zaryadlari ustida bajarilgan elementar ish uchun

$$\delta W_e = \sum_i q_i (\vec{E}_i \delta \vec{r}_i) = \int (\vec{E} \delta \vec{P}) dV \quad (5.19)$$

formulani yozsak bo'ladi. (5.19) formulaga $\vec{P}(\vec{E}) = \chi \vec{E}$ ni qo'yib, integrallash amalini bajarib (5.15) formulani qo'lga kiritamiz. Shu sabab (5.15) formula bilan aniqlanadigan energiya dielektrik muhitda kuchlanganligi $\vec{E}$ bo'lgan elektr maydoni hosil qilish uchun sarflangan va muhitda zahiralangan energiya bo'lib hisoblanadi.

2. Zaryadlangan o'tkazgichlar tizimining energiyasi.

Static elektr zaryad o'tkazgichning faqat sirti bo'yicha taqsimlanganligi va bu sirtida potentsialning doimiyligi bois, bunday tizimning elektrostatik energiyasi (5.8) ga muvofiq

$$W_e = \frac{1}{2} \sum_i \oint_{S_i} \varphi_i \sigma ds = \frac{1}{2} \sum_i \varphi_i \oint_{S_i} \sigma ds = \frac{1}{2} \sum_i \varphi_i Q_i \quad (5.20)$$

ga teng. (5.20) da φ_i va Q_i mos ravishda i - o'tkazgichning zaryadi va potentsiali.

Ma'ruza № 6**Mavzu: Barqaror elektr va magnit maydoni (3- qism)****Auditoriya ishlari:**

Reja:

1. Toklarning hosil qilgan maynit maydoni.
2. Vektor potentsial.
3. Cehklangan toklar tizimi hosil qilgan magnit maydoni (Magnit multipol yoyish).

Mustaqil ta'lim topshiriqlari:

1. O'zgarmas tok hosil qilgan magnit maydoni energiyasi.
2. O'zgarmas elektr toki.

1. Toklarning hosil qilgan maynit maydoni. 2. Vektor potentsial.

O'tgan mashg'ulotlarimizda biz elektrostatika masalalarini qarab, ularni muhokama qilgan edik. Endi bugun magnitostatika masalalarini qarashni boshlaymiz. Magnitostatika masalalarini o'rganishda biz uchun dastlabki tenglamalar M- tizim tenglamalari bo'lib hisoblanadi.

M-tizim:

$$\text{rot } \vec{H} = \frac{4\pi}{c} \vec{j}, \quad (6.1)$$

$$\text{div } \vec{B} = 0, \quad (6.2)$$

$$\vec{B} = \vec{H} + 4\pi \vec{M}, \quad (6.3)$$

Bu yerda $\vec{B}$ – va $\vec{H}$ – mos ravishda magnit maydonining induksiya va kuchlanganliklari, $\vec{j}$ - o'tgazuvchanlik toki zichligi, $\vec{M}$ - moddaning qutblanishi vektori. Bir jinsli, izotro va ferromagnit bo'lmagan muhitlar uchun (6.3) munosabat soda ko'rinishga keladi:

$$\vec{B} = \mu \vec{H}. \quad (6.4)$$

(6.4) formuladagi μ - moddaning magnit singdiruvchanligi. Yuqoridagi formulalar yordamida

- 1) toklar zichligi $\vec{j}$ berilganda;
- 2) doimiy magnitlar mavjudligida;
- 3) kuchlanganligi $\vec{H}_0$ bo'lgan tashqi magnit maydoni mavjudligida;
- 4) o'tkazgichlar mavjudligida (to'liq toklar berilgan bo'lsa)

magnit maydoni induksiyasi $\vec{B}$ ni hisoblash mumkin.

Keling oldiniga vakuumda berilgan toklar hosil qilgan magnit maydoni induksiyasini topamiz. Buning uchun

$$\begin{cases} \operatorname{rot} \vec{B} = \frac{4\pi}{c} \vec{j}, \\ \operatorname{div} \vec{B} = 0 \end{cases} \quad (6.5)$$

tenglamalar tizimini yechishimiz lozim. Tok zichligi $\vec{j}$ qanday tenglamaga bo'ysinishini aniqlash uchun (6.5) tenglamalar tizimining birinchi tenglamasining ikkala tomonidan divergentsiya olamiz:

$$\operatorname{div}(\operatorname{rot} \vec{B}) = \frac{4\pi}{c} \operatorname{div} \vec{j} \quad (6.6)$$

Vektor tahlil kursidan ixtiyoriy $\vec{a}$ uchun $\operatorname{div}(\operatorname{rot} \vec{a}) = 0$ munosabat o'rinli bo'lganligidan, tok zichligi vektori qanoatlantiruvchi

$$\operatorname{div} \vec{j} = 0 \quad (6.7)$$

tenglamani qo'lga kiritamiz. Tenglamalar tizimining ikkinchi tenglamasi $\operatorname{div} \vec{B} = 0$ har doim bajarilishi uchun

$$\vec{B} = \operatorname{rot} \vec{A} \quad (6.8)$$

bo'lishi shart! $\vec{A}$ miqdor **vektor-potentsial** deb ataladi. (6.8) ni (6.5) tenglamalar tizimining birinchi tenglamasiga qo'yamiz

$$\operatorname{rot}(\operatorname{rot} \vec{A}) = \frac{4\pi}{c} \vec{j}. \quad (6.9)$$

Vektor tahlil kursidan ixtiyoriy $\vec{a}$ uchun o'rinli bo'lgan

$$\Delta \vec{a} = \operatorname{grad}(\operatorname{div} \vec{a}) - \operatorname{rot}(\operatorname{rot} \vec{a}). \quad (6.10)$$

Munosabatdan foydalanib, (6.9) formulani

$$\Delta \vec{A} - \nabla(\operatorname{div} \vec{A}) = -\frac{4\pi}{c} \vec{j} \quad (6.11)$$

deb yozamiz. Berilgan magnit maydoni induktsiyasi $\vec{B}$ uchun (6.8) formuladan cheksiz ko'p vektor-potentsiallar $\vec{A}$ ni topish mumkin. Yani $\vec{A}$ ning aniqlanishi bir qiymatli emas! Rostdan ham ixtiyoriy skalayr funktsiya ψ uchun

$$\operatorname{rot}(\operatorname{grad} \psi) = 0 \quad (6.12)$$

munosabat o'rinli bo'lganligidan, $\vec{A}$ vektor-potentsial o'rniga, undan biror skalyar funktsiya ψ gradientiga farq qiladigan boshqa bir

$$\vec{A}' = \vec{A} + \text{grad } \psi \quad \text{yani} \quad \vec{A}' = \vec{A} + \nabla \psi \quad (6.13)$$

vektor-potentsialni olish mumkin. Vektor-potentsialning (6.13) formula bo'yicha almashtirilishi **gradient almashtirish** yoki **kalibrli (darjali) almashtirish** deb ataladi. (6.13) ni har doim

$$\text{div } \vec{A}' = 0 \quad (6.14)$$

tanlanishi shart bajariladigan qilib tanlash mumkin. Buning uchun skalyar funktsiya ψ ni

$$\Delta \psi = -\text{div } \vec{A} \quad (6.15)$$

tenglamani qanoatlantiradigan qilib tanlashimiz lozim. U holda, doimo $\text{div } \vec{A} = 0$ deb qabul qilishimiz va vektor-potentsialni

$$\begin{cases} \Delta \vec{A} = -\frac{4\pi}{c} \vec{j} \\ \text{div } \vec{A} = 0 \end{cases} \quad (6.16)$$

tenglamalar tizimi yechimi sifatida topishimiz mumkin. Yani vektor-potentsial Puasson tenglamasini qanoatlantirar ekan. Shu Puasson tenglamasini yechib, yechimlar ichidan $\text{div } \vec{A} = 0$ shartni qanoatlantiradiganini olishimiz darkor. Puasson tenglamasining yechimi

$$\vec{A}(\vec{r}) = \frac{1}{c} \int \frac{\vec{j}(\vec{r}')}{|\vec{r} - \vec{r}'|} d^3 r' \quad (6.17)$$

ko'rinishda yoziladi. (6.17) formula bilan topilgan vektor-potentsial $\vec{A}$ $\text{div } \vec{A} = 0$ shartni qanoatlantiradi.

Uyga topshiriq: (6.17) formula bilan topilgan vektor-potentsial $\vec{A}$ $\text{div } \vec{A} = 0$ shartni qanoatlantirishini tekshiring.

(6.17) yechimga $\Delta \vec{A}_0 = 0$ Laplas tenglamasini va $\text{div } \vec{A} = 0$ shartni qanoatlantiruvchi boshqa yechimni qo'shish mumkin. Agar toklar tizimi fazoda cheklangan bo'lsa va cheksizlikda nolga intiladiga yechimlar talab qilingan bo'lsa, $\vec{A}_0 = 0$ bo'ladi! Chunki vektor-potentsial garmonik funktsiya hisoblanadi va maksimum qoidasiga ko'ra

$$\lim_{r \rightarrow \infty} \vec{A}_0 = 0$$

bo'lishi uchun $\vec{A}_0 = 0$ bo'lishi shart!

(6.17) formulaga rotor amaliyotini qo'llab magnit maydoni induktsiyasini topamiz:

$$\vec{B} = \text{rot } \vec{A}(\vec{r}) = \frac{1}{c} \int \text{rot} \left(\frac{\vec{j}(\vec{r}')}{|\vec{r} - \vec{r}'|} \right) d^3 r' = \frac{1}{c} \int \left[\nabla \frac{1}{|\vec{r} - \vec{r}'|} \vec{j}(\vec{r}') \right] d^3 r'. \quad (6.18)$$

(6.18) dan Bio-Savar-Laplas formulasini qo'lga kiritamiz:

$$\vec{B} = \frac{1}{c} \int \frac{[\vec{j}(\vec{r}') \times (\vec{r} - \vec{r}')] }{|\vec{r} - \vec{r}'|^3} d^3 r'. \quad (6.19)$$

Demak, (6.5) va (6.19) tenglamalari o'zaro ekvivalent ekanligi ko'rsatildi. Agar muhitda magnit maydoni o'rganilayotgan bo'lsa, $\vec{B}$ o'niga $\vec{H}$ qo'yilishi, $\vec{j}$ esa muhitning magnit singdiruvchanligi μ ga ko'paytirilishi kerak.

3. Cehklangan toklar tizimi hosil qilgan magnit maydoni (Magnit multipol yoyish).

a radiusli sferaning hajmi V bo'lib, uning ichida toklarning taqsimoti $\vec{j}$ bilan berilgan bo'lsin. Bu toklarning hosil qilgan magnit maydoni vektor-potentsiali

$$\vec{A}(\vec{r}) = \frac{1}{c} \int \frac{\vec{j}(\vec{r}')}{|\vec{r} - \vec{r}'|} d^3 r'$$

bilan aniqlanadi. Vektor-potentsial ifodasiga kiradigan

$$\frac{1}{|\vec{r} - \vec{r}'|}$$

ni $r > a > r'$ da to'g'ri bo'ladigan Teylor qatoriga yoyamiz

$$\frac{1}{|\vec{r} - \vec{r}'|} = \sum_{l=0}^{\infty} \frac{(-1)^l}{l!} (\vec{r}' \nabla)^l \frac{1}{r}.$$

va uni (6.17) ga qoyib vektor-potentsial uchun

$$\vec{A}(\vec{r}) = \sum_{l=0}^{\infty} \frac{(-1)^l}{cl!} \int_V \vec{j}' (\vec{r}' \nabla)^l \frac{1}{r} dV' = \sum_{l=0}^{\infty} \frac{(-1)^l}{l!} M^{i_1 \dots i_l} \partial_{i_1} \dots \partial_{i_l} \frac{1}{r}. \quad (6.20)$$

ni olamiz. (6.20) ifodaga $M^{i_1 \dots i_l}$ tenzor kiritilgan bo'lib, u 2^l - tartibli (pol) magnit momentni tavsiflaydi va

$$M^{i_1 \dots i_l} = \frac{1}{c} \int_{V'} x'^{i_1} \dots x'^{i_l} \vec{j}' dV' . \quad (6.20)$$

formula bilan aniqlanadi. $M^{i_1 \dots i_l}$ tenzorning har bir komponenti vektordan iborat. Eng kichik tartibli multipol moment

$$M_{(0)} = M^1 = \int_V \vec{j} dV = 0. \quad (6.21)$$

Multipol yoyishning birinchi tartibli hadi

$$\vec{A}_1 = -\frac{1}{c} \int_{V'} \vec{j}' (\vec{r}' \cdot \nabla) \frac{1}{r} dV' = -\frac{1}{2c} \int_{V'} [(\vec{r}' \times \vec{j}') \times \nabla] \frac{1}{r} dV' \quad (6.22)$$

ko'rinishga ega. (6.20) ifodani

$$\vec{m} = \frac{1}{2c} \int_V [\vec{r} \times \vec{j}] dV \quad (6.23)$$

formula bilan aniqlanadigan va **toklar tizimining magnit moment** deb ataluvchi kattalikni kiritib,

$$\vec{A}_1 = \frac{[\vec{m} \times \vec{r}]}{r^3} \quad (6.24)$$

shaklda yozish mumkin. $r > 0$ da bajariladigan

$$\text{rot} \frac{[\vec{m} \times \vec{r}]}{r^3} = -\nabla \frac{(\vec{m} \cdot \vec{r})}{r^3} \quad (6.25)$$

ayniyatdan foydalanib va elektrostatika analogiyasidek (6.24) ni $\vec{m}$ magnit momentiga ega magnit dipolini tavsiflovchi magnit skalyar potentsiali gradient sifatida yozish mumkin:

$$\vec{B} = -\nabla \frac{(\vec{m} \cdot \vec{r})}{r^3} = -\nabla \psi_1. \quad (6.26)$$

Bu yerda ψ_1 magnit skalyar potentsiali

$$\psi_1 = \frac{(\vec{m} \cdot \vec{r})}{r^3}. \quad (6.27)$$

Misol tariqasida biror kontur Γ bo'yicha o'tayotgan cheklangan chiziqli toklar I tizimini qaraylik. Chiziqli toklar uchun

$$\vec{j}dV = Id\vec{l} \quad (6.28)$$

uchun (6.17) formulaga muvofiq vektor-potentsial

$$\vec{A} = \frac{I}{c} \oint_{\Gamma} \frac{d\vec{l}'}{|\vec{r} - \vec{r}'|} \quad (6.29)$$

ba binoan topiladi. Stoks teoremasini qo'llab (6.29) ni Γ konturga tortilgan S sirt orqali oqim orqali ifodalashimiz mumkin:

$$\vec{A} = \frac{I}{c} \oint_S [\vec{n}' \times \nabla'] \frac{ds'}{|\vec{r} - \vec{r}'|} = \frac{I}{c} \oint_S \frac{[\vec{n}' \times (\vec{r} - \vec{r}')] ds'}{|\vec{r} - \vec{r}'|^3}. \quad (6.30)$$

(6.30) ni elementar magnit momenti

$$d\vec{m}' = \frac{1}{c} I \vec{n}' ds' \quad (6.31)$$

ni kiritib, magnit juft-qatlamning vektor-potentsiali shaklida tasvirlash mumkin:

$$\vec{A} = \oint_S \frac{[d\vec{m}' \times (\vec{r} - \vec{r}')] }{|\vec{r} - \vec{r}'|^3} \quad (6.32)$$

Agar biz (6.30) ga mos keladigan skalyar magnit potentsialini kiritadigan bo'lsak, u magnit juft-qatlamning vektor-potentsiali formulasiga o'xshash bo'ladi:

$$\psi = \oint_S \frac{(d\vec{m}' \cdot (\vec{r} - \vec{r}'))}{|\vec{r} - \vec{r}'|^3} = \frac{I}{c} \Omega. \quad (6.33)$$

Bu yerda Ω – qarayotgan nuqtadan Γ konturning ko'rinish fazoviy burchagi.

Ma'ruza № 7**Mavzu: O'zgaruvchan elektromagnit maydon****Auditoriya ishlari:**

Reja:

1. Bir jinsli muhitda o'zgaruvchan elektromagnit maydon.
2. Yassi elektromagnit to'lqin.
3. Zaryadlar va toklarning vakuumda hosil qilgan maydoni
4. Harakatlanayotgan zaryad maydoni.

Mustaqil ta'lim topshiriqlari:

1. Elektromagnit to'lqinlarning muhitlarning yassi chegarasida qaytishi va sinishi
2. Gertsning elektr va magnit vibratorlarining maydoni.
3. Potentsiallarning multipol yoyilishi.

1. Bir jinsli muhitda o'zgaruvchan elektromagnit maydon.

Dielektrik va magnit singdiruvchanliklari mos ravishda ε – va μ – bo'lgan muhitda Maksvel tenglamalari quyidagicha yoziladi (differentsial shakli):

$$\text{rot } \vec{H} - \frac{1}{c} \frac{\partial \vec{D}}{\partial t} = \frac{4\pi}{c} \vec{j}, \quad (7.1)$$

$$\text{div } \vec{D} = 4\pi\rho, \quad (7.2)$$

$$\text{rot } \vec{E} + \frac{1}{c} \frac{\partial \vec{B}}{\partial t} = 0, \quad (7.3)$$

$$\text{div } \vec{B} = 0, \quad (7.4)$$

$$\vec{D} = \varepsilon \vec{E}, \quad (7.5)$$

$$\vec{B} = \mu \vec{H}. \quad (7.6)$$

Erkin elektr zaryadlar va erkin toklar mavjud bo'lmagan fazoning sahosi qaraymiz. Fazoning bu qismida yuqoridagi (7.1) va (7.2) tenglamalar

$$\text{rot } \vec{H} - \frac{1}{c} \frac{\partial \vec{D}}{\partial t} = 0, \quad (7.7)$$

$$\text{div } \vec{D} = 0, \quad (7.8)$$

ko'rinishda yoziladi. ε – va μ – larning doimiyligini e'tiborga olib yuqoridagi tenglamalarni

$$\operatorname{rot} \vec{H} = \frac{\varepsilon}{c} \frac{\partial \vec{E}}{\partial t}, \quad (7.9)$$

$$\operatorname{div} \vec{E} = 0, \quad (7.10)$$

$$\operatorname{rot} \vec{E} = -\frac{\mu}{c} \frac{\partial \vec{H}}{\partial t}, \quad (7.11)$$

$$\operatorname{div} \vec{H} = 0, \quad (7.12)$$

shaklda yozib olamiz. (7.9) tenglamani vaqt bo'yicha differentsiallaymiz:

$$\frac{\partial}{\partial t} \operatorname{rot} \vec{H} = \frac{\partial}{\partial t} \frac{\varepsilon}{c} \frac{\partial \vec{E}}{\partial t}, \quad (7.13)$$

$$\operatorname{rot} \frac{\partial \vec{H}}{\partial t} = \frac{\varepsilon}{c} \frac{\partial^2 \vec{E}}{\partial t^2}. \quad (7.14)$$

(7.11) formula yordamida (7.14) tenglamani quyidagicha yozamiz:

$$-\frac{c}{\mu} \operatorname{rot} \operatorname{rot} \vec{E} = \frac{\varepsilon}{c} \frac{\partial^2 \vec{E}}{\partial t^2}. \quad (7.15)$$

Vektorlar tahlili kursidan

$$\operatorname{rot} \operatorname{rot} \vec{E} = \nabla \operatorname{div} \vec{E} - \Delta \vec{E}. \quad (7.16)$$

formuladan foydalanamiz. (7.10) formula tufayli (7.16)

$$\operatorname{rot} \operatorname{rot} \vec{E} = -\Delta \vec{E} \quad (7.17)$$

bo'ladi. Natijada (7.15) formula

$$\Delta \vec{E} - \frac{1}{V_f^2} \frac{\partial^2 \vec{E}}{\partial t^2} = 0. \quad (7.18)$$

ko'rinishga keladi. Bu yerda

$$V_f = \frac{c}{\sqrt{\varepsilon \mu}}. \quad (7.19)$$

(7.18) tenglama elektromagnit maydonning fazoda V_f tezlik bilan tarqalishini tavsiflovchi **to'lqin tenglama** deb ataladi. V_f elektromagnit to'lqinning **fazaviy tezligi** deb ataladi. Elektromagnit maydonning elektr

kuchlanganligi vektori $\vec{E}$ (7.18) kabi to'liq tenglamani qanoatlantirgani singari uning magnit maydoni kuchlanganligi $\vec{H}$ ham (7.18) tenglamaga o'xshash

$$\Delta \vec{H} - \frac{1}{V_f^2} \frac{\partial^2 \vec{H}}{\partial t^2} = 0. \quad (7.20)$$

to'liq tenglamasini qanoatlantiradi. Demak, elektromagnit maydonning fazoda tarqalishini tavsiflovchi jaroyon, elektromagnit to'liqning $\vec{E}$ va $\vec{H}$ vektorlar, umumiy ko'rinishi

$$\Delta \psi - \frac{1}{V_f^2} \frac{\partial^2 \psi}{\partial t^2} = 0. \quad (7.21)$$

kabi ikkinchi tartibli differentsial tenglamalarni qanoatlantirar ekan. (7.21) tenglamaning yechimini bir o'lchamli holat, yani ψ faqat x va t ga bog'liq bo'lgan holda, yozish qulayroq. Bir o'lchamli holda (7.21) tenglama

$$\left(\frac{\partial^2}{\partial x^2} - \frac{1}{V_f^2} \frac{\partial^2}{\partial t^2} \right) \psi = 0. \quad (7.22)$$

ko'rinishda yoziladi. (7.22) formuladagi qavni ko'paytiruvchilarga ajratamiz:

$$\frac{\partial^2}{\partial x^2} - \frac{1}{V_f^2} \frac{\partial^2}{\partial t^2} = \left(\frac{\partial}{\partial x} - \frac{1}{V_f} \frac{\partial}{\partial t} \right) \left(\frac{\partial}{\partial x} + \frac{1}{V_f} \frac{\partial}{\partial t} \right).$$

$\xi = x - V_f t$ va $\eta = x + V_f t$ kabi yangi o'zgaruvchilarni kiritib,

$$\frac{1}{2} \left(\frac{\partial}{\partial x} - \frac{1}{V_f} \frac{\partial}{\partial t} \right) = \frac{\partial}{\partial \xi} \quad \frac{1}{2} \left(\frac{\partial}{\partial x} + \frac{1}{V_f} \frac{\partial}{\partial t} \right) = \frac{\partial}{\partial \eta}$$

ekanligini inobatga olib, (7.22) tenglamani quyidagicha yozamiz:

$$\frac{\partial^2 \psi}{\partial \xi \partial \eta} = 0. \quad (7.23)$$

(7.23) ning umumiy yechimi

$$\psi(x, t) = f_1(\xi) + f_2(\eta) = f_1(x - V_f t) + f_2(x + V_f t) \quad (7.24)$$

ko'rinishda yoziladi. Bu yerda f_1 va f_2 lar ixtiyoriy funktsiyalar. (7.24) x o'qi bo'yicha qarama qarshi yo'nalishlarda tarqaluvchi ikki to'liqinni tavsiflaydi.

(7.22) tenglamani d'Alamber operatorini

$$\square = \Delta - \frac{1}{c^2} \frac{\partial^2}{\partial t^2}. \quad (7.25)$$

ni kiritib soda

$$\square \psi = 0 \quad (7.26)$$

ko'rinishda yozsa bo'ladi. (7.26) ko'rinishdagi tenglama d'Alamber tenglamasi deb ataladi. d'Alamber tenglamasining yechimini topish uchun boshlang'ich ($t=0$ da ψ ning va $\partial \psi / \partial t$ ning qiymatlari) va chegaraviy shartlar (biror S sirtida ψ ning yoki $(\vec{n} \nabla) \psi$ qiymatlari) berilgan bo'lishi shart. Tenglamaning yechimi yagonadir. d'Alamber tenglamasining yechimi boshlang'ich vaqtda berilgan ψ va $\partial \psi / \partial t$ larga mos keluvchi ikki doimiy bilan aniqlanadi. Agar har qanday ψ yechimga $\partial \psi / \partial t$ yechimni mos qo'yich mumkinligini inobatga olsak, faqat bitta doimiy bilan aniqlanadigan yechimni topish bilan kifoyalansak ham bo'ladi.

Agar qidirilayotgan yechim sferik-simmetrik bo'lsa, $\psi = \psi(r, t)$ bo'ladi, (7.26) tenglama esa

$$\frac{1}{r} \frac{\partial^2}{\partial r^2} (r\psi) - \frac{1}{c^2} \frac{\partial^2 \psi}{\partial t^2} = 0. \quad (7.27)$$

deb yoziladi. (7.27) yechim esa

$$\psi(r, t) = \frac{1}{r} [f(r - ct) + g(r + ct)] \quad (7.28)$$

kabi yoziladi.

Elektromagnit maydon nazariyasida d'Alamberning $D_0(r, t)$ bilan belgilanadigan xususiy yechimi alohida ahamiyat kasb etadi. $D_0(r, t)$ yechim sferik-simmetrik bo'lib, quyidagi boshlang'ich shartlarga bo'ysinadi:

$$D_0(r, 0) = 0; \quad \left. \frac{\partial}{\partial t} D_0 \right|_{t=0} = \delta(\vec{r}). \quad (7.29)$$

(7.28) ni (7.29) ga qo'yib

$$f(r) = -g(r), \quad \frac{c}{r} [-f'(r) + g'(r)] = -\frac{\delta'(r)}{2\pi r} \quad (7.28)$$

larni topamiz. (7.28) ni olishda $\delta(\vec{r})$ - funktsiyaning sferik koordinatalar tizimidagi tasvirlanishi

$$\delta(\vec{r}) = \frac{\delta(r)}{2\pi r} \quad (7.30)$$

va uning

$$\delta'(r) = -\delta(r) \quad (7.31)$$

xossasidan foydalandik.(7.28) dan

$$f(r) = \frac{\delta(r)}{2\pi c} \quad (7.32)$$

ni topamiz. U holda d'Alambertning xususiy yechimi uchun

$$D_0(r, t) = \frac{1}{4\pi rc} [\delta(r - ct) - \delta(r + ct)] \quad (7.33)$$

ifodani qo'lga kiritamiz.

2. Yassi elektromagnit to'lqin.

Elektromagnit to'lqinning faqat x- o'qi bo'yicha $V_f = c / \sqrt{\epsilon\mu}$ tezlik bilan tarqalishini qaraymiz. Bunda elektromagnit maydon faqat $x - V_f t$ ga bog'liq bo'ladi. Bunday elektromagnit to'lqin uchun (7.9)-(7.12) tenglamalar tizimi koordinatalar tashkil etuvchilari uchun quyidagicha yoziladi:

$$\begin{aligned} -\frac{\partial H_z}{\partial x} &= \frac{\epsilon}{c} \frac{\partial E_y}{\partial t} & \frac{\partial E_z}{\partial x} &= \frac{\mu}{c} \frac{\partial H_y}{\partial t} & \frac{\partial E_x}{\partial t} &= \frac{\partial E_x}{\partial x} = 0 \\ \frac{\partial H_y}{\partial x} &= \frac{\epsilon}{c} \frac{\partial E_z}{\partial t} & \frac{\partial E_y}{\partial x} &= -\frac{\mu}{c} \frac{\partial H_z}{\partial t} & \frac{\partial H_x}{\partial t} &= \frac{\partial H_x}{\partial x} = 0 \end{aligned} \quad (7.34)$$

(7.34) tenglamalar tizimining yechimi

$$\begin{aligned} E_y &= E^{(1)}(x - V_f t), \quad H_z = \sqrt{\frac{\epsilon}{\mu}} E^{(1)}(x - V_f t), \quad E_x = const \\ E_z &= E^{(2)}(x - V_f t), \quad H_y = -\sqrt{\frac{\epsilon}{\mu}} E^{(2)}(x - V_f t), \quad H_x = const \end{aligned}, \quad (7.35)$$

bo'lib, bu yerda $E^{(1)}$ va $E^{(2)}$ lar $x - V_f t$ argumentga bog'liq ixtiyoriy funktsiyalardir. Fizikaviy nuqtai nazardan qiziq bo'lmagan ikkita doimiy E_x va H_x larni yo'qotib, (7.34) tenglamalar tizimining ikkita o'zaro bog'lanmagan yechimini topamiz:

$$E_y = E^{(1)}(x - V_f t), \quad \sqrt{\varepsilon} E_y = \sqrt{\mu} H_z, \quad E_x = E_z = H_x = H_y = 0, \quad . \quad (7.36)$$

$$E_z = E^{(2)}(x - V_f t), \quad \sqrt{\varepsilon} E_z = \sqrt{\mu} H_y, \quad E_x = E_z = H_x = H_y = 0. \quad (7.37)$$

x - o'qi bo'yicha birlik $\vec{s}$ yo'naltirib $\vec{E}$ va $\vec{H}$ lar

$$\sqrt{\mu} \vec{H} = \sqrt{\varepsilon} [\vec{s} \times \vec{E}], \quad (7.38)$$

yoki

$$\vec{B} = \sqrt{\varepsilon\mu} [\vec{s} \times \vec{E}], \quad \vec{B} = \frac{c}{V_f} [\vec{s} \times \vec{E}] \quad (7.39)$$

munosabatlar orqali o'zaro bog'liq ekanligiga amin bo'lamiz. Topilgan bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lmagan yechimlar elektromagnit to'lqinining ikki chiziqli qutblanishiga mos keladi. Bu yechimlarning e'tibirga molik tomoni elektromagnit to'lqinlarining ko'ndalang to'lqin ekanligidadir. Elektromagnit to'lqinning ko'ndalangligi

$$(\vec{s} \cdot \vec{B}) = (\vec{s} \cdot \vec{E}) = 0, \quad (7.40)$$

munosabat bilan beriladi. U holda elektrmagnit maydoni energiyasi zichligi w va Poyting vektori $\vec{S}$ ni quyidagicha yozish mumkin:

$$w = \frac{\varepsilon E^2}{4\pi} = \frac{\mu B^2}{4\pi}, \quad (7.41)$$

$$\vec{S} = \frac{c}{4\pi} [\vec{E} \times \vec{H}], \quad (7.42)$$

$$\vec{S} = \frac{c}{\sqrt{\varepsilon\mu}} w \vec{s}, \quad (7.43)$$

Poyting vektori $\vec{S}$ elektromagnit maydoni energiyasi oqimini tavsiflaydi, uning moduli

$$S = \frac{c}{4\pi} |[\vec{E} \times \vec{H}]| = \frac{c}{4\pi} EH = \frac{c}{\sqrt{\varepsilon\mu}} w, \quad (7.44)$$

ga teng.

Elektromagnit to'qlinlarning xususiy holi yassi monoxromatik to'qlinlar bo'lib, unda $E^{(1)}$ va $E^{(2)}$ lar

$$A \cos [k(x - V_f t) + \varphi], \quad (7.45)$$

ko'rinishda tanlab olinadi. Bu yerda A va φ lar qandaydir doimiylar, ular mos ravishda to'qlin amplitudasi va to'qlin fazasi deb ataladi.

Ko'pchilik hollarda chiziqli qutblangan monoxromatik to'qlin kompleks shaklda ifodalanadi:

$$\begin{aligned} \vec{E} &= \vec{E}_0 e^{i[\vec{k} \cdot \vec{r} - \omega t + \varphi]}, & \vec{E}_0^* &= \vec{E}_0, & \vec{B} &= \frac{c}{V_f} [\vec{s} \times \vec{E}], \\ (\vec{s} \cdot \vec{E}) &= 0, & \vec{k} &= \vec{s} \frac{\omega}{V_f}. \end{aligned} \quad (7.46)$$

Bu yerda $\vec{k}$ - to'qlin vektori deb ataladi.

Elliptic qutblangan elektromagnit to'qlin quyidagicha yoziladi:

$$\begin{aligned} \vec{E} &= (\vec{E}_0^{(1)} + i\vec{E}_0^{(2)}) e^{i[\vec{k} \cdot \vec{r} - \omega t + \varphi]}, & \vec{E}_0^{*(1,2)} &= \vec{E}_0^{(1,2)}, \\ \vec{B} &= \frac{c}{V_f} [\vec{s} \times \vec{E}], & (\vec{s} \cdot \vec{E}) &= 0, \\ (\vec{E}_0^{(1)} \cdot \vec{E}_0^{(2)}) &= 0, & \vec{k} &= \vec{s} \frac{\omega}{V_f}. \end{aligned} \quad (7.47)$$

Monoxromatik yassi to'qlin har doim chiziqli qutblangan to'qlinlar superpozitsiyasi kabi ifodalanishi mumkin. Bunda har bir chiziqli qutblangan to'qlin o'zining amplitudasi, birlik qutblanish vektori $\vec{e}_r$ ($r = 1, 2$) va to'qlin vektori $\vec{k}$ ga ega bo'ladi. Birlik qutblanish vektori $\vec{e}_1$, $\vec{e}_2$ va to'qlin vektori $\vec{k}$ o'zaro ortogonal uchlikni hosil qiladi. Har bir to'qlin vektori $\vec{k}$ ga to'qlin chastotasining ikki qiymati mos keladi: $\omega = \pm k V_f$. Ishoralari bilan farq qiladigan chastotalar qarama-qarshi yo'nalishda tarqaluvchi to'qlinlarni tavsiflaydi.

Yuqoridalarni xulosa qilib, zaryad manbalari va toklar bo'lmagan bir jinsli muhitda Maksvel tenglamalarining umumiy yechimi sifatida

$$\left(\vec{E}_1(\vec{k}) e^{-ikV_f t} + \vec{E}_2(\vec{k}) e^{ikV_f t} \right) e^{i\vec{k} \cdot \vec{r}}, \quad (7.48)$$

kabi xususiy yechimlarning superpozitsiyasini olish mumkin deya olamiz. Yani

$$\vec{E}(\vec{r}, t) = \int \left(\vec{E}_1(\vec{k}) e^{-ikV_f t} + \vec{E}_2(\vec{k}) e^{ikV_f t} \right) e^{i\vec{k} \cdot \vec{r}} d\vec{k}, \quad (7.49)$$

bu yerda $\omega = |\vec{k}| V_f$, $(\vec{k} \cdot \vec{E}_{1,2}) = 0$, $d\vec{k} = d^3k = dk_x dk_y dk_z$. (7.49) formula bilan berilgan yechim

$$\vec{E}_1(\vec{k}) = \vec{E}_2^*(-\vec{k}), \quad (7.50)$$

shart bajarilganda haqiqiy maydonni ifodalaydi.

3. Zaryadlar va toklarning vakuumda hosil qilgan maydoni

Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, Maksvel tenglamasi vakuumda c tezlik bilan tarqaluvchi elektromagnit to'lqinlar superpozitsiyasi kabi erkin elektromagnit maydon yechimiga ega. Endi zaryadlar va toklar bo'lganda elektromagnit maydonni qarab chiqamiz. Zaryadlar va toklar mos ravishda ularning hajmiy zichligi ρ va tok zijligi $\vec{j}$ bilan berilgan bo'lsin. Uzluksizlik tenglamasiga muvofiq ular o'zaro

$$\frac{\partial}{\partial t} \rho(\vec{r}, t) + \text{div } \vec{j}(\vec{r}, t) = 0, \quad (7.51)$$

munosabat bilan bog'liq. Bu manbalar hosil qilgan elektromagnit maydonining $\vec{E}$ va $\vec{B}$ larni topish uchun

$$\begin{aligned} \text{rot } \vec{B} - \frac{1}{c} \frac{\partial \vec{E}}{\partial t} &= \frac{4\pi}{c} \vec{j} & (a) \quad \text{div } \vec{E} &= 4\pi\rho & (b) \\ \text{rot } \vec{E} + \frac{1}{c} \frac{\partial \vec{B}}{\partial t} &= 0 & (c) \quad \text{div } \vec{B} &= 0 & (d) \end{aligned}, \quad (7.52)$$

ko'rinishdagi Maksvel tenglamalaridan foydalanamiz. O'tgan ma'ruzalarimizda ta'kidlaganimizdek

$$\vec{B} = \text{rot } \vec{A} \quad (7.53)$$

yo'zib olamiz. U holda (7.52 c) tenglama

$$\text{rot} \left(\vec{E} + \frac{1}{c} \frac{\partial \vec{A}}{\partial t} \right) = 0 \quad (7.54)$$

ko'rinishda, uning yechimi esa

$$\vec{E} = -\nabla \varphi - \frac{1}{c} \frac{\partial \vec{A}}{\partial t} \quad (7.55)$$

bo'ladi. (7.53) va (7.55) formulalarni (7.52) tenglamalar tizimiga qo'yib φ va $\vec{A}$ potentsiallar uchun quyidagi tenglamalarni qo'lga kiritamiz:

$$\Delta \vec{A} - \frac{1}{c^2} \frac{\partial^2 \vec{A}}{\partial t^2} - \nabla \left(\operatorname{div} \vec{A} + \frac{1}{c} \frac{\partial \varphi}{\partial t} \right) = -\frac{4\pi}{c} \vec{j}$$

$$\Delta \varphi + \frac{1}{c} \frac{\partial}{\partial t} \operatorname{div} \vec{A} = -4\pi \rho$$
(7.56)

(7.53) va (7.55) tenglamalar φ va $\vec{A}$ potentsiallarni bir qiymatli aniqlay olmaydilar, chunki bu munosabatlar orqali topiladigan $\vec{E}$ va $\vec{B}$ lar

$$\vec{A} = \vec{A}' + \nabla \psi \quad \text{va} \quad \varphi = \varphi' - \frac{1}{c} \frac{\partial \psi}{\partial t}$$
(7.57)

almashtirishlarda o'zgarmaydilar. (7.57) almashtirishlari **kalibrli almashtirish** deb ataladi. Potentsiallarning bir qiymatli bo'lmay aniqlanishini (7.56) tenglamani soddalashtirish uchun qo'llasak bo'ladi. **Lorents sharti**

$$\operatorname{div} \vec{A} + \frac{1}{c} \frac{\partial \varphi}{\partial t} = 0$$
(7.58)

deb ataladigan shartni qabul qilsak, potentsiallar uchun quyidagi tenglamalar tizimini qo'lga kiritamiz:

$$\square \varphi = -4\pi \rho, \quad \vec{A} = -\frac{4\pi}{c} \vec{j}, \quad \operatorname{div} \vec{A} + \frac{1}{c} \frac{\partial \varphi}{\partial t} = 0.$$
(7.59)

Bunda agar Lorents shartini qanoatlantirmaydigan potentsiallar φ' va $\vec{A}'$ bo'lsa, (7.57) **kalibrli almashtirish** natijasida potentsiallar yangi Lorents shartini qanoatlantiruvchi φ va $\vec{A}$ potentsiallarga o'tgan bo'lamiz. Bu almashtirishda agnit maydonning skalyar potentsiali ψ

$$\square \psi = - \left(\operatorname{div} \vec{A}' + \frac{1}{c} \frac{\partial \varphi'}{\partial t} \right)$$
(7.60)

tenglamadan topiladi.

Potentsiallarga nisbatan Lorents shartidan boshqa shart ham qo'yish mumkin. Masalan, **Kulon** yoki **ko'ndalang** darajalanishida («кулоновская» или «поперечная» калибровка)

$$\operatorname{div} \vec{A} = 0$$
(7.61)

kiritiladi. Bu darajalanishga mos keluvchi tenglamalar tizimi

$$\Delta \varphi = -4\pi \rho, \quad \square \vec{A} = -\frac{4\pi}{c} \left(\vec{j} + \frac{1}{4\pi} \nabla \frac{\partial \varphi}{\partial t} \right), \quad \operatorname{div} \vec{A} = 0.$$
(7.62)

ko'rinishga ega. (7.62) tenglamalar tizimidan ko'rinishga ega Kulon darajalanishida φ uchun tenglama statik tavsifga ega bo'ladi. Bu bilan bir tomondan Kulon statik maydoni nazarda tutilsa, ikkinchi tomondan

yassi to'lqinlar uchun $\vec{A} \sim \exp[i\vec{k} \cdot \vec{r}]$ va (7.61) shart "ko'ndalanglik" sharti $(\vec{k} \cdot \vec{A}) = 0$ ga ekvivalent ekanligi nazarda tutiladi.

4. Harakatlanayotgan zaryad maydoni.

Maksvel-Lorents tenglamalari

Auditoriya ishlari:

Reja:

1. Lorentsning elektron nazariyasining asosiy tamoyillari.
2. Maksvel-Lorents tenglamalari va Maksvelning makroskopik tenglamalari.

Mustaqil ta'lim topshiriqlari:

1. O'zgarmas elektr maydonida dielektriklar

Oldingi ma'ruzalarimizda aytib o'tilganidek Maksvelning makroskopik elektrodinamikasi negizida muhitlarda kechadigan elektromagnit jarayonlarni fenomenologik tarzda

$$\vec{P} = \vec{P}(\vec{E}, \vec{B}), \quad \vec{M} = \vec{M}(\vec{E}, \vec{B}), \quad \vec{j} = \vec{j}(\vec{E}, \vec{B}) \quad (1)$$

munosabatlar bilan tavsiflash yotadi. Bu munosabatlar umumlashtirilgan tajribalar natijasi hisoblanadi. XIX asr oxiriga kelib elektronning kashf etildi va uning modda atomlarining tarkibiriga kirishi aniqlandi. Atomlar tarkibiga elektron zaryadiga karrali zaryadli zarralar kirishi aniqlandi. Shu sababli moddalarning makroskopik parametrlari ϵ (dielektrik singdiruvchanlik), μ (magnit singdiruvchanlik), σ (elektr o'tkazuvchanligi) va boshqalarini moddalarning atom strukturasi va elektronlarning mavjudligini inobatga oluvchi model negizida tushuntirish ehtiyoji tug'ildi. Bu muammo asosan golland fizigi G.Lorents (1853-1928) tomonidan qo'yilib yechilgan edi.

Lorentsning elektron nazariyasining asosiy tamoyillari.

Lorents o'zining asosiy asari "Elektronlar nazariyasi" da moddalarning elektr, magnit, optik va b. xossalarini faqat ϵ , μ , σ parametrlar orqali tushuntirish yetarli emasligini takidlaydi. Lorents fikricha modda ichidagi elektromagnit jarayonlarni tushuntirishda fundamental rol elektronlarga berilishi lozim. Elektron deganda Lorents atom tarkibiga kiruvchi barcha zaryadlangan zarralarni yani manfiy elektronlarni va musbat zaryadlangan atom yadrolarini ham tushungan. Lorents

o'zi tuzgan rejaga amal qilgan holda o'zining "elektron nazariyasi" ni ishlab chiqish uchun 1888 yili quyidagi farazlarni tallaffuz etadi:

1. Barcha moddalar manfiy va musbat zaryadlangan elektronlardan tashkil topgan. Elektronlardan boshqa hech qanday material ob'ekt yo'q.
2. Elektronlar elektromagnit efirda bo'lishadi. Elektromagnit efir holati Maksvel tenglamalariga bo'ysinadigan vakuumdagi elektromagnit maydon bilan tavsiflanadi.
3. Elektronnni juda kichik hajm ichida ρ zichlik bilan taqsimlangan zaryadli sharcha sifatida qarash mumkin.
4. Elektronning harakatini unga ta'sir etuvchi kuchning hajmiy zichligi

$$\vec{f} = \rho(\vec{E} + c^{-1}[\vec{V} \times \vec{B}]) \quad (2)$$

- bilan aniqlanadi.
5. Makroskopik maydon mikroskopik maydonlarning fazo va vaqt bo'yicha olingan o'rtacha qiymatlaridir.
 6. Efir biror inertsial sanoq sistemasiga nisbatan tinch bo'ladi.

Fizikaning keyingi rivoji yuqoridagi farazlarning hammasi ham to'g'ri emasligini ko'rsatdi. Avvalambor atom ichidagi jarayonlarni o'rganishda klassik fizika qonunlarini qo'llab bo'lmasligi ma'lum bo'ldi. Atom jarayonlarga nisbatan klassik qonunlar o'rniga kvant fizikasi qonunlari ishlatiladi. Elektonga ta'sir etuvchi kuchlar faqat elektromagnit kuchlar bo'lib qolmay, balki spin-spin ta'sirlashuvi, almashish ta'sirlashuvi, spin-orbital ta'sirlashuvi va b. ta'sirlashuvlar borligi ma'lum bo'ldi. Qolaversa efirning ham yo'qligi aniqlandi. Hozirgi zamonaviy nuqtai nazardan Lorentsning farazlarini quyidagicha qabul qilish mumkin:

1. Modda atom strukturasi ega. Moddaning elektromagnit xossalari yengil, manfiy $e = -1.6 \cdot 10^{-19} \text{ Kl}$ zaryad bilan zaryadlangan elektron va og'ir, elektron zaryadiga karra musbat zaryadlangan zarralar bilan bevosita bog'liq.

2. Bu elementar zaryadlar mikroskopik elektromagnit maydon manbalari bo'lib, zarralardan tashqarida Maksvel-Lorents tenglamalariga bo'ysinadi yani Maksvelning vakuumdagi tenglamalariga.
3. Atom, molekula va elektron modelini elektromagnit tabiatga ega bo'lmagan kuchlarni kiritmasdan tuzib bo'lmaydi va shu sabab ularning strukturalari postulatlariga tayanishi kerak.
4. Makroskopik $\vec{E}$ va $\vec{B}$ maydonlar mikroskopik $\vec{e}$ va $\vec{b}$ maydonlarning fazo va vaqt bo'yicha hisoblangan o'rtacha qiymatlaridir.
5. $\vec{e}$ va $\vec{b}$ maydonlar uchun Maksvel-Lorents tenglamalari va zaryadlarning harakat tenglamalari Lorents almashtirishlariga nisbatan kovariant (invariant) bo'lishi shart. Shu sabab efir tushunchasining kiritilishi lozim emas.

Maksvel-Lorents tenglamalari va Maksvelning makroskopik tenglamalari.

Yuqorida bayon etilgan farazlarga binoan $\vec{e}$ va $\vec{b}$ mikroskopik maydonlar uchun Maksvel-Lorents tenglamalari quyidagicha yoziladi:

$$\text{rot } \vec{b} = \frac{1}{c} \frac{\partial \vec{e}}{\partial t} + \frac{4\pi}{c} \vec{j}^{\text{micro}}, \quad \text{div } \vec{e} = 4\pi \rho^{\text{micro}}, \quad \text{rot } \vec{e} = -\frac{1}{c} \frac{\partial \vec{b}}{\partial t}, \quad \text{div } \vec{b} = 0. \quad (3)$$

Makroskopik tok va zaryadlarning zichligi quyidagicha aniqlanadi:

$$\rho^{\text{micro}}(\vec{r}, t) = \sum_i \rho_i(\vec{r}, t), \quad \vec{j}^{\text{micro}}(\vec{r}, t) = \sum_i \vec{j}_i(\vec{r}, t), \quad (4)$$

bu yerda ρ_i va $\vec{j}_i$ lar mos ravishda i – zarradagi zaryad zichligi va shu zarraga mos tok zichligi. Agar zarralarni nuqtaviy deb hisoblasak

$$\rho_i = \rho_i^{\text{nuq}}(\vec{r}, t) = e_i \delta[\vec{r} - \vec{r}_i(t)], \quad \vec{j}_i = \vec{j}_i^{\text{nuq}}(\vec{r}, t) = e_i \vec{v}_i \delta[\vec{r} - \vec{r}_i(t)] \quad (5)$$

bo'ladi, bunda $\vec{r}_i(t)$ - zarra vaziyatining radius vektori, $\vec{v}(t)$ - zarraning tezligi, e_i - zarraning zaryadi. Ammo zaryad va tok zichliklarining bunday aniqlanishida zaryadlangan zarralarning xususiy elektr va magnit momentlarga ega bo'lishi

inobatga olinmay qoladi. Zarralarning bunday strukturaviy effektlarini ρ^{micro} va $\vec{j}^{\text{micro}}$ larga

$$\rho'_i = -\text{div } \vec{\pi}_i \text{ va } \vec{j}'_i = \frac{\partial \vec{\pi}_i}{\partial t} + c \text{ rot } \vec{\mu}_i \quad (6)$$

munosabatlar bilan aniqlanadigan manba funktsiyalarni qo'shish orqali inobatga olinadi. (6) formuladagi $\vec{\pi}_i$ - va $\vec{\mu}_i$ - yordamchi vektorlar bo'lib, i - zarradan tashqarida nolga teng va shu sabab barcha hisob-kitoblarda δ - simon funktsiya deb hisoblanadi. Natijada quyidagiga kelimiz:

$$\rho^{\text{micro}}(\vec{r}, t) = \sum_i e_i \delta[\vec{r} - \vec{r}_i(t)] - \text{div } \vec{\pi}_i, \quad (7)$$

$$\vec{j}^{\text{micro}}(\vec{r}, t) = \sum_i \left\{ e_i \vec{v}_i \delta[\vec{r} - \vec{r}_i(t)] + \frac{\partial \vec{\pi}_i}{\partial t} + c \text{ rot } \vec{\mu}_i \right\}. \quad (8)$$

Zaryadlangan zarralarning juda murakkab va ayqash uyqash traektoriyalar bo'yicha harakatlanganligi sabab, ular tamonnidan hosil etiladigan $\vec{e}$ va $\vec{b}$ mikromaydonlar tasodifiy va nomuntazam (uzlukli) bo'ladi. Shu bilan birga Maksvel tenglamalariga bo'ysinuvchi $\vec{E}$ va $\vec{B}$ makroskopik maydanolar muntazan (uzluksiz) funktsiyalar orqali ifodalanadi, chunki ular (7) va (8) formulalar bilan aniqlanadigan mikroskopik miqdorlarning o'rtacha qiymatlari mos keluvchi makroskopik zarya va tok manba $\rho^{\text{to'liq}}$ va $\vec{j}^{\text{to'liq}}$ lar tomonidan hosil qilinadi. Shu sabab Maksvelning makroskopik tenglamalari Maksvel-Lorentsning mikroskopik tenglamalarini o'rtacha miqdorga keltirishda kelib chiqishi kerak.

Biz bu yerda biror $f(\vec{r}, t)$ funktsiyaning o'rtacha qiymati deganda shu funktsiyaning cheksiz kichik fizikaviy hajm ΔV va cheksiz kichik fizikaviy vaqt intervali Δt bo'yicha

$$\langle f(\vec{r}, t) \rangle \equiv \frac{1}{\Delta V \Delta t} \iint_{\Delta t, \Delta V} f(\vec{r} + \vec{r}', t + t') dt' dV' \quad (9)$$

formula bilan aniqlanadigan qiymatini tushunamiz. Shu yerda biz yuqorida aytilgan ikki tushunchani to'g'ri tushunib olishimiz kerak. Bular cheksiz kichik fizikaviy hajm va vaqt intervallaridir.

Cheksiz kichik fizikaviy hajm deganda jismning hajmidan etarlicha kichik, lekin shu bilan birga o'zida etarlicha ko'p zarralarni sig'diradigan hajm tushuniladi. Agar zarralar orasidagi masofa l , jismning chiziqli o'lchami

Ошибка! Объект не может быть создан из кодов полей редактирования.

bo'lsa cheksiz kichik fizikaviy hajm ΔV quyidagi shartni qanoatlantirishi lozim:

$$l^3 \ll \Delta V \ll L^3.$$

Fizikaviy miqdorlardan fazo (hajm) bo'yicha o'rtacha qiymat olish makroskopik nazariyada ko'p sonli zarralardan tashkil topgan ob'ektlar o'rganiladi.

Shu nuqtai nazardan miqdorlardan vaqt bo'yicha o'rtacha qiymat olish fazo bo'yicha hisoblangan o'rtacha qiymatlarning o'zlari ham zarralarning tartibsiz harakati tufayli vaqt bo'yicha xaotik (tartibsiz) o'zgaradigan bo'lishi bilan asoslanadi. Agar $\vec{v}_0$ - zarralarning o'rtacha issiqlik tezligi bo'lsa, mikroskopik miqdorlarning o'zgarish vaqtini $t_0 = l/v_0$ bilan tavsiflash mumkin. Boshqa tomondan biz doimo makroskopik sistemani tavsiflaydigan biror T vaqt miqdorni kiritishimiz mumkin. Odatda bu miqdor sifatida makroskopik sistemaning relaktatsiya vaqti yoki davriy jarayonlarda tebranishlar davri kiritiladi. U holda cheksiz kichik fizikaviy vaqt intervali Δt deganda

$$t_0 \ll \Delta t \ll T$$

shartni qanoatlantiruvchi vaqt intervali tushuniladi.

O'rtacha qiymatni hisoblash formulasi ta'rifiga binoan o'rtacha qiymat olish amali chiziqli va quyidagi xossalarga ega

$$\nabla \langle f \rangle = \langle \nabla f \rangle, \quad \frac{\partial}{\partial t} \langle f \rangle = \left\langle \frac{\partial f}{\partial t} \right\rangle. \quad (10)$$

(9) formulani Maksvel-Lorents formulalariga qo'llab va (10) xossalardan foydalanib quyidagilarni topamiz:

$$\text{rot} \langle \vec{b} \rangle = \frac{1}{c} \frac{\partial}{\partial t} \langle \vec{e} \rangle + \frac{4\pi}{c} \langle \vec{j}^{\text{micro}} \rangle, \quad \text{div} \langle \vec{e} \rangle = 4\pi \langle \rho^{\text{micro}} \rangle, \quad \text{rot} \langle \vec{e} \rangle = -\frac{1}{c} \frac{\partial}{\partial t} \langle \vec{b} \rangle, \quad \text{div} \langle \vec{b} \rangle = 0. \quad (11)$$

(11)- tenglamalarni Maksvelning makroskopik tenglamalari

$$\text{rot} \vec{H} = \frac{1}{c} \frac{\partial \vec{D}}{\partial t} + \frac{4\pi}{c} \vec{j}, \quad \text{div} \vec{D} = 4\pi \rho, \quad \text{rot} \vec{E} = -\frac{1}{c} \frac{\partial \vec{B}}{\partial t}, \quad \text{div} \vec{B} = 0 \quad (12)$$

bilan taqqoslab, ularning bir biriga mosligini ta'minlash uchun

$$\langle \vec{e} \rangle = \vec{E}, \quad \langle \rho^{\text{micro}} \rangle = \rho^{\text{toliq}} = \rho - \text{div } \vec{P}, \quad \langle \vec{b} \rangle = \vec{B}, \quad \langle \vec{j}^{\text{micro}} \rangle = \vec{j}^{\text{toliq}} = \vec{j} + \frac{\partial \vec{P}}{\partial t} + c \text{div } \vec{M} \quad (13)$$

hisoblashimiz kerak ekanligini aniqlaymiz.

Bu yerda

$$\vec{P} = \sum_i \langle \pi_i \rangle + \frac{1}{\Delta V} \sum_{\alpha \in \Delta V} e_{\alpha} \vec{r}_{\alpha}, \quad \vec{M} = \sum_i \langle \mu_i \rangle + \frac{1}{2c\Delta V} \sum_{\alpha \in \Delta V} e_{\alpha} [\vec{r}_{\alpha} \times \vec{v}_{\alpha}] \quad (14)$$

bo'lib, yig'indining ustidagi to'lqin belgisi Δt vaqt intervali bo'yicha o'rtacha qiymat olinishini anglatadi. (14) formuladagi mikroskopik hisoblashlar (elektron nazariya) bilan topilgan $\vec{P}$ va $\vec{M}$ vektorlari oldingi ma'ruzalarimizda fenomenologik yo'l bilan aniqlangan qutblanish vektori va magnitlanish vektorlaridan faqat qo'shimcha vaqt bo'yicha o'rtacha qiymatning olinishi bilan farq qilar ekan. Shu sabab biz ularni ($\vec{P}$ va $\vec{M}$) muhitning elektr dipol momenti va magnit dipol momentlarining o'rtacha zichliklari deb talqin qilishimiz mumkin. Zaryadlar zichligi va tok zichligini erkin zaryadlar zichligining nuqtaviy qismlaridan o'rtacha qiymat olish bilan topiladi. Erkin zaryadlarni β indeks bilan belgilab, yozamiz:

$$\rho = \sum_{\beta} e_{\beta} \langle \delta(\vec{r} - \vec{r}_{\beta}) \rangle, \quad \vec{j} = \sum_{\beta} e_{\beta} \langle \vec{v}_{\beta} \delta(\vec{r} - \vec{r}_{\beta}) \rangle \quad (15)$$

Shunday qilib Lorents yaratgan mikroskopik elektron nazariyada Maksvelning makroskopik tenglamalari Maksvel-Lorentsning mos tenglamalarini fazoviy va vaqtiy o'rtacha hisoblash natijasida topilar ekan. Elektron nazariyaning keyingi vazifasi moddaning elektromagnit holarini tavsiflovchi

$$\vec{P} = \vec{P}(\vec{E}, \vec{B}), \quad \vec{M} = \vec{M}(\vec{E}, \vec{B}) \quad (16)$$

holat tenglamalarini har bir konkret masalalarda aniqlashdir.

Mavzu: Elektromagnit maydon energiyasi

Fizikaning elektrodinamika bo'limida ham, boshqa bo'limlardagidek, energiyaning saqlanish qonuni katta ahamiyat kasb etadi. Elektromagnit maydonda sodir bo'ladigan jarayonlarni o'rganish, ularni tahlil qilish va bashorat qilish energiyaning saqlanish qonunlari tenglamalari asosida bajarish mumkin. Jumladan elektromagnit maydonning o'ziga ham, xuddi materiyaning barcha turlari singari energiyaga egaligi, biror energiya miqdori qiyoslanishi mumkin. Elektromagnit maydon energiyaga ega bo'lishi, bu energiyaning fazoda vaqt bo'yicha ko'chishi yani uzatilishi, va umumiy energetik almashuv jarayonlarida ishtirok etishi mumkin.

Keling bu holni ko'rib chiqamiz.

Qo'zg'almas o'tkazgichlar, dielektriklar va magnetiklardan tashkil topgan barqaror tizimni qaraylik. Tizimni tavsiflovchi asosiy parametrlar bu: uning o'tkazuvchanligi $\sigma(\vec{r})$, dielektrik singdiruvchanligi $\varepsilon(\vec{r})$, magnit singdiruvchanligi $\mu(\vec{r})$. Umuman olganda tizim anizotrop deb qaralishi mumkin. Elektromagnit maydonda tizim tarkibiga kiruvchi elektr zaryadlariga

$$\vec{F} = q \left(\vec{E} + \frac{1}{c} [\vec{v} \times \vec{B}] \right) \quad (\text{eme-1})$$

kuchi ta'sir qiladi. tezligi $\vec{v}_i$ teng zaryadga $\vec{F}_i$ kuch ta'sir qiladi va uning ustidan vaqt birligi ichida $(\vec{F}_i \cdot \vec{v}_i)$ ish bajaradi. Butun tizim tarkibida bu ish

$$\sum_{i \in \Delta V} (\vec{F}_i \cdot \vec{v}_i) \quad (\text{eme-2})$$

ga, to'liq ishni bajarishga sarflanuvchi energiya quvvati esa

$$\frac{1}{\Delta V} \sum_{i \in \Delta V} (\vec{F}_i \cdot \vec{v}_i) = \frac{1}{\Delta V} \sum_{i \in \Delta V} q_i (\vec{v}_i \times \vec{E}_i) \quad (\text{eme-3})$$

bilan beriladi. Yani ishni faqat elektr kuchlari bajaradi.

Barqaror tizimda energiyaning saqlanish qonuniga binoan maydon tomonidan bajarilgan ish issiqlik shaklida atrofga chiqishi lozim. Unda (eme-3) ifoda ajralayotgan issiqlik quvvatining hajmiy zichligini tavsiflaydi.

Erkin zaryadlar qaralayotganda mikroskopik $\vec{E}_i$ maydon makroskopik $\vec{E}$ maydon bilan almashtirilishi mumkin. Elektr toki zichligi ta'rifi formulasi

$$\vec{j} = \frac{1}{\Delta V} \sum_{i \in \Delta V} q_i \vec{v}_i \quad (\text{eme-4})$$

dan foydalanib (eme-3) ifodani

$$q = (\vec{j} \cdot \vec{E}) \quad (\text{eme-5})$$

deb yozamiz. Agar qaralayotgan o'tkazgich Ohm qonuniga bo'ysinsa yani

$$\vec{j} = \sigma \vec{E} \quad (\text{eme-6})$$

bo'lsa

$$q = (\vec{j} \cdot \vec{E}) = \sigma E^2 = \frac{j^2}{\sigma} = \rho j^2 \text{ yani } q = \rho j^2. \quad (\text{eme-7})$$

(eme-7) munosabat **Joul-Lens qonunining differentsial shakli** bo'lib unga ko'ra o'tkazgichda vaqt birligi ichida ajralib chiquvchi issiqlik miqdori quvvati o'tkazgichning solishtirma qarshiligiga va tok zichligining kvadratiga to'g'ri proporsional.

Vaqt birligi ichida o'tkazgichning butun hajmida ajraladigan issiqlik miqdori esa

$$P = \int_V q dV = \int_V (\vec{j} \cdot \vec{E}) dV \quad (\text{eme-8})$$

bo'ladi. Maksvel tenglamalaridan tok zichligini aniqlaymiz

$$\vec{j} = \frac{c}{4\pi} \left(\text{rot } \vec{H} - \frac{1}{c} \frac{\partial \vec{D}}{\partial t} \right) \quad (\text{eme-9})$$

va uni (eme-8) formulaga qoyamiz

$$(\vec{j} \cdot \vec{E}) = (\vec{E} \cdot \vec{j}) = \frac{c}{4\pi} \left(\vec{E} \cdot \text{rot } \vec{H} - \frac{1}{c} \vec{E} \cdot \frac{\partial \vec{D}}{\partial t} \right). \quad (\text{eme-10})$$

Vektorlar taglili kursidan

$$\vec{E} \cdot \text{rot } \vec{H} = \vec{H} \cdot \text{rot } \vec{E} - \text{div} [\vec{E} \times \vec{H}]$$

munosabatni va Maksvelning

$$\text{rot } \vec{E} = -\frac{1}{c} \frac{\partial \vec{B}}{\partial t}$$

tenglamasini ishlatib (eme-10) ifodani

$$(\vec{j} \cdot \vec{E}) = (\vec{E} \cdot \vec{j}) = -\frac{1}{4\pi} \left(\vec{E} \cdot \frac{\partial \vec{D}}{\partial t} + \vec{H} \cdot \frac{\partial \vec{B}}{\partial t} \right) - \text{div} \left(\frac{c}{4\pi} [\vec{E} \times \vec{H}] \right) \quad (\text{eme-11})$$

shaklida yozishimiz mumkin. Bir jinsli izotrop harakatsiz muhitda, ε va μ vaqtga bog'liq bo'lmaydi va

$$\vec{D} = \varepsilon \vec{E},$$

$$\vec{B} = \mu \vec{H}$$

chiziqli bog'lanish o'rinlidir. U holda (eme-11) formulani

$$w = \frac{1}{8\pi} [\vec{E}\vec{D} + \vec{B}\vec{H}] \quad (\text{eme-12})$$

$$\vec{S} = \frac{c}{4\pi} [\vec{E} \times \vec{H}] \quad (\text{eme-13})$$

kabi belgilashlar kiritib

$$q = (\vec{j} \cdot \vec{E}) = -\frac{\partial w}{\partial t} - \text{div } \vec{S}. \quad (\text{eme-14})$$

shaklda yozishimiz mumkin. (eme-14) formulani (eme-8) formulaga qo'yib, S sirtning shakli va o'lchamlari vaqtga bog'liq emasligini inobatga olib

$$P = -\frac{\partial}{\partial t} \int_V w dV - \oint_S \vec{S} d\vec{s} \quad (\text{eme-15})$$

formulani qo'lga kiritamiz. Oxirgi munosabat w va $\vec{S}$ larning fizikaviy ma'nosini ochib beradi. (eme-15) formulaning chap tomoni P – elektromagnit maydonning V hajmda joylashgan erkin zaryadlar ustidan 1 sekundda bajargan ishini ifodalaydi. Energiyaning saqlanish qonuniga binoan tenglamaning o'ng tomoni V hajmga elektromagnit maydon energiyasining kirishi va chiqishlari bilan bog'liq bo'lishi kerak.

Agar barqaror tizimni qaraydigan bo'lsak

$$\frac{\partial w}{\partial t} = 0 \quad (\text{eme-16})$$

bo'lishi va V hajmdagi elektromagnit maydon energiyasi o'zgarmasligi lozim. V hajmda elektromagnit maydonning erkin zaryadlar ustidan bajargan ishi va buning oqibatida energiyaning Joule-Lens qonuniga muvofiq sochilishi, energiyaning saqlanishi uchun, tashqaridan energiyaning hajmga kirib kelishi (oqishi) hisobidan to'ldirilishi yoki muvozanatlanishi lozim. Bundan $\vec{S}$ - **elektromagnit maydoni energiyasi oqimining zichligi** deb ataladi. $\vec{S}$ ning maxsus nomi bor bo'lib, **Poyting vektori** yoki ba'zida **nurlanish vektori** deb ham ataladi. Poyting vektorining yo'nalishi elektromagnit to'lqinning tarqalish yo'nalishi bilan birdek, va un elektromagnit to'lqini energiyasining qay tomonga oqishini ko'rsatadi. Son jihatdan elektromagnit to'lqin tarqalishi yo'nalishiga tik (perpendikulyar) qo'yilgan birlik yuzadan birlik vaqtda o'tadigan energiya miqdoriga teng.

w - kattalikning ma'nosini bilish uchun nurlanish orqali energiya chiqmay turgan xususiy holni qaraymiz. Bunda

$$\oint_S \vec{S} d\vec{s} = 0 \quad (\text{eme-17})$$

bo'ladi. V hajmda elektromagnit maydonining erkin zaryadlar ustidan bajargan ishi faqat shu hajmdagi elektromagnit maydoni energiyasi hisobidan bo'ladi, aniqrog'i uning kamayishiga tengdir. U holda, w -kattalikni **elektromagnit maydon energiyasining hajmiy zichligi** sifatida talqin qilsak bo'ladi.

(eme-14) munosabatni birinchi marta ingliz fizigi J.Poyting 1884 yili yozgib isbotlab bergan. Shu bois (eme-14) munosbat **Poyting teoremasi** nomi bilan mashhur.

Poyting teoremasi rus olimi N.A.Umov (H.A.Умов) tomonidan, J.Poytingdan ancha oldin, aniqrog'i, 1874 yili isbotlangan boshqa, yanada umumiyroq, teoremaning xususiy holi hisoblanadi. N.A.Umov w zichlik bilan fazoda taqsimlangan ixtiyoriy shakldagi energiyaning tarqalishini o'rgangan. U fanga energiya oqimining zichligi $\vec{S}$ - tushunchasini kiritdi. Xususan, issiqlik hodisalari uchun, issiqlik ajralmaganda

$$\frac{\partial w}{\partial t} + \operatorname{div} \vec{S} = 0 \quad (\text{eme-18})$$

formulani topgan, va bunda issiqlik energiyasi biror hajmga uning sirti orqali oqib kirishi, oqib chiqishi, umuman olganda o'zini fazoda yoyilgan substansiyadek tutishini ko'rsatgan. Fizikaning termo- va gidroaerodinamika bo'limlarida, odatda, $\vec{S}$ - **Umov vektori** deb ataladi. Ba'zida elektrodinamika bo'limida ham $\vec{S}$ - ni nomlashda "Umov" nomi qo'shilib **Umov-Poyting vekt vektori** deb ataladi.

12 - Ma'ruza
Mavzu: Relativistik kinematika elementlari
(2- qism)

Lorents almashtirishlari

Oldingi ma'ruzalarda 4-fazodagi hodisa orasidagi interval Δs invariant ekanligini yani interval evklid fazosidagi vektorning moduli kabi bo'lishini ko'rgan edik. Shu bois intervalni 4-fazodagi biror dunyoviy nuqtadan boshqa bir dunyoviy nuqtaga yo'naltirilgan vektorning moduli ("uzunligi") deb qarash mumkin. Agar

$$x^0 = ct, \quad x^1 = x, \quad x^2 = y, \quad x^3 = z, \quad (L.1)$$

deb belgilash kiritsak intervalning kvadratini quyidagi ko'rinishda yozsak bo'ladi:

$$\Delta s^2 = (\Delta x^0)^2 - (\Delta x^1)^2 - (\Delta x^2)^2 - (\Delta x^3)^2.$$

Ikki nuqta orasidagi masofaning kvadrati evklid fazosida

$$\Delta l^2 = |\vec{r}_2 - \vec{r}_1|^2 = \Delta x_1^2 + \Delta x_2^2 + \Delta x_3^2$$

formula bilan beriladi yani Δl ikki nuqtalarning radius vektorlarining ayirmasining moduli orqali ifodalanadi. 4-fazoda ham interval Δs ni ikki 4-radius vektorlarning ayirmasining moduli shaklida ifodalash mumkin. Buning uchun x^0, x^1, x^2, x^3 larni dunyoviy nuqtaning vaziyatini tavsiflovchi 4-vektorning mos koordinatalari deb qaraymiz. Bu 4-vektorning modulining kvadrati

$$(x^0)^2 - (x^1)^2 - (x^2)^2 - (x^3)^2 \quad (L.2)$$

ga tengdir. Vaziyati (L.1) formula bilan ifodalanadigan va 4-vektorning moduli (L.2) formula bilan aniqlanadigan 4-fazo **psevdoevklid fazo** deyiladi. Psevdoevklid fazoning metrikasi

$$g^{\mu\nu} = g_{\mu\nu} = \begin{pmatrix} 1 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & -1 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & -1 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & -1 \end{pmatrix} \quad (L.3)$$

tenzor bilan aniqlanadi. Psevdoevklid fazoda 4-vektorning kvadratini

$$\sum_{\mu, \nu=0}^3 g_{\mu\nu} x^\mu x^\nu = (x^0)^2 - (x^1)^2 - (x^2)^2 - (x^3)^2 = (x^0)^2 - \sum_{i=1}^3 (x^i)^2 = c^2 t^2 - \vec{r}^2 \quad (L.4)$$

yoki

$$\sum_{\mu, \nu=0}^3 x_\nu x^\nu = x_0 x^0 + x_1 x^1 + x_2 x^2 + x_3 x^3 \quad (L.5)$$

shaklida yozamiz. Biror koordinatalar sistemasidan boshqa koordinatalar sistemasiga o'tishda 4-vektorlarning koordinatalari

$$x'^\mu = \sum_{\nu=0}^3 \alpha_\nu^\mu x^\nu \quad (L.6)$$

formulaga binoan almashtiriladi. Agar K va K' koordinatalar sistemasi qilib 1-rasmda ko'rsatilgandek ikki ISS sini olsak, (L.6) formuladagi almashtirish matritsasi

$$\alpha_\nu^\mu = \begin{pmatrix} \alpha_0 & \alpha_1 & 0 & 0 \\ \alpha_1 & \alpha_0 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 1 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 1 \end{pmatrix} \quad (L.7)$$

bilan aniqlanadi. Bu yerda

$$\alpha_0^2 - \alpha_1^2 = 1 \quad (L.8)$$

shart bajarilishi kerak. Almashtirish matritsa koeffitsientlari faqat koordinatalar sistemalarining nisbiy tezliklari V_0 ga bog'liq bo'lishi mumkin. Koeffitsientlarni topish maqsadida x^{11} ning aniq almashtirish formulasini yozamiz


$$x^{11} = \alpha_1 x^0 + \alpha_0 x^1 \text{ yoki } x' = \alpha_1 ct + \alpha_0 x.$$

Agar bu formulani K' sanoq sistemasining sanoq boshi O' nuqta uchun yozsak, $x' = 0$ va $x = Vt$ bo'ladi. U holda $0 = \alpha_1 ct + \alpha_0 Vt$ bo'ladi va undan $\alpha_1 = -(V/c)\alpha_0$ ni topamiz. (L.8)

munosabatdan

$$\alpha_0 = \frac{1}{\sqrt{1 - V^2/c^2}} \text{ va } \alpha_1 = -\frac{V/c}{\sqrt{1 - V^2/c^2}} \quad (\text{L.9})$$

larni topamiz. Endi almashtirish matritsasining aniq ko'rinishini yozamiz:



1-rasm. K va K' sanoq sistemalarining o'zaro joylashishi.

$$\alpha_v^\mu = \begin{pmatrix} \frac{1}{\sqrt{1-\beta^2}} & \frac{-\beta}{\sqrt{1-\beta^2}} & 0 & 0 \\ \frac{-\beta}{\sqrt{1-\beta^2}} & \frac{1}{\sqrt{1-\beta^2}} & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 1 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 1 \end{pmatrix} \quad (\text{L.10})$$

Bu yerda biz $\beta = V/c$ belgilash kiritdik.

Teskari lmashtirish matritsasining elementlari (L.10) dagidan

faqat element suratida β ning ishorasining o'zgarishi bilan farq qiladi.

Topilgan elementlarini α_v^μ ning (L.6) dagi o'rniga qo'yib 4-radius vektor komponentlarining almshtirish formulasini yozamiz

$$x^{0'} = \frac{x^0 - \beta x^1}{\sqrt{1 - \beta^2}}, \quad x^{1'} = \frac{-\beta x^0 + x^1}{\sqrt{1 - \beta^2}}, \quad x^{2'} = x^2, \quad x^{3'} = x^3. \quad (\text{L.11})$$

Tesakari almashtirish formulalari quyidagicha yoziladi:

$$x^0 = \frac{x^{0'} + \beta x^{1'}}{\sqrt{1 - \beta^2}}, \quad x^1 = \frac{\beta x^{0'} + x^{1'}}{\sqrt{1 - \beta^2}}, \quad x^2 = x^{2'}, \quad x^3 = x^{3'}. \quad (\text{L.12})$$

Agar odatdagi dekart koordinatalariga o'tsak yuqoridagi formulalar

$$t' = \frac{t - (V/c^2)x}{\sqrt{1 - \beta^2}}, \quad x' = \frac{x - Vt}{\sqrt{1 - \beta^2}}, \quad y' = y, \quad z' = z. \quad (\text{L.13})$$

$$t = \frac{t' + (V/c^2)x'}{\sqrt{1 - \beta^2}}, \quad x = \frac{x' + Vt'}{\sqrt{1 - \beta^2}}, \quad y = y', \quad z = z'. \quad (\text{L.14})$$

(L.13) va (L.14) formulalari **Lorents almashtirishlari** deb ataladi. Bu almashtirishlar 4-fazoda intervalni invariant qoldiradi. Kichik tezliklarda Lorents almashtirishlari Galiley almashtirishlariga o'tadi. Lorents almashtirishlaridan uzunlik elementining va vaqt intervalining biror ISS dan boshqa ISS ga o'tganda qanday almashtirish formulasini topish mumkin:

$$l = l_0 \sqrt{1 - \beta^2}, \quad (\text{L.15})$$

$$\Delta t' = \Delta t \sqrt{1 - \beta^2}, \quad (\text{L.16})$$

bu yerda l va l_0 mos ravishda jismning K va K' sanoq sistemalarida uzunligi, Δt va $\Delta t'$ lar mos ravishda K va K' sanoq sistemalari soatlari bilan o'lchanadigan vaqt intervallari. Shu

takidlab o'tamizki, harakat davomida jismning ko'ndalang o'lchamlari o'zgarmaydi, hajmi esa (L.15) ga muvofiq

$$\Omega = \Omega_0 \sqrt{1 - \beta^2}, \quad (L.17)$$

o'zgaradi, bu yerda Ω va Ω_0 mos ravishda jismning K va K' sanoq sistemalarida hajmlari.

Endi tezlik komponentlarining almashtirish formulalarini topamiz. (L.13) formulalarni differentsiallaymiz

$$dt' = \frac{dt - (V/c^2)dx}{\sqrt{1 - \beta^2}}, \quad dx' = \frac{dx - Vdt}{\sqrt{1 - \beta^2}}, \quad dy' = dy, \quad dz' = dz.$$

U holda

$$V'_x = \frac{dx'}{dt'} = \frac{dx - Vdt}{dt - (V/c^2)dx} = \frac{dx/dt - V}{1 - (V/c^2)dx/dt} = \frac{V_x - V}{1 - V_x V / c^2}.$$

Yani

$$V'_x = \frac{V_x - V}{1 - V_x V / c^2}. \quad (L.18)$$

Tezlikning qolgan ikki komponentlarining ham almashtirish formulalarini aniqlash mumkin. Ular quyidagi ko'rinishga egalar:

$$V'_y = \frac{V_y \sqrt{1 - \beta^2}}{1 - V_x V / c^2}, \quad V'_z = \frac{V_z \sqrt{1 - \beta^2}}{1 - V_x V / c^2}. \quad (L.19)$$

Teskari almashtirish formulalari quyidagicha yoziladi:

$$V_x = \frac{V'_x + V}{1 + V'_x V / c^2}, \quad V_y = \frac{V'_y \sqrt{1 - \beta^2}}{1 + V'_x V / c^2}, \quad V_z = \frac{V'_z \sqrt{1 - \beta^2}}{1 + V'_x V / c^2}. \quad (L.20)$$

Harakatlanuvchi jismning tezligi $\vec{V}$ vektori X o'qi bilan θ burchak, $\vec{V}'$ tezlik vektori X' o'qi bilan θ' burchak hosil qilib harakatlansin. Bu burchaklar orasidagi munosabatni topamiz.

Koordinata o'qlarini shunday qilib tanlaymizki, bunda jism tezligi $\vec{V}$, $\vec{V}'$ koordinata o'qlari X va Y bir tekislikda yotsin. U holda

$$V_x = V \cos \theta, \quad V_y = V \sin \theta \\ V'_x = V' \cos \theta', \quad V'_y = V' \sin \theta'.$$

(L.18) va (L.19) formulalaridan

$$\operatorname{tg} \theta' = \frac{V'_y}{V'_x} = \frac{V_y \sqrt{1 - \beta^2}}{V_x - V} = \frac{V \sin \theta \sqrt{1 - \beta^2}}{V \cos \theta - V} \quad (L.21)$$

ni topamiz. Bu formula ma'lum $\vec{V}$ va θ lardan, noma'lum θ' ni topishga imkon beradi. Yani $\vec{V}'$ tezlik vektorining X' o'qi bilan hosil qiluvchi θ' burchagini topishga imkon beradi. Xuddi shunga o'xshash formula yordamida berilgan $\vec{V}'$ va θ' dan θ ni topish mumkin:

$$\operatorname{tg} \theta = \frac{V_y}{V_x} = \frac{V'_y \sqrt{1 - \beta^2}}{V'_x + V} = \frac{V' \sin \theta' \sqrt{1 - \beta^2}}{V' \cos \theta' + V}. \quad (L.22)$$

4-TEZLIK VA 4-TEZLANISH

Norelyativistik mexanikada fazo intervali dl va vaqt intervali dt lar invariant hisoblanadi. Shu bois 3-radius vektori $d\vec{r}$ komponentlarining dt invariantga bo'linishi natijasida topilgan miqdorlar to'plami 3-tezlikni hosil qiladi. Xuddi shunga o'xshash 3-tezlanish $\vec{w}$ ham 3-tezlik vektroi $\vec{v}$ ning komponentlarining dt ga bo'linishi natijasida topiladi. Lekin oldin ko'rganimizdek

4-fazoda dl va dt miqdorlar alohida invariant bo'lmaydilar, balki ularning kombinatsiyasi bo'lmish va interval deb atalmish

$ds^2 = c^2 dt^2 - dl^2$ miqdor invariant bo'ladi. Intervalning invariant bo'lishi oldin bizga 3-fazodagi radius vektor analogi 4-vektorlarni kiritishga imkon bergan edi. Endi, hozir biz odatdagi tezlik va tezlanish vektorlarining 4-fazodagi analoglari 4-tezlik va 4-tezlanishlarni aniqlashga urinib ko'ramiz. Agar biz

$$\frac{dx^\mu}{dt}$$

nisbatni qarasak, bu miqdor 4-tezlik xossasiga ega emas, chunki dt invariant emas, va

$$\sum \frac{dx^\mu}{dt} \frac{dx_\mu}{dt}$$

Lorents almashtirishlarida o'z qiymatini saqlamaydi. Ammo biz invariant bo'lgan xususiy vaqtni bilamiz: $d\tau = ds/c$. Shu sabab 4-tezlik deb

$$u^\mu = \frac{dx^\mu}{d\tau} = c \frac{dx^\mu}{ds} \quad (U.1)$$

munosabat bilan aniqlanadigan miqdorga aytamiz. Xuddi shunga o'xshash tarzda 4-tezlanish aniqlanadi

$$w^\mu = \frac{du^\mu}{d\tau} = \frac{d^2 x^\mu}{d\tau^2} = c^2 \frac{d^2 x^\mu}{ds^2}. \quad (U.2)$$

dx^μ ning qiymatini va xususiy vaqtning

$$d\tau = dt \sqrt{1 - \beta^2} \quad (U.3)$$

ekanligini inobatga olib 4-tezlikning komponentlarini topamiz:

$$u^0 = \frac{c}{\sqrt{1 - \beta^2}}, \quad u^k = \frac{v_k}{\sqrt{1 - \beta^2}}, \quad (k=1,2,3). \quad (U.4)$$

Oxirgi formulani qisqa qilib

$$u^\mu = \left(\frac{c}{\sqrt{1 - \beta^2}}, \frac{\vec{v}}{\sqrt{1 - \beta^2}} \right) \quad (U.5)$$

yozish mumkin. (U.3) formuladan

$$\sum_{\mu=0}^3 u^\mu u_\mu = c^2 \quad (U.6)$$

ayniyatni aniqlaymiz. (U.5) formulani xususiy vaqt $d\tau$ bo'yicha differentsiallaymiz

$$\sum_{\mu} \frac{du^\mu}{d\tau} u_\mu + \sum_{\mu} u^\mu \frac{du_\mu}{d\tau} = \sum_{\mu} w^\mu u_\mu + \sum_{\mu} u^\mu w_\mu = 0$$

Oxirgi ikki had o'zaro tengligidan

$$\sum_{\mu} w^\mu u_\mu = 0 \quad (U.7)$$

ni topamiz. Yani 4-tezlik va 4-tezlanish vektorlari o'zaro perpendikulyardir.

13 - Ma'ruza

Mavzu: Relativistik dinamika elementlari

RELYATIVISTIK DINAMIKA

Newton tenglamalari Galiley almashtirishlariga nisbatan invariantdir. Ammo Lorents almashtirishlariga nisbatan invariant emas. Shu sabab, yani Einshteinning nisbiylik printsiptini qanoatlantirish uchun Newtonning ikkinchi qonuni yanada umumiyroq qonun bilan to'ldirishimiz darkor. Kichik tezliklarda Lorents almashtirishlari Galiley almashtirishlariga o'tishini inobatga olib relyativistik invariant tenglamalarni shunday shart bilan tuzishimiz kerakki, bunda kichik tezliklarda barcha formulalar Newton tenglamalariga o'tsin. Newtonning harakat tenglamasi

$$\frac{d}{dt}(mv_i) = F_i, (i=1,2,3) \quad (K.1)$$

ko'rinishda yoziladi. (K.1) tenglamaning tabiiy umumiylashtirilganini

$$\frac{d}{d\tau}(mu^\mu) = K^\mu, (\mu=0,1,2,3) \quad (K.2)$$

shaklda yozamiz. Bunda m – jismning inert xossalarini tavsiflovchi invariant miqdor (jism massasi), u^μ - jismning 4-tezligi vektorining komponentlari, K^μ - Minkovskiy kuchi deb ataluvchi qandaydir 4-vektor. (U.3) va (U.4) formulalarni inobatga olib Minkovskiy kuchi 4-vektorining koordinatalarini aniqlaymiz

$$\frac{1}{\sqrt{1-\beta^2}} \frac{d}{dt} \left(\frac{mc}{\sqrt{1-\beta^2}} \right) = K^0, \quad (K.3)$$

$$\frac{1}{\sqrt{1-\beta^2}} \frac{d}{dt} \left(\frac{mv_i}{\sqrt{1-\beta^2}} \right) = K_i, (i=1,2,3). \quad (K.4)$$

Oxirgi ikki tenglamaning ikkala tomonlarini ham $\sqrt{1-\beta^2}$ ga ko'paytirib

$$\frac{d}{dt} \left(\frac{mc}{\sqrt{1-\beta^2}} \right) = K^0 \sqrt{1-\beta^2}, \quad (K.5)$$

$$\frac{d}{dt} \left(\frac{mv_i}{\sqrt{1-\beta^2}} \right) = K_i \sqrt{1-\beta^2}, (i=1,2,3) \quad (K.6)$$

formulalarni qo'lga kiritamiz. Agar Minkovskiy kuchini ifodalovchi 4-vektor K^μ ning fazoviy koordinatalari K_i odatdagi 3-kuch koordinatalari F_i bilan

$$F_i = K_i \sqrt{1-\beta^2} \quad (K.7)$$

munosabat yordamida ifodalanadigan bo'lsa, (K.6) tenglama quyidagi ko'rinishga keltiriladi

$$\frac{d}{dt} \left(\frac{mv_i}{\sqrt{1-\beta^2}} \right) = F_i, (i=1,2,3). \quad (K.8)$$

Oxirgi formula kichik tezliklarda Newton tenglamasiga o'tadi. Minkovskiy kuchining vaqt koordinatasi K^0 ni aniqlash uchun (K.2) tenglamaning ikkala tomonini ham 4-tezlik u^μ ga ko'paytiramiz. Natijada quyidagini qo'lga kiritamiz

$$K^\mu u_\mu = m \frac{du^\mu}{d\tau} u_\mu = m u^\mu u_\mu \quad (K.9)$$

(bu yerda biz m ning invariantligi inobatga oldik va shu sabab differentsial ishorasidan chiqardik). Olinga natijadan μ bo'yicha yig'indi olamiz va (U.7) formulani inobatga olib topamiz

$$\sum_{\mu=0}^3 K^{\mu} u_{\mu} = m \sum_{\mu=0}^3 w^{\mu} u_{\mu} = 0. \quad (K.10)$$

(K.10) formulaga (U.4) dan u^{μ} ning qiymatlarini va (K.7) dan K_i ning qiymatlarini qo'yamiz. U holda

$$K^0 \frac{c}{\sqrt{1-\beta^2}} - \sum_{i=1}^3 \frac{F_i}{\sqrt{1-\beta^2}} \frac{v_i}{\sqrt{1-\beta^2}} = 0. \quad (K.11)$$

Oxirgi tenglamadan topamiz

$$K^0 = \frac{1}{c\sqrt{1-\beta^2}} \sum_{i=1}^3 F_i v_i \quad (K.12)$$

yoki vektor ko'rinishda

$$K^0 = \frac{1}{c\sqrt{1-\beta^2}} \vec{F} \vec{v}. \quad (K.13)$$

Endi biz Minkovskiy kuchining barcha koordinatalarini bilgan holda yozamiz:

$$K^0 = \frac{1}{c\sqrt{1-\beta^2}} \vec{F} \vec{v}, \quad K_i = \frac{F_i}{\sqrt{1-\beta^2}}, \quad (i=1,2,3), \quad (K.14)$$

yani

$$K^{\mu} = \left(\frac{\vec{F} \vec{v}}{c\sqrt{1-\beta^2}}, \frac{\vec{F}}{\sqrt{1-\beta^2}} \right). \quad (K.15)$$

3-kuch $\vec{F}$ va $\vec{v}$ vektorlarining skalyar ko'paytmasi zarra ustidan birlik vaqt ichida bajarilgan ishni anglatadi. Bu ish zarraning energiyasining birlik vaqt ichida o'zgarishiga ham tengdir yani dE/dt . Shu bois Minkovskiy kuchining vaqt koordinatasini

$$K^0 = \frac{1}{c\sqrt{1-\beta^2}} \frac{dE}{dt}. \quad (K.16)$$

ko'rinishda yozish mumkin yani u zarra energiyasining vaqt bo'yicha o'zgarishi bilan aniqlanadi.

Demak biz relyativistik zarraning lorent-invariant harakat tenglamasi (K.2) ko'rinishda yozsa bo'lishligini ko'rsatdik. Bu harakat tenglama kichik tezliklarda Newtonning harakat tenglamasiga o'tadi. (K.2) relyativistik harakat tenglamasining vaqt komponentasiga (K.16) ni qo'yamiz

$$\frac{d}{dt} \left(\frac{mc}{\sqrt{1-\beta^2}} \right) = \frac{1}{c} \frac{dE}{dt} \quad (K.17)$$

Oxirgi formuladan zarraning relyativistik energiyasi ifodasini topamiz

$$E = \frac{mc^2}{\sqrt{1-\beta^2}} + const. \quad (K.18)$$

RELYATIVISTIK IMPULS VA ENERGIYA

Newton mexanikasida zarraning impulsi (harakat miqdori) deb

$$p_i = mv_i, \quad (i=1,2,3) \quad (R.1)$$

koordinatalarga ega 3-vektorga aytiladi. Zarraning 4-impulsi ham yuqoridagi kabi

$$p^\mu = mu^\mu, (\mu=0,1,2,3) \quad (R.2)$$

formula bilab aniqlanadi. (U.4) formuladan 4-tezlik uchun o'z ifodalarini (R.2) ga qo'yamiz va topamiz

$$p^0 = \frac{mc}{\sqrt{1-\beta^2}}, \quad p^k = \frac{mv_k}{\sqrt{1-\beta^2}}, \quad (k=1,2,3). \quad (R.4)$$

Yoki 4-impulsni quyidagicha yozish mumkin

$$p^\mu = \left(\frac{mc}{\sqrt{1-\beta^2}}, \frac{m\vec{v}}{\sqrt{1-\beta^2}} \right). \quad (R.5)$$

4-impulsning fazoviy komponentasi uchun

$$\vec{p} = \frac{m\vec{v}}{\sqrt{1-\beta^2}} \quad (R.6)$$

formula ishlariladi. Endi e'tiborimizni 4-impulsning vaqt komponentasiga qaratamiz. Oldingi ma'ruzalarimizda relyativistik zarraning energiyasi formulasi (K.18) ni topgan edik. Ammo integrallash doimiysini aniqlamagan edik. (R.4) dagi p^0 ifodasini va (K.18) ni taqqoslab

$$p^0 = \frac{E}{c} \quad (R.7)$$

ni topamiz. Natijada zarraning 4-impulsini

$$p^\mu = \left(\frac{E}{c}, \vec{p} \right) \quad (R.8)$$

deb yozamiz. Yani relyativistik mexanikada zarraning energiyasi va 3-impulsi zarraning 4-impuls vektorining komponentlari bo'lar ekan. Bu holat zarraning energiyasini va impulsini biror ISS dan boshqa ISS sig o'tishda almashtirish formulalari yordamida topishga imkon beradi.

Zarraning 4-impulsi p^μ ning komponentlari ham biror ISS dan boshqa ISS ga o'tishda (L.11) formulalar kabi almashadi. U holda

$$E = \frac{E' + Vp'_x}{\sqrt{1-\beta^2}}, \quad p_x = \frac{p'_x + V(E'/c^2)}{\sqrt{1-\beta^2}}, \quad p_y = p'_y, \quad p_z = p'_z. \quad (R.9)$$

Teskari almashtirish formulasi (L.14) dan faqat tezlikning ishorasining teskari ekanligi bilan farq qiladi.

Zarraning 4-impulsining kvadratini topamiz

$$\sum_{\mu=0}^3 p^\mu p_\mu = \frac{E^2}{c^2} - \vec{p}^2. \quad (R.10)$$

Ammo boshqa tomondan

$$\sum_{\mu=0}^3 p^\mu p_\mu = \sum_{\mu=0}^3 mu^\mu mu_\mu = m^2 \sum_{\mu=0}^3 u^\mu u_\mu = m^2 c^2. \quad (R.11)$$

U holda

$$\frac{E^2}{c^2} - p^2 = m^2 c^2. \quad (R.12)$$

Demak 4-impulsning kvadrati, boshqa 4-vektorlarning kvadrati kabi, invariantdir. (K.18) formulada $const=0$ deb olsak zarraning energiyasi uchun

$$E = \frac{mc^2}{\sqrt{1-\beta^2}} \quad (R.13)$$

ni qo'lga kiritamiz. (R.13) formula bilan aniqlanadigan energiya zarraning to'liq energiyasi deyiladi. bu energiya albatta zarraning tashqi maydondagi potentsial energiyasi inobatga olmaydi.

Tinch holda turgan zarraning energiyasi

$$E_0 = mc^2 \quad (R.14)$$

formuladan topiladi. E_0 energiya zarraning **tinchlikdagi energiyasi** deyiladi. Zarralardan tashkil topgan murakkab mexanik sistemaning energiyasi quyidagi qismlardan iboratdir:

- Zarralarning tinchlikdagi energiyalari yig'indisidan;
- Zarralarning kinetik energiyalari yig'indisidan;
- Zarralarning o'zaro ta'sirlashish energiyasidan.

Shu sabab murakkab sistemaning tinchlikdagi energiyasi sistemani tashkil etuvchi zarralarning tinchlikdagi energiyalarining yig'indisidan katta bo'ladi:

$$Mc^2 > \sum_a m_a c^2. \quad (R.15)$$

Bu erda M – sistemaning to'liq massasi va m_a – sistema tarkibiga kiruvchi zarralarning massasi. Oxirgi formuladan jismning massasi uni tashkil etuvchi qismlar massalarining yig'indisiga teng emasligi kelib chiqadi.

Zarraning to'liq energiyasi (R.13) va tinchlik energiyasi (R.14) larning ayirmasi zarraning kinetik energiyasi beradi

$$T = \frac{mc^2}{\sqrt{1-\beta^2}} - mc^2 \quad (R.16)$$

Kichik tezliklarda oxirgi formula Newton mexanikasidagi kinetik energiya ifodasiga aylanadi

$$T = mc^2 \left(1 + \frac{1}{2} \frac{v^2}{c^2} \right) - mc^2 = \frac{1}{2} mv^2. \quad (R.17)$$

(R.12) formulani

$$E^2 = p^2 c^2 + m^2 c^4 \quad (R.18)$$

shaklda yozsa bo'ladi. Mexanika ma'ruzalarimizda aytib o'tganimizdek ipmuls va koordinatalar orqali ifodalangan energiya **Gamilton funktsiyasi** deb ataladi. Relyativistik mexanikada erkin zarraning Gamilton funktsiyasi quyidagicha yoziladi

$$H = c\sqrt{p^2 + m^2 c^2}, \quad (R.19)$$

agar zarra biror kuch maydonida harakatlanayotgan bo'lsa $H = c\sqrt{p^2 + m^2 c^2} + U$. Bu yerda U zarraning biror kuch maydonidagi potentsial energiyasi.

14 - Ma'ruza
Mavzu: Relativistik elektrodinamika
(3- qism)

RELYATIVISTIK ZARRA UCHUN TA'SIR VA LAGRANJ FUNKTSIYA

Erkin zarra uchun ta'sirni topamiz. Klassik mexanikada ta'rifga ko'ra zarraning birinchi nuqtadan ikkinchi nuqtaga o'tishi uchun ta'siri uning Lagranj funktsiyasidan vaqt bo'yicha olingan integrali bilan ifodalanadi

$$S = \int_{t_1}^{t_2} L(x, \dot{x}, t) dt \quad (T.1)$$

va bu ta'sir Galiley almashtirishlariga nisbatan invariantdir. Bu yerda $L(x, \dot{x}, t)$ zarraning Lagranj funktsiyasi, t_1 va t_2 lar mos ravishda zarraning birinchi va ikkinchi holatlarda bo'lgan vaqt momentlari.

Relyativistik mexanikada ta'sir endi Lorents almashtirishlariga nisbatan invariant bo'lishi lozim. Buning uchun esa ta'sir formulasida integral ostida turgan miqdor skalyar bo'lishi va integral ostida birinchi darajali differentsial ostida turishi kerak. Erkin zarra uchun ma'lum bo'lgan birdan bir bunday skalyar faqat interval ds ga proporsional bo'lishi mumkin. Shu bois relyativistik erkin zarra uchun birinchi dunyoviy nuqtadan ikkinchi dunyoviy nuqtaga o'tishdagi ta'sirni

$$S = \int_1^2 \alpha ds \quad (T.2)$$

formula bilan ifodalaymiz, yoki

$$S = \alpha \int_1^2 ds = \alpha c \int_{t_1}^{t_2} \sqrt{1 - v^2 / c^2} dt. \quad (T.3)$$

Bu yerdan ko'rinib turibdiki relyativistik erkin zarraning Lagranj funktsiyasi

$$L = \alpha c \sqrt{1 - v^2 / c^2} \quad (T.4)$$

ko'rinishda yoziladi. (T.4) formula bilan ifodalangan relyativistik Lagranj funktsiya kichik tezliklarda klassik mexanikada topilgan erkin zarraning Lagranj funktsiyasiga o'tishi lozim. (T.4) formulada ildiz ostidagi ifodani v/c bo'yicha Teylot qatoriga yoyamiz va birinchi darajali hadlar bilan cheklanamiz. U holda

$$L = \alpha c \sqrt{1 - v^2 / c^2} \approx \alpha c - \frac{\alpha v^2}{2c}. \quad (T.5)$$

(T.5) dagi birinchi haq doimiy bo'lib u harakat tenglamasiga ta'sir qilmaydi, shu bois uni tashlab yuborssak ham bo'ladi. Klassik mexanikada erkin zarraning Lagrang funktsiyasi zarraning kinetik energiyasiga teng ekanligini inobatga olib $\alpha = -mc$ ekanligini topamiz. Natija qilib relyativistik mexanikada erkin zarraning Lagranj funktsiyasi uchun

$$L = -mc^2 \sqrt{1 - v^2 / c^2} \quad (T.6)$$

ifodani topamiz. Shun alohida takidlab o'tamizki, relyativistik mexanikada Lagranj funktsiyasini klassik mexanikadagidek kinetik va potentsial energiyalarining ayirmasi shaklida ifodalab

bo'lmaydi. Zarraning Lagranj funktsiyasini bilgan holda, biz osongina uning energiyasi va impulsini topishimiz mumkin

$$\vec{p} = \frac{\partial L}{\partial \vec{v}} = \frac{m\vec{v}}{\sqrt{1-\beta^2}}, \quad (\text{T.7})$$

$$E = \vec{p}\vec{v} - L = \frac{mv^2}{\sqrt{1-\beta^2}} + mc^2\sqrt{1-\beta^2} = \frac{mc^2}{\sqrt{1-\beta^2}}. \quad (\text{T.8})$$

Endi yana ta'sirga qaytamiz. Zarraning haqiqiy traektoriyasi "eng kam ta'sir printsipti" dan topiladi. Bu printsiptga ko'ra haqiqiy tarektoriyada ta'sir eng kichik ekstremal qiymat qabul qiladi. Yani ta'sirning variantsiyasi nolga teng bo'lishi shart, $\delta S = 0$. Ta'sirning variantsiyasi uchun yozamiz

$$\delta S = -mc \delta \int_1^2 ds = -mc \int_1^2 \delta(ds). \quad (\text{T.9})$$

Ta'rifga ko'ra interval quyidagicha ifodalanadi

$$ds = \sqrt{\sum_{\mu=0}^3 dx^\mu dx_\mu}. \quad (\text{T.10})$$

U holda (T.10) formuladagi ildiz osti ko'paytmaning variantsiyasini yozamiz

$$\delta \left(\sum_{\mu=0}^3 dx^\mu dx_\mu \right) = 2 \sum_{\mu=0}^3 dx_\mu \delta(dx^\mu). \quad (\text{T.11})$$

Demak

$$\delta S = -mc \int_1^2 \delta \sqrt{\sum_{\mu=0}^3 dx^\mu dx_\mu} = -mc \int_1^2 \frac{\sum_{\mu=0}^3 dx_\mu \delta(dx^\mu)}{\sqrt{\sum_{\mu=0}^3 dx^\mu dx_\mu}} = -mc \int_1^2 \frac{\sum_{\mu=0}^3 dx_\mu \delta(dx^\mu)}{ds}. \quad (\text{T.12})$$

$dx_\mu / ds = u_\mu / c$ va $\delta(dx^\mu) = d(\delta x^\mu)$ ekanligini inobatga olsak (T.12) quyidagi ko'rinishga keladi

$$\delta S = -m \int_1^2 \sum_{\mu} u_\mu d(\delta x^\mu). \quad (\text{T.13})$$

Oxirgi formuladagi integralni bo'laklab integrallaymiz

$$\delta S = -m \sum_{\mu} u_\mu \delta x^\mu \Big|_1^2 + m \int_1^2 \sum_{\mu} \delta x^\mu \frac{du_\mu}{d\tau} d\tau. \quad (\text{T.14})$$

(T.14) dagi ikkinchi hadda biz zarraning 4-tezligining differentsialini zarraning xususiy vaqti bo'yicha hosilasi va shu xususiy vaqt differentsiali ko'paytmasi shaklida yozib oldik. Yani $du^\mu = (du^\mu / d\tau) d\tau$. Traektoriyaning oxirlarida $\delta x^\mu = 0$ bo'ladi. U holda

$$\delta S = m \int_1^2 \sum_{\mu} \delta x^\mu \frac{du_\mu}{d\tau} d\tau = 0. \quad (\text{T.15})$$

Ixtiyoriy δx^μ da (T.15) shart bajarilishi uchun zarraning 4-tezligining xususiy vaqt bo'yicha hosilasi (4-tezlanishi) nolga teng bo'lishi kerak $du^\mu / d\tau = 0$. Yani erkin zarraning tezligi saqlanishi lozim.

BYNDPI

15 - Ma'ruza
Mavzu: Relativistik elektrodinamika
(4- qism)

ENERGIYA-IMPULS TENZORI

Oldingi ma'ruzalarda biz ta'sirni (T.1) formula ko'rinishida yozdik. Agar endi biz harakat tenglamasini 4-fazoda qaramoqchi bo'lsak, ta'sirni ham 4-fazoda mos shaklda yozishimiz kerak bo'ladi. 4-fazoda biz teng huquqli x^0, x^1, x^2, x^3 formal parametrlar bilan ishlashimizga to'g'ri keladi. Bu parametrlar harakat tenglamalarida bir xil turda yoziladi. Shu bois 4-ta'sir uchun biz quyidagi formulani yozamiz

$$S = \frac{1}{c} \int L^* (q_a, \dot{q}_{av}, x^0, x^1, x^2, x^3) dx^0 dx^1 dx^2 dx^3. \quad (E.1)$$

Bu yerda q_a - sistemaning holatini tavsiflovchi parametrlar to'plamidir yani $q_1, q_2, q_3, \dots$, (bunaqa parametrlar sistemaning *erkinlik darajasi* ekanligini esga olamiz), $1/c$ esa qulaylik uchun kiritilgan,

$$\dot{q}_{av} = \frac{\partial q_a}{\partial x^\nu}, \quad \left(\begin{array}{l} a = 1, 2, 3, \dots \\ \nu = 0, 1, 2, 3 \end{array} \right). \quad (E.2)$$

q_a va $\dot{q}_{av}$ miqdorlar x^0, x^1, x^2, x^3 koordinatalar funktsiyasi deb qaraladi. Hatto q_a parametr faqat x^0 ga bog'liq bo'lib qolishi mumkin, u holda biz klassik mexanikadagi $q_a = q_a(t)$ tanish holni kuzatamiz. Aralash hosilalar o'zaro tengligi

$$\frac{\partial^2 \dot{q}_a}{\partial x^\nu \partial x^\mu} = \frac{\partial^2 \dot{q}_a}{\partial x^\mu \partial x^\nu} \quad (E.3)$$

dan

$$\frac{\partial \dot{q}_{av}}{\partial x^\mu} = \frac{\partial \dot{q}_{a\mu}}{\partial x^\nu} \quad (E.4)$$

munosabat bajarilishi lozimligi kelib chiqadi. (T.1) va (E.1) formulalarning o'zaro mutanosibligini topish uchun 4-fazoda 4-hajm $d\Omega^*$ 3-fazodagi 3-hajm $d\Omega$ bilan quyidagi ifoda yordamida bog'lanishini eslaymiz

$$d\Omega^* = dx^0 dx^1 dx^2 dx^3 = c dt d\Omega. \quad (E.5)$$

$d\Omega^*$ ning o'rniga (E.5) formulani qo'yamiz va (E.1) ni quyidagicha yozamiz

$$S = \int L^* dt dV = \int_1^2 dt \int L^* dV. \quad (E.6)$$

Bu yerda vaqt bo'yicha integrallash vaqt harakat davom etadigan vaqt intervalida bajariladi, hajm bo'yicha integrallash esa koordinatalar o'zgarishini ifodalovchi intervallarda bajariladi. (T.1) va (E.6) formulalarni taqqoslab

$$L = \int L^* dV \quad (E.7)$$

ni topamoz. Yani L^* bu qaralayotgan sistemaning Lagranj funksiyasining hajmiy zichligidir. Yopiq mexanik sistemasining Lagranj funksiyasi L vaqt t ga bevosita bog'liq bo'lmasligi darkor. 4-fazoda vaqt va fazoviy koordinatalar teng huquqli bo'lganligi bois sistemaning Lagranj funksiyasining zichligi L^* ham x^0, x^1, x^2, x^3 parametrlarga bog'liq bo'lmasligi lozim. Yani

$$S = \frac{1}{c} \int L^*(q_a, \dot{q}_{av}) d\Omega^*. \quad (E.8)$$

Endi relyativistik mexanikada yopiq sistemaning harakat tenglamasini topamiz. Buning uchun (E.8) formula bilan ifodlangan ta'sirning variatsiyasini hisoblaymiz va keyinchalik uni nolga tenglashtiramiz. (E.8) ni variatsiyasi olamiz:

$$\delta S = \frac{1}{c} \int \left(\sum_a \frac{\partial L^*}{\partial q_a} \delta q_a + \sum_{a,v} \frac{\partial L^*}{\partial \dot{q}_{av}} \delta \dot{q}_{av} \right) d\Omega^*. \quad (E.9)$$

$\delta y' = (\delta y)'$ ga o'xshash ravishda

$$\delta \dot{q}_{av} = \delta \frac{\partial q_a}{\partial x^v} = \frac{\partial}{\partial x^v} \delta q_a \quad (E.10)$$

ni yozsak bo'ladi. (E.9) da (E.10) kabi almashtirish bajarib

$$\delta S = \frac{1}{c} \int \left(\sum_a \frac{\partial L^*}{\partial q_a} \delta q_a + \sum_{a,v} \frac{\partial L^*}{\partial \dot{q}_{av}} \frac{\partial}{\partial x^v} \delta q_a \right) d\Omega^*. \quad (E.11)$$

Ko'paytmani differentsiallash qoidasiga binoan

$$\sum_{a,v} \frac{\partial}{\partial x^v} \left(\frac{\partial L^*}{\partial \dot{q}_{av}} \delta q_a \right) = \sum_{a,v} \frac{\partial L^*}{\partial \dot{q}_{av}} \frac{\partial}{\partial x^v} \delta q_a + \sum_{a,v} \frac{\partial}{\partial x^v} \left(\frac{\partial L^*}{\partial \dot{q}_{av}} \right) \delta q_a. \quad (E.12)$$

Bu yerdan topamiz

$$\sum_{a,v} \frac{\partial L^*}{\partial \dot{q}_{av}} \frac{\partial}{\partial x^v} \delta q_a = \sum_{a,v} \frac{\partial}{\partial x^v} \left(\frac{\partial L^*}{\partial \dot{q}_{av}} \delta q_a \right) - \sum_{a,v} \frac{\partial}{\partial x^v} \left(\frac{\partial L^*}{\partial \dot{q}_{av}} \right) \delta q_a \quad (E.13)$$

va oxirgi formulani (E.11) dagi integral ostidagi ikkinchi hadning o'rniga qo'yamiz

$$\delta S = \frac{1}{c} \int \left(\sum_a \frac{\partial L^*}{\partial q_a} \delta q_a + \sum_{a,v} \frac{\partial}{\partial x^v} \left(\frac{\partial L^*}{\partial \dot{q}_{av}} \delta q_a \right) - \sum_{a,v} \frac{\partial}{\partial x^v} \left(\frac{\partial L^*}{\partial \dot{q}_{av}} \right) \delta q_a \right) d\Omega^*. \quad (E.14)$$

(E.14) dagi ikkinchi haq

$$\sum_{a,\nu} \frac{\partial}{\partial x^\nu} \left(\frac{\partial L^*}{\partial \dot{q}_{a\nu}} \delta q_a \right) = \sum_\nu \frac{\partial}{\partial x^\nu} \left(\sum_a \frac{\partial L^*}{\partial \dot{q}_{a\nu}} \delta q_a \right) \quad (\text{E.15})$$

ν - komponentasi

$$\sum_a \frac{\partial L^*}{\partial \dot{q}_{a\nu}} \delta q_a$$

ga teng bo'lgan vektorning 4-divergentsiyasiga teng!

Matematik eslatma.

(Evklid 3-fazoda Ostrogradskiy-Gauss teoremasi ko'ra: biror $\vec{A}$ vektorning divergensiyasining berilgan hajm bo'yicha integrali shu vektorning hajmni o'rab turgan sirt bo'yicha olingan integraliga teng. Yani

$$\int_{\Omega} \text{div} \vec{a} d\Omega = \oint_f \vec{a} d\vec{f}. \quad (\text{E.M.1})$$

Bu teoremaning quyidagicha ham yozish mumkin

$$\int_{\Omega} \sum_{i=1}^3 \frac{\partial a_i}{\partial x_i} d\Omega = \oint_f \sum_{i=1}^3 a_i df_i. \quad (\text{E.M.2})$$

Bu yerda df_i lar sirt elementi vektori $d\vec{f} = \vec{n} df$ ning komponentlari: $df_x = dydz$, $df_y = dx dz$, $df_z = dx dy$ lardir.

Ostrogradskiy-Gauss teoremasini 4-fazoda ham ishlatish mumkin va uning formulasi quyidagicha bo'ladi:

$$V'_x = \frac{dx'}{dt'} = \frac{dx - Vdt}{dt - (V/c^2)dx} = \frac{dx/dt - V}{1 - (V/c^2)dx/dt} = \frac{V_x - V}{1 - V_x V/c^2}.$$

Yani

$$V'_x = \frac{V_x - V}{1 - V_x V/c^2}. \quad (\text{L.18})$$

Tezlikning qolgan ikki komponentlarining ham almashtirish formulalarini aniqlash mumkin. Ular quyidagi ko'rinishga egalar:

$$V'_y = \frac{V_y \sqrt{1 - \beta^2}}{1 - V_x V/c^2}, \quad V'_z = \frac{V_z \sqrt{1 - \beta^2}}{1 - V_x V/c^2}. \quad (\text{L.19})$$

Teskari almashtirish formulalari quyidagicha yoziladi:

$$V_x = \frac{V'_x + V}{1 + V'_x V/c^2}, \quad V_y = \frac{V'_y \sqrt{1-\beta^2}}{1 + V'_x V/c^2}, \quad V_z = \frac{V'_z \sqrt{1-\beta^2}}{1 + V'_x V/c^2}. \quad (\text{L.20})$$

Harakatlanuvchi jismning tezligi $\vec{V}$ vektori X o'qi bilan θ burchak, $\vec{V}'$ tezlik vektori X' o'qi bilan θ' burchak hosil qilib harakatlansin. Bu burchaklar orasidagi munosabatni topamiz. Koordinata o'qlarini shunday qilib tanlaymizki, bunda jism tezligi $\vec{V}$, $\vec{V}'$ koordinata o'qlari X va Y bir tekislikda yotsin. U holda

$$V_x = V \cos \theta, \quad V_y = V \sin \theta$$

$$V'_x = V' \cos \theta', \quad V'_y = V' \sin \theta'.$$

(L.18) va (L.19) formulalaridan

$$\operatorname{tg} \theta' = \frac{V'_y}{V'_x} = \frac{V_y \sqrt{1-\beta^2}}{V_x - V} = \frac{V \sin \theta \sqrt{1-\beta^2}}{V \cos \theta - V} \quad (\text{L.21})$$

ni topamiz. Bu formula ma'lum $\vec{V}$ va θ lardan, noma'lum θ' ni topishga imkon beradi. Yani $\vec{V}'$ tezlik vektorining X' o'qi bilan hosil qiluvchi θ' burchagini topishga imkon beradi. Xuddi shunga o'xshash formula yordamida berilgan $\vec{V}'$ va θ' dan θ ni topish mumkin:

$$\operatorname{tg} \theta = \frac{V_y}{V_x} = \frac{V'_y \sqrt{1-\beta^2}}{V'_x + V} = \frac{V' \sin \theta' \sqrt{1-\beta^2}}{V' \cos \theta' + V}. \quad (\text{L.22})$$

4-TEZLIK VA 4-TEZLANISH

Norelyativistik mexanikada fazo intervali dl va vaqt intervali dt lar invariant hisoblanadi. Shu bois 3-radius vektori $d\vec{r}$ komponentlarining dt invariantga bo'linishi natijasida topilgan miqdorlar to'plami 3-tezlikni hosil qiladi. Xuddi shunga o'xshash 3-tezlanish $\vec{w}$ ham 3-tezlik vektroi $\vec{v}$ ning komponentlarining dt ga bo'linishi natijasida topiladi. Lekin oldin ko'rganimizdek 4-fazoda dl va dt miqdorlar alohida invariant bo'lmaydilar, balki ularning kombinatsiyasi bo'lmish va interval deb atalmish

$ds^2 = c^2 dt^2 - dl^2$ miqdor invariant bo'ladi. Intervalning invariant bo'lishi oldin bizga 3-fazodagi radius vektor analogi 4-vektorlarni kiritishga imkon bergan edi. Endi, hozir biz odatdagi tezlik va tezlanish vektorlarining 4-fazodagi analoglari 4-tezlik va 4-tezlanishlarni aniqlashga urinib ko'ramiz. Agar biz

$$\frac{dx''}{dt}$$

nisbatni qarasak, bu miqdor 4-tezlik xossasiga ega emas, chunki dt invariant emas, va

$$\sum \frac{dx^\mu}{dt} \frac{dx_\mu}{dt}$$

Lorents almashtirishlarida o'z qiymatini saqlamaydi. Ammo biz invariant bo'lgan xususiy vaqtni bilamiz: $d\tau = ds/c$. Shu sabab 4-tezlik deb

$$u^\mu = \frac{dx^\mu}{d\tau} = c \frac{dx^\mu}{ds} \quad (\text{U.1})$$

munosabat bilan aniqlanadigan miqdorga aytamiz. Xuddi shunga o'xshash tarzda 4-tezlanish aniqlanadi

$$w^\mu = \frac{du^\mu}{d\tau} = \frac{d^2 x^\mu}{d\tau^2} = c^2 \frac{d^2 x^\mu}{ds^2}. \quad (\text{U.2})$$

dx^μ ning qiymatini va xususiy vaqtning

$$d\tau = dt\sqrt{1-\beta^2} \quad (\text{U.3})$$

ekanligini inobatga olib 4-tezlikning komponentlarini topamiz:

$$u^0 = \frac{c}{\sqrt{1-\beta^2}}, \quad u^k = \frac{v_k}{\sqrt{1-\beta^2}}, \quad (k=1,2,3). \quad (\text{U.4})$$

Oxirgi formulani qisqa qilib

$$u^\mu = \left(\frac{c}{\sqrt{1-\beta^2}}, \frac{\vec{v}}{\sqrt{1-\beta^2}} \right) \quad (\text{U.5})$$

yozish mumkin. (U.3) formuladan

$$\sum_{\mu=0}^3 u^\mu u_\mu = c^2 \quad (\text{U.6})$$

ayniyatni aniqlaymiz. (U.5) formulani xususiy vaqt $d\tau$ bo'yicha differentsiallaymiz

$$\sum_{\mu} \frac{du^\mu}{d\tau} u_\mu + \sum_{\mu} u^\mu \frac{du_\mu}{d\tau} = \sum_{\mu} w^\mu u_\mu + \sum_{\mu} u^\mu w_\mu = 0$$

Oxirgi ikki had o'zaro tengligidan

$$\sum_{\mu} w^\mu u_\mu = 0 \quad (\text{U.7})$$

ni topamiz. Yani 4-tezlik va 4-tezlanish vektorlari o'zaro perpendikulyardir.

RELYATIVISTIK DINAMIKA

Newton tenglamalari Galiley almashtirishlariga nisbatan invariantdir. Ammo Lorents almashtirishlariga nisbatan invariant emas. Shu sabab, yani Einshteinning nisbiylik printsipini qanoatlantirish uchun Newtonning ikkinchi qonuni yanada umumiyroq qonun bilan to'ldirishimiz darkor. Kichik tezliklarda Lorents almashtirishlari Galiley almashtirishlariga o'tishini inobatga olib relyativistik invariant tenglamalarni shunday shart bilan tuzishimiz kerakki, bunda kichik tezliklarda barcha formulalar Newton tenglamalariga o'tsin. Newtonning harakat tenglamasi

$$\frac{d}{dt}(mv_i) = F_i, (i=1,2,3) \quad (\text{K.1})$$

ko'rinishda yoziladi. (K.1) tenglamaning tabiiy umumiyashtirilganini

$$\frac{d}{d\tau}(mu^\mu) = K^\mu, (\mu=0,1,2,3) \quad (\text{K.2})$$

shaklda yozamiz. Bunda m – jismning inert xossalarini tavsiflovchi invariant miqdor (jism massasi), u^μ - jismning 4-tezligi vektorining komponentlari, K^μ - Minkovskiy kuchi deb ataluvchi qandaydir 4-vektor. (U.3) va (U.4) formulalarni inobatga olib Minkovskiy kuchi 4-vektorining koordinatalarini aniqlaymiz

$$\frac{1}{\sqrt{1-\beta^2}} \frac{d}{dt} \left(\frac{mc}{\sqrt{1-\beta^2}} \right) = K^0, \quad (\text{K.3})$$

$$\frac{1}{\sqrt{1-\beta^2}} \frac{d}{dt} \left(\frac{mv_i}{\sqrt{1-\beta^2}} \right) = K_i, (i=1,2,3). \quad (\text{K.4})$$

Oxirgi ikki tenglamaning ikkala tomonlarini ham $\sqrt{1-\beta^2}$ ga ko'paytirib

$$\frac{d}{dt} \left(\frac{mc}{\sqrt{1-\beta^2}} \right) = K^0 \sqrt{1-\beta^2}, \quad (\text{K.5})$$

$$\frac{d}{dt} \left(\frac{mv_i}{\sqrt{1-\beta^2}} \right) = K_i \sqrt{1-\beta^2}, (i=1,2,3) \quad (\text{K.6})$$

formulalarni qo'lga kiritamiz. Agar Minkovskiy kuchini ifodalovchi 4-vektor K^μ ning fazoviy koordinatalari K_i odatdagi 3-kuch koordinatalari F_i bilan

$$F_i = K_i \sqrt{1-\beta^2} \quad (\text{K.7})$$

munosabat yordamida ifodalanadigan bo'lsa, (K.6) tenglama quyidagi ko'rinishga keltiriladi

$$\frac{d}{dt} \left(\frac{mv_i}{\sqrt{1-\beta^2}} \right) = F_i, (i=1,2,3). \quad (\text{K.8})$$

Oxirgi formula kichik tezliklarda Newton tenglamasiga o'tadi. Minkovskiy kuchining vaqt koordinatasi K^0 ni aniqlash uchun (K.2) tenglamaning ikkala tomonini ham 4-tezlik u^μ ga ko'paytiramiz. Natijada quyidagini qo'lga kiritamiz

$$K^\mu u_\mu = m \frac{du^\mu}{d\tau} u_\mu = m w^\mu u_\mu \quad (K.9)$$

(bu yerda biz m ning invariantligi inobatga oldik va shu sabab differentsial ishorasidan chiqardik). Olinga natijadan μ bo'yicha yig'indi olamiz va (U.7) formulani inobatga olib topamiz

$$\sum_{\mu=0}^3 K^\mu u_\mu = m \sum_{\mu=0}^3 w^\mu u_\mu = 0. \quad (K.10)$$

(K.10) formulaga (U.4) dan u^μ ning qiymatlarini va (K.7) dan K_i ning qiymatlarini qo'yamiz. U holda

$$K^0 \frac{c}{\sqrt{1-\beta^2}} - \sum_{i=1}^3 \frac{F_i}{\sqrt{1-\beta^2}} \frac{v_i}{\sqrt{1-\beta^2}} = 0. \quad (K.11)$$

Oxirgi tenglamadan topamiz

$$K^0 = \frac{1}{c\sqrt{1-\beta^2}} \sum_{i=1}^3 F_i v_i \quad (K.12)$$

yoki vektor ko'rinishda

$$K^0 = \frac{1}{c\sqrt{1-\beta^2}} \vec{F} \vec{v}. \quad (K.13)$$

Endi biz Minkovskiy kuchining barcha koordinatalarini bilgan holda yozamiz:

$$K^0 = \frac{1}{c\sqrt{1-\beta^2}} \vec{F} \vec{v}, \quad K_i = \frac{F_i}{\sqrt{1-\beta^2}}, \quad (i=1,2,3), \quad (K.14)$$

yani

$$K^\mu = \left(\frac{\vec{F} \vec{v}}{c\sqrt{1-\beta^2}}, \frac{\vec{F}}{\sqrt{1-\beta^2}} \right). \quad (K.15)$$

3-kuch $\vec{F}$ va $\vec{v}$ vektorlarining skalyar ko'paytmasi zarra ustidan birlik vaqt ichida bajarilgan ishni anglatadi. Bu ish zarraning energiyasining birlik vaqt ichida o'zgarishiga ham tengdir yani dE/dt . Shu bois Minkovskiy kuchining vaqt koordinatasini

$$K^0 = \frac{1}{c\sqrt{1-\beta^2}} \frac{dE}{dt}. \quad (K.16)$$

ko'rinishda yozish mumkin yani u zarra energiyasining vaqt bo'yicha o'zgarishi bilan aniqlanadi.

Demak biz relyativistik zarraning lorent-invariant harakat tenglamasi (K.2) ko'rinishda yozsa bo'lishligini ko'rsatdik. Bu harakat tenglama kichik tezliklarda Newtonning harakat tenglamasiga o'tadi. (K.2) relyativistik harakat tenglamasining vaqt komponentasiga (K.16) ni qo'yamiz

$$\frac{d}{dt} \left(\frac{mc}{\sqrt{1-\beta^2}} \right) = \frac{1}{c} \frac{dE}{dt} \quad (\text{K.17})$$

Oxirgi formuladan zarraning relyativistik energiyasi ifodasini topamiz

$$E = \frac{mc^2}{\sqrt{1-\beta^2}} + \text{const.} \quad (\text{K.18})$$

RELYATIVISTIK IMPULS VA ENERGIYA

Newton mexanikasida zarraning impulsi (harakat miqdori) deb

$$p_i = mv_i, \quad (i=1,2,3) \quad (\text{R.1})$$

koordinatalarga ega 3-vektorga aytiladi. Zarraning 4-impulsi ham yuqoridagi kabi

$$p^\mu = mu^\mu, \quad (\mu=0,1,2,3) \quad (\text{R.2})$$

formula bilab aniqlanadi. (U.4) formuladan 4-tezlik uchun o'z ifodalarini (R.2) ga qo'yamiz va topamiz

$$p^0 = \frac{mc}{\sqrt{1-\beta^2}}, \quad p^k = \frac{mv_k}{\sqrt{1-\beta^2}}, \quad (k=1,2,3). \quad (\text{R.4})$$

Yoki 4-impulsni quyidagicha yozish mumkin

$$p^\mu = \left(\frac{mc}{\sqrt{1-\beta^2}}, \frac{m\vec{v}}{\sqrt{1-\beta^2}} \right). \quad (\text{R.5})$$

4-impulsning fazoviy komponentasi uchun

$$\vec{p} = \frac{m\vec{v}}{\sqrt{1-\beta^2}} \quad (\text{R.6})$$

formula ishlariladi. Endi e'tiborimizni 4-impulsning vaqt komponentasiga qaratamiz. Oldingi ma'ruzalarimizda relyativistik zarraning energiyasi formulasi (K.18) ni topgan edik. Ammo integrallash doimiysini aniqlamagan edik. (R.4) dagi p^0 ifodasini va (K.18) ni taqqoslab

$$p^0 = \frac{E}{c} \quad (\text{R.7})$$

ni topamiz. Natijada zarraning 4-impulsini

$$p^\mu = \left(\frac{E}{c}, \vec{p} \right) \quad (\text{R.8})$$

deb yozamiz. Yani relyativistik mexanikada zarraning energiyasi va 3-impulsi zarraning 4-impuls vektorining komponentlari bo'lar ekan. Bu holat zarraning energiyasini va impulsini biror ISS dan boshqa ISS ga o'tishda almashtirish formulalari yordamida topishga imkon beradi. Zarraning 4-impulsi p^μ ning komponentlari ham biror ISS dan boshqa ISS ga o'tishda (L.11) formulalar kabi almashadi. U holda

$$E = \frac{E' + Vp'_x}{\sqrt{1 - \beta^2}}, \quad p_x = \frac{p'_x + V(E'/c^2)}{\sqrt{1 - \beta^2}}, \quad p_y = p'_y, \quad p_z = p'_z. \quad (\text{R.9})$$

Teskari almashtirish formulasi (L.14) dan faqat tezlikning ishorasining teskari ekanligi bilan farq qiladi.

Zarraning 4-impulsining kvadratini topamiz

$$\sum_{\mu=0}^3 p^\mu p_\mu = \frac{E^2}{c^2} - \vec{p}^2. \quad (\text{R.10})$$

Ammo boshqa tomondan

$$\sum_{\mu=0}^3 p^\mu p_\mu = \sum_{\mu=0}^3 m u^\mu m u_\mu = m^2 \sum_{\mu=0}^3 u^\mu u_\mu = m^2 c^2. \quad (\text{R.11})$$

U holda

$$\frac{E^2}{c^2} - p^2 = m^2 c^2. \quad (\text{R.12})$$

Demak 4-impulsning kvadrati, boshqa 4-vektorlarning kvadrati kabi, invariantdir. (K.18) formulada $const=0$ deb olsak zarraning energiyasi uchun

$$E = \frac{mc^2}{\sqrt{1 - \beta^2}} \quad (\text{R.13})$$

ni qo'lga kiritamiz. (R.13) formula bilan aniqlanadigan energiya zarraning to'liq energiyasi deyiladi. bu energiya albatta zarraning tashqi maydondagi potentsial energiyasi inobatga olmaydi. Tinch holda turgan zarraning energiyasi

$$E_0 = mc^2 \quad (\text{R.14})$$

formuladan topiladi. E_0 energiya zarraning **tinchlikdagi energiyasi** deyiladi. Zarralardan tashkil topgan murakkab mexanik sistemaning energiyasi quyidagi qismlardan iboratdir:

- Zarralarning tinchlikdagi energiyalari yig'indisidan;
- Zarralarning kinetik energiyalari yig'indisidan;
- Zarralarning o'zaro ta'sirlashish energiyasidan.

Shu sabab murakkab sistemaning tinchlikdagi energiyasi sistemani tashkil etuvchi zarralarning tinchlikdagi energiyalarining yig'indisidan katta bo'ladi:

$$Mc^2 > \sum_a m_a c^2. \quad (\text{R.15})$$

Bu erda M – sistemaning to'liq massasi va m_a – sistema tarkibiga kiruvchi zarralarning massasi. Oxirgi formuladan jismning massasi uni tashkil etuvchi qismlar massalarining yig'indisiga teng emasligi kelib chiqadi.

Zarraning to'liq energiyasi (R.13) va tinchlik energiyaasi (R.14) larning ayirmasi zarraning kinetik energiyasi beradi

$$T = \frac{mc^2}{\sqrt{1-\beta^2}} - mc^2 \quad (\text{R.16})$$

Kichik tezliklarda oxirgi formula Newton mexanikasidagi kinetik energiya ifodasiga aylanadi

$$T = mc^2 \left(1 + \frac{1}{2} \frac{v^2}{c^2} \right) - mc^2 = \frac{1}{2} mv^2. \quad (\text{R.17})$$

(R.12) formulani

$$E^2 = p^2 c^2 + m^2 c^4 \quad (\text{R.18})$$

shaklda yozsa bo'ladi. Mexanika ma'ruzalarimizda aytib o'tganimizdek impuls va koordinatalar orqali ifodalangan energiya **Gamilton funktsiyasi** deb ataladi. Relyativistik mexanikada erkin zarraning Gamilton funktsiyasi quyidagicha yoziladi

$$H = c\sqrt{p^2 + m^2 c^2}, \quad (\text{R.19})$$

agar zarra biror kuch maydonida harakatlanayotgan bo'lsa $H = c\sqrt{p^2 + m^2 c^2} + U$. Bu yerda U zarraning biror kuch maydonidagi potentsial energiyasi.

RELYATIVISTIK ZARRA UCHUN TA'SIR VA LAGRANJ FUNKTSIYA

Erkin zarra uchun ta'sirni topamiz. Klassik mexanikada ta'rifga ko'ra zarraning birinchi nuqtadan ikkinchi nuqtaga o'tishi uchun ta'siri uning Lagranj funktsiyasidan vaqt bo'yicha olingan integrali bilan ifodalanadi

$$S = \int_{t_1}^{t_2} L(x, \dot{x}, t) dt \quad (\text{T.1})$$

va bu ta'sir Galiley almashtirishlariga nisbatan invariantdir. Bu yerda $L(x, \dot{x}, t)$ zarraning Lagranj funktsiyasi, t_1 va t_2 lar mos ravishda zarraning birinchi va ikkinchi holatlarda bo'lgan vaqt momentlari.

Relyativistik mexanikada ta'sir endi Lorents almashtirishlariga nisbatan invariant bo'lishi lozim. Buning uchun esa ta'sir formulasida integral ostida turgan miqdor skalyar bo'lishi va integral ostida birinchi darajali differentsial ostida turishi kerak. Erkin zarra uchun ma'lum bo'lgan birdan bir bunday skalyar faqat interval ds ga proporsional bo'lishi mumkin. Shu bois relyativistik erkin zarra uchun birinchi dunyoviy nuqtadan ikkinchi dunyoviy nuqtaga o'tishdagi ta'sirni

$$S = \int_1^2 \alpha ds \quad (T.2)$$

formula bilan ifodalaymiz, yoki

$$S = \alpha \int_1^2 ds = \alpha c \int_{t_1}^{t_2} \sqrt{1 - v^2/c^2} dt. \quad (T.3)$$

Bu yerdan ko'rinib turibdiki relyativistik erkin zarraning Lagranj funktsiyasi

$$L = \alpha c \sqrt{1 - v^2/c^2} \quad (T.4)$$

ko'rinishda yoziladi. (T.4) formula bilan ifodalangan relyativistik Lagranj funktsiya kichik tezliklarda klassik mexanikada topilgan erkin zarraning Lagranj funktsiyasiga o'tishi lozim. (T.4) formulada ildiz ostidagi ifodani v/c bo'yicha Teylot qatoriga yoyamiz va birinchi darajali hadlar bilan cheklanamiz. U holda

$$L = \alpha c \sqrt{1 - v^2/c^2} \approx \alpha c - \frac{\alpha v^2}{2c}. \quad (T.5)$$

(T.5) dagi birinchi haq doimiy bo'lib u harakat tenglamasiga ta'sir qilmaydi, shu bois uni tashlab yuborssak ham bo'ladi. Klassik mexanikada erkin zarraning Lagrang funktsiyasi zarraning kinetik energiyasiga teng ekanligini inobatga olib $\alpha = -mc$ ekanligini topamiz. Natija qilib relyativistik mexanikada erkin zarraning Lagranj funktsiyasi uchun

$$L = -mc^2 \sqrt{1 - v^2/c^2} \quad (T.6)$$

ifodani topamiz. Shun alohida takidlab o'tamizki, relyativistik mexanikada Lagranj funktsiyasini klassik mexanikadagidek kinetik va potentsial energiyalarining ayirmasi shaklida ifodalab bo'lmaydi. Zarraning Lagranj funktsiyasini bilgan holda, biz osongina uning energiyasi va impulsini topishimiz mumkin

$$\vec{p} = \frac{\partial L}{\partial \vec{v}} = \frac{m\vec{v}}{\sqrt{1 - \beta^2}}, \quad (T.7)$$

$$E = \vec{p}\vec{v} - L = \frac{mv^2}{\sqrt{1 - \beta^2}} + mc^2 \sqrt{1 - \beta^2} = \frac{mc^2}{\sqrt{1 - \beta^2}}. \quad (T.8)$$

Endi yana ta'sirga qaytamiz. Zarraning haqiqiy traektoriyasi "eng kam ta'sir printsipi" dan topiladi. Bu printsipga ko'ra haqiqiy tarektoriyada ta'sir eng kichik ekstremal qiymat qabul qiladi. Yani ta'sirning variantsiyasi nolga teng bo'lishi shart, $\delta S = 0$. Ta'sirning variatsiyasi uchun yozamiz

$$\delta S = -mc \delta \int_1^2 ds = -mc \int_1^2 \delta(ds). \quad (T.9)$$

Ta'rifga ko'ra interval quyidagicha ifodalanadi

$$ds = \sqrt{\sum_{\mu=0}^3 dx^\mu dx_\mu}. \quad (T.10)$$

U holda (T.10) formuladagi ildiz osti ko'paytmaning variatsiyasini yozamiz

$$\delta\left(\sum_{\mu=0}^3 dx^{\mu} dx_{\mu}\right) = 2\sum_{\mu=0}^3 dx_{\mu} \delta(dx^{\mu}). \quad (\text{T.11})$$

Demak

$$\delta S = -mc \int_1^2 \delta \sqrt{\sum_{\mu=0}^3 dx^{\mu} dx_{\mu}} = -mc \int_1^2 \frac{\sum_{\mu=0}^3 dx_{\mu} \delta(dx^{\mu})}{\sqrt{\sum_{\mu=0}^3 dx^{\mu} dx_{\mu}}} = -mc \int_1^2 \frac{\sum_{\mu=0}^3 dx_{\mu} \delta(dx^{\mu})}{ds}. \quad (\text{T.12})$$

$dx_{\mu}/ds = u_{\mu}/c$ va $\delta(dx^{\mu}) = d(\delta x^{\mu})$ ekanligini inobatga olsak (T.12) quyidagi ko'rinishga keladi

$$\delta S = -m \int_1^2 \sum_{\mu} u_{\mu} d(\delta x^{\mu}). \quad (\text{T.13})$$

Oxirgi formuladagi integralni bo'laklab integrallaymiz

$$\delta S = -m \sum_{\mu} u_{\mu} \delta x^{\mu} \Big|_1^2 + m \int_1^2 \sum_{\mu} \delta x^{\mu} \frac{du_{\mu}}{d\tau} d\tau. \quad (\text{T.14})$$

(T.14) dagi ikkinchi hadda biz zarraning 4-tezligining differentsialini zarraning xususiy vaqti bo'yicha hosilasi va shu xususiy vaqt differentsiali ko'paytmasi shaklida yozib oldik. Yani $du^{\mu} = (du^{\mu}/d\tau)d\tau$. Traektoriyaning oxirlarida $\delta x^{\mu} = 0$ bo'ladi. U holda

$$\delta S = m \int_1^2 \sum_{\mu} \delta x^{\mu} \frac{du_{\mu}}{d\tau} d\tau = 0. \quad (\text{T.15})$$

Ixtiyoriy δx^{μ} da (T.15) shart bajarilishi uchun zarraning 4-tezligining xususiy vaqt bo'yicha hosilasi (4-tezlanishi) nolga teng bo'lishi kerak $du^{\mu}/d\tau = 0$. Yani erkin zarraning tezligi saqlanishi lozim.

ENERGIYA-IMPULS TENZORI

Oldingi ma'ruzalarda biz ta'sirni (T.1) formula ko'rinishida yozdik. Agar endi biz harakat tenglamasini 4-fazoda qaramoqchi bo'lsak, ta'sirni ham 4-fazoda mos shaklda yozishimiz kerak bo'ladi. 4-fazoda biz teng huquqli x^0, x^1, x^2, x^3 formal parametrlar bilan ishlashimizga to'g'ri keladi. Bu parametrlar harakat tenglamalarida bir xil turda yoziladi. Shu bois 4-ta'sir uchun biz quyidagi formulani yozamiz

$$S = \frac{1}{c} \int L^*(q_a, \dot{q}_{av}, x^0, x^1, x^2, x^3) dx^0 dx^1 dx^2 dx^3. \quad (\text{E.1})$$

Bu yerda q_a - sistemaning holatini tavsiflovchi parametrlar to'plamidir yani $q_1, q_2, q_3, \dots$, (bunaqa parametrlar sistemaning *erkinlik darajasi* ekanligini esga olamiz), $1/c$ esa qulaylik uchun kiritilgan,

$$\dot{q}_{av} = \frac{\partial q_a}{\partial x^v}, \quad \begin{pmatrix} a = 1, 2, 3, \dots, \\ v = 0, 1, 2, 3 \end{pmatrix}. \quad (\text{E.2})$$

q_a va $\dot{q}_{av}$ miqdorlar x^0, x^1, x^2, x^3 koordinatalar funktsiyasi deb qaraladi. Hatto q_a parametr faqat x^0 ga bog'liq bo'lib qolishi mumkin, u holda biz klassik mexanikadagi $q_a = q_a(t)$ tanish holni kuzatamiz. Aralash hosilalar o'zaro tengligi

$$\frac{\partial^2 \dot{q}_a}{\partial x^v \partial x^\mu} = \frac{\partial^2 \dot{q}_a}{\partial x^\mu \partial x^v} \quad (\text{E.3})$$

dan

$$\frac{\partial \dot{q}_{av}}{\partial x^\mu} = \frac{\partial \dot{q}_{a\mu}}{\partial x^v} \quad (\text{E.4})$$

munosabat bajarilishi lozimligi kelib chiqadi. (T.1) va (E.1) formulalarning o'zaro mutanosibligini topish uchun 4-fazoda 4-hajm $d\Omega^*$ 3-fazodagi 3-hajm $d\Omega$ bilan quyidagi ifoda yordamida bog'lanishini eslaymiz

$$d\Omega^* = dx^0 dx^1 dx^2 dx^3 = c dt d\Omega. \quad (\text{E.5})$$

$d\Omega^*$ ning o'rniga (E.5) formulani qo'yamiz va (E.1) ni quyidagicha yozamiz

$$S = \int L^* dt dV = \int_1^2 dt \int L^* dV. \quad (\text{E.6})$$

Bu yerda vaqt bo'yicha integrallash vaqt harakat davom etadigan vaqt intervalida bajariladi, hajm bo'yicha integrallash esa koordinatalar o'zgarishini ifodalovchi intervallarda bajariladi. (T.1) va (E.6) formulalarni taqqoslab

$$L = \int L^* dV \quad (\text{E.7})$$

ni topamiz. Yani L^* bu qaralayotgan sistemaning Lagranj funktsiyasining hajmiy zichligidir. Yopiq mexanik sistemasining Lagranj funktsiyasi L vaqt t ga bevosita bog'liq bo'lmasligi darkor. 4-fazoda vaqt va fazoviy koordinatalar teng huquqli bo'lganligi bois sistemaning Lagranj funktsiyasining zichligi L^* ham x^0, x^1, x^2, x^3 parametrlarga bog'liq bo'lmasligi lozim. Yani

$$S = \frac{1}{c} \int L^*(q_a, \dot{q}_{av}) d\Omega^*. \quad (\text{E.8})$$

Endi relyativistik mexanikada yopiq sistemaning harakat tenglamasini topamiz. Buning uchun (E.8) formula bilan ifodalangan ta'sirning variatsiyasini hisoblaymiz va keyinchalik uni nolga tenglashtiramiz. (E.8) ni variatsiyasi olamiz:

$$\delta S = \frac{1}{c} \int \left(\sum_a \frac{\partial L^*}{\partial q_a} \delta q_a + \sum_{a,v} \frac{\partial L^*}{\partial \dot{q}_{av}} \delta \dot{q}_{av} \right) d\Omega^*. \quad (\text{E.9})$$

$\delta y' = (\delta y)'$ ga o'xshash ravishda

$$\delta \dot{q}_{av} = \delta \frac{\partial q_a}{\partial x^v} = \frac{\partial}{\partial x^v} \delta q_a \quad (\text{E.10})$$

ni yozsak bo'ladi. (E.9) da (E.10) kabi almashtirish bajarib

$$\delta S = \frac{1}{c} \int \left(\sum_a \frac{\partial L^*}{\partial q_a} \delta q_a + \sum_{a,v} \frac{\partial L^*}{\partial \dot{q}_{av}} \frac{\partial}{\partial x^v} \delta q_a \right) d\Omega^*. \quad (\text{E.11})$$

Ko'paytmani differentsiallash qoidasiga binoan

$$\sum_{a,v} \frac{\partial}{\partial x^v} \left(\frac{\partial L^*}{\partial \dot{q}_{av}} \delta q_a \right) = \sum_{a,v} \frac{\partial L^*}{\partial \dot{q}_{av}} \frac{\partial}{\partial x^v} \delta q_a + \sum_{a,v} \frac{\partial}{\partial x^v} \left(\frac{\partial L^*}{\partial \dot{q}_{av}} \right) \delta q_a. \quad (\text{E.12})$$

Bu yerdan topamiz

$$\sum_{a,v} \frac{\partial L^*}{\partial \dot{q}_{av}} \frac{\partial}{\partial x^v} \delta q_a = \sum_{a,v} \frac{\partial}{\partial x^v} \left(\frac{\partial L^*}{\partial \dot{q}_{av}} \delta q_a \right) - \sum_{a,v} \frac{\partial}{\partial x^v} \left(\frac{\partial L^*}{\partial \dot{q}_{av}} \right) \delta q_a \quad (\text{E.13})$$

va oxirgi formulani (E.11) dagi integral ostidagi ikkinchi hadning o'rniga qo'yamiz

$$\delta S = \frac{1}{c} \int \left(\sum_a \frac{\partial L^*}{\partial q_a} \delta q_a + \sum_{a,v} \frac{\partial}{\partial x^v} \left(\frac{\partial L^*}{\partial \dot{q}_{av}} \delta q_a \right) - \sum_{a,v} \frac{\partial}{\partial x^v} \left(\frac{\partial L^*}{\partial \dot{q}_{av}} \right) \delta q_a \right) d\Omega^*. \quad (\text{E.14})$$

(E.14) dagi ikkinchi haq

$$\sum_{a,v} \frac{\partial}{\partial x^v} \left(\frac{\partial L^*}{\partial \dot{q}_{av}} \delta q_a \right) = \sum_v \frac{\partial}{\partial x^v} \left(\sum_a \frac{\partial L^*}{\partial \dot{q}_{av}} \delta q_a \right) \quad (\text{E.15})$$

v - komponentasi

$$\sum_a \frac{\partial L^*}{\partial \dot{q}_{av}} \delta q_a$$

ga teng bo'lgan vektorning 4-divergentsiyasiga teng!

Matematik eslatma.

(Evklid 3-fazoda Ostrogradskiy-Gauss teoremasi ko'ra: biror $\vec{A}$ vektorning divergensiyasining berilgan hajm bo'yicha integrali shu vektorning hajmni o'rab turgan sirt bo'yicha olingan integraliga teng. Yani

$$\int_{\Omega} \text{div} \vec{a} d\Omega = \oint_f \vec{a} d\vec{f}. \quad (\text{E.M.1})$$

Bu teoremaning quyidagicha ham yozish mumkin

$$\int_{\Omega} \sum_{i=1}^3 \frac{\partial a_i}{\partial x_i} d\Omega = \oint_f \sum_{i=1}^3 a_i df_i. \quad (\text{E.M.2})$$

Bu yerda df_i lar sirt elementi vektori $d\vec{f} = \vec{n} df$ ning komponentlari: $df_x = dydz$, $df_y = dxdz$, $df_z = dxdy$ lardir.

Ostrogradskiy-Gauss teoremasini 4-fazoda ham ishlatish mumkin va uning formulasi quyidagicha bo'ladi:

$$\int \sum_{\Omega^*, \mu=0}^3 \frac{\partial a^\mu}{\partial x^\mu} d\Omega^* = \oint \sum_{f^*, \mu=0}^3 a^\mu df_\mu. \quad (\text{E.M.3})$$

Bu yerda a^μ 4-vektor, $d\Omega^* = dx^0 dx^1 dx^2 dx^3 = c dt dx^1 dx^2 dx^3$ 4-fazodagi hajm elementi, df^μ - 4-fazodagi $d\Omega^*$ 4-hajmni o'rab oluvchi gipersirtning 4-vektorining komponentlari. Bu komponentlar quyidagilarga teng:

$$df^0 = dx^1 dx^2 dx^3 = d\Omega, \quad df^1 = dx^0 dx^2 dx^3 = c dt dx^2 dx^3, \quad df^2 = dx^0 dx^1 dx^3 = c dt dx^1 dx^3, \\ df^3 = dx^0 dx^1 dx^2 = c dt dx^1 dx^2.)$$

Endi Ostrogradskiy-Gauss teoremasining 4-fazoda formasidan foydalanamiz. U holda (E.14) formuladagi ikkinchi integralni quyidagicha yozishimiz mumkin

$$\int \sum_{a,v} \frac{\partial}{\partial x^\nu} \left(\frac{\partial L^*}{\partial \dot{q}_{av}} \delta q_a \right) = \oint \sum_v \left(\sum_a \frac{\partial L^*}{\partial \dot{q}_{av}} \delta q_a \right) df_\nu. \quad (\text{E.16})$$

Ammo qarayotgan 4-hajm chegarasida $\delta q_a = 0$ bois (E.16) dagi integral nolga teng bo'ladi. Shu sabab (E.15) da faqat ikki had qoladi:

$$\delta S = \frac{1}{c} \int \sum_a \left(\frac{\partial L^*}{\partial q_a} - \sum_v \frac{\partial}{\partial x^\nu} \left(\frac{\partial L^*}{\partial \dot{q}_{av}} \right) \right) \delta q_a d\Omega^*. \quad (\text{E.17})$$

Variatsiyaning va qarayotgan hajmning ixtiyoriy bo'lganligi bois ta'sirning variatsiyasi nolga teng bo'lishi uchun (E.17) formuladagi qavs ichidagi ifoda nolga teng bo'lishi shart. Yani

$$\frac{\partial L^*}{\partial q_a} - \sum_v \frac{\partial}{\partial x^\nu} \frac{\partial L^*}{\partial \dot{q}_{av}} = 0. \quad a = 1, 2, 3, \dots, \quad \nu = 0, 1, 2, 3. \quad (\text{E.18})$$

Oxirgi tenglama **relyativistik mexanikada harakat tenglamasi** bo'lib hisoblanadi (klassik mexanikadagi Eyler-Lagrang tenglamasining 4-fazoga umumiyashtirilganligi).

Endi (E.18) tenglamaning ikkala tomonini ham $\dot{q}_{a\mu}$ ga ko'paytiramiz va a bo'yicha yig'indi olamiz

$$\sum_a \frac{\partial L^*}{\partial q_a} \dot{q}_{a\mu} = \sum_{a,v} \dot{q}_{a\mu} \frac{\partial}{\partial x^\nu} \frac{\partial L^*}{\partial \dot{q}_{av}} \quad (\text{E.19})$$

(E.19) formulaning o'ng tomonini

$$f \frac{\partial g}{\partial x^\nu} = \frac{\partial(fg)}{\partial x^\nu} - g \frac{\partial f}{\partial x^\nu} \quad (\text{E.20})$$

formula yordamida shakl almashtiramiz va quyidagi munosabatni qo'lga kiritamiz

$$\sum_a \frac{\partial L^*}{\partial q_a} \dot{q}_{a\mu} = \sum_{a,v} \frac{\partial}{\partial x^\nu} \left(\dot{q}_{a\mu} \frac{\partial L^*}{\partial \dot{q}_{av}} \right) - \sum_{a,v} \frac{\partial L^*}{\partial \dot{q}_{av}} \frac{\partial \dot{q}_{a\mu}}{\partial x^\nu}. \quad (\text{E.21})$$

(E.21) ifodaning chap tomonida va o'ng tomonidagi ikkinchi hadda, mos ravishda,

$$\dot{q}_{av} = \frac{\partial q_a}{\partial x^v} \text{ va } \frac{\partial \dot{q}_{a\mu}}{\partial x^v} = \frac{\partial \dot{q}_{av}}{\partial x^\mu} \quad (\text{E.22})$$

kabi almashtirishlarni amalga oshiramiz. Natijada quyidagi formulani topamiz

$$\sum_a \frac{\partial L^*}{\partial q_a} \frac{\partial q_a}{\partial x^\mu} + \sum_{a,v} \frac{\partial L^*}{\partial \dot{q}_{av}} \frac{\partial \dot{q}_{av}}{\partial x^\mu} = \sum_{a,v} \frac{\partial}{\partial x^v} \left(\dot{q}_{a\mu} \frac{\partial L^*}{\partial \dot{q}_{av}} \right). \quad (\text{E.23})$$

Topilgan munosabatning chap tomoni

$$\frac{\partial L^*}{\partial x^\mu}$$

ga teng. Shu sabab (E.23) formulani

$$\frac{\partial L^*}{\partial x^\mu} = \sum_{a,v} \frac{\partial}{\partial x^v} \left(\dot{q}_{a\mu} \frac{\partial L^*}{\partial \dot{q}_{av}} \right) \quad (\text{E.24})$$

ko'rinishda yozsak bo'ladi. Oxirgi formulaning chap tomonini

$$\frac{\partial L^*}{\partial x^\mu} = \sum_v \delta_\mu^v \frac{\partial L^*}{\partial x^v} = \sum_v \frac{\partial}{\partial x^v} (\delta_\mu^v L^*) \quad (\text{E.25})$$

deb yozib (E.24) formulani

$$\sum_v \frac{\partial}{\partial x^v} (\delta_\mu^v L^*) = \sum_v \frac{\partial}{\partial x^v} \left(\sum_a \dot{q}_{a\mu} \frac{\partial L^*}{\partial \dot{q}_{av}} \right) \quad (\text{E.26})$$

shaklga keltiramiz. Yoki

$$\sum_{v=0}^3 \frac{\partial}{\partial x^v} \left[\sum_a \dot{q}_{a\mu} \frac{\partial L^*}{\partial \dot{q}_{av}} - \delta_\mu^v L^* \right] = 0, \quad \mu = 0, 1, 2, 3. \quad (\text{E.27})$$

(E.27) ifoda to'rtta formuladan iborat bo'lib tenglamalar sistemasini tashkil etadi. Kvadrat qavs ichida turgan ifoda rangi ikkiga teng bo'lgan 4-tenzorning aralash komponentlari xossalriga ega. Shu bois uni $\tilde{T}_\mu^v$ deb belgilaymiz:

$$\tilde{T}_\mu^v = \sum_a \dot{q}_{a\mu} \frac{\partial L^*}{\partial \dot{q}_{av}} - \delta_\mu^v L^*. \quad (\text{E.28})$$

Bu belgilashdan keyin (E.27) tenglamamiz

$$\sum_{v=0}^3 \frac{\partial \tilde{T}_\mu^v}{\partial x^v} = 0, \quad \mu = 0, 1, 2, 3. \quad (\text{E.29})$$

(E.29) ta'sirning variatsiyasi nolga tenglashtirilishi natijasida keltirilib chiqarildi va shu sabab u relyativistik mexanikada **harakat tenglamasi** bo'lib topiladi. Tenglamaning ma'nosi quyidagicha: $\tilde{T}_\mu^v$ tenzorning 4-divergentsiyasi nolga teng! Endi bu tenzor qanday fizik ma'noga ega ekanligi o'rganamiz. Shuni takidlab o'tishimiz kerakki, (E.29) tenglamani qanoatlantiruvchi rangi ikkiga teng bo'lgan 4-tenzor etarli darajada aniqlanmagan. Rostdan ham (E.28) dan farq qiluvchi ixtiyoriy

$$T_{\mu}^{\nu} = \tilde{T}_{\mu}^{\nu} + \sum_{\rho} \frac{\partial Q_{\mu}^{\nu\rho}}{\partial x^{\rho}} \quad (\text{E.30})$$

4-tenzorni qaraylik. Bu yerda $Q_{\mu}^{\nu\rho}$ - ν va ρ indekslariga nisbatan antisimmetrik bo'lgan ixtiyoriy 4-tenzor: $Q_{\mu}^{\nu\rho} = -Q_{\mu}^{\rho\nu}$. T_{μ}^{ν} tenzor ham (E.29) tenglamani qanoatlantiradi. Buni osongina tekshirish mumkin. Buning uchun (E.30) ni (E.29) ga qo'yamiz. Birinchi had (E.29) ning o'zi bo'ladi. Ikkinchi hadni qaraymiz

$$\sum_{\nu} \frac{\partial}{\partial x^{\nu}} \sum_{\rho} \frac{\partial Q_{\mu}^{\nu\rho}}{\partial x^{\rho}} = \sum_{\nu, \rho} \frac{\partial^2 Q_{\mu}^{\nu\rho}}{\partial x^{\nu} \partial x^{\rho}} = 0.$$

Bu had nolga teng, chunki $\sum_{\nu, \rho} \frac{\partial^2 Q_{\mu}^{\nu\rho}}{\partial x^{\nu} \partial x^{\rho}} = -\sum_{\nu, \rho} \frac{\partial^2 Q_{\mu}^{\rho\nu}}{\partial x^{\rho} \partial x^{\nu}}$ (tenzorning antisimmetrik xossaga ega ekanligi inobatga olinadi). Shu sabab T_{μ}^{ν} tenzorning (E.30) ko'rinishda tanlanishi harakat tenglamasiga ta'sir qilmaydi. Yani

$$\sum_{\nu=0}^3 \frac{\partial T_{\mu}^{\nu}}{\partial x^{\nu}} = 0, \quad \mu = 0, 1, 2, 3. \quad (\text{E.31})$$

Biz $Q_{\mu}^{\nu\rho}$ tenzorni ixtiyoriy ravishda tanlab olishimiz mumkin (bunda u faqat kerakli indekslarga nisbatan antisimmetrik bo'lsa bas). Endi biz shunday talab qo'yamiz, bunda T_{μ}^{ν} tenzor simmetrik bo'lsin. Bundan buyog'iga bu talab bajarilgan deb hisoblaymiz: $T^{\nu\mu} = T^{\mu\nu}$. Shu bilan birga $T_{\mu}^{\mu} = \tilde{T}_{\mu}^{\mu}$ munosabat ham o'rinli bo'ladi, chunki $Q_{\mu}^{\nu\nu} = 0$. Agar $\mu = 0$ bo'lsa, (E.31) formuladagi T_{μ}^{ν} 4-tenzorda μ indeksining yuqoriga ko'tarilishi tenglamani o'zgarishsiz qoldiradi, va aksincha $\mu = 1, 2, 3$ bo'lsa, tenglama ishorasini o'zgartiradi. Buning natijasida

$$\sum_{\nu=0}^3 \frac{\partial T^{\mu\nu}}{\partial x^{\nu}} = 0, \quad \mu = 0, 1, 2, 3 \quad (\text{E.32})$$

ni qo'lga kiritamiz. Relyativistik mexanikada $T^{\mu\nu}$ 4-tenzor sistemaning **energiya-impuls tenzori** deb ataladi.

Teorema. *Agar simmetrik 4-tenzor $T^{\mu\nu}$ (E.32) munosabatni qanoatlantirsa va bu tenzorning barcha elementlari cheksizlikda nolga intilsa*

$$p^{\mu} = \alpha \int \sum_{\nu} T^{\mu\nu} df_{\nu} \quad (\text{E.33})$$

formula bilan aniqlanadigan 4-vektor saqlanadi yani vaqt o'tishi bilan o'z qiymatini o'zgartirmaydi (harakat integrali bo'ladi).

Bu yerda α ixtiyoriy doimiy, df_{ν} gipersirt elementi 4-vektorining komponentlari. (E.33) da integrallash ixtiyoriy gipersirt (uch o'lchamli fazoni ham qamrab oluvchi) bo'yicha olinadi. Agar integrallash bajarilishi darkor gipersirt deb $x^0 = \text{const}$ gipertekislik tanlansa, u holda $df_0 = d\Omega$ dan tashqari barcha df_{ν} lar nol bo'ladi va (E.33) quyidagicha yoziladi:

$$p^{\mu} = \alpha \int T^{\mu 0} df_0 = \alpha \int T^{\mu 0} d\Omega. \quad (\text{E.34})$$

Yopiq sistenaning to'liq energiyasi va to'liq impuls saqlanadi. Relyativistik mexanikada energiya va impuls bitta energiya-impuls 4-vektorining komponentlari sifatida harakat tenglamalarida ishtirok etadi. Demak to'liq energiya-impuls 4-vektori ham saqlanishi darkor. Shu bois (E.33) va (E.34) formulalar bilan aniqlanadigan 4-vektorni sistemaning 4-impulsi deb qarashimiz mumkin. Proportsionallik doimiysi α ni (E.33) va (E.34) formulalar bilan aniqlangan 4-impuls (R.8) formulada ifodalangan 4-impuls bilan o'zaro teng bo'lishi shartidan topamiz. (R.8) formulaga binoan $p^0 = E/c$. (E.34) da $\mu = 0$ hadni qaraymiz

$$p^0 = \alpha \int T^{00} d\Omega = E/c. \quad (E.35)$$

(E.28) formuladan va energiya-impuls tenzorining simmetrikligi $T^{\nu\mu} = T^{\mu\nu}$ dan foydalanib quyidagilarni yozsa bo'ladi

$$T^{00} = T_0^0 = \tilde{T}_0^0 = \sum_a \dot{q}_{a0} \frac{\partial L^*}{\partial \dot{q}_{a0}} - \delta_0^0 L^* = \sum_a \dot{q}_a \frac{\partial L^*}{\partial \dot{q}_a} - L^*, \quad (E.36)$$

bu yerda $\dot{q}_a = \partial q_a / \partial t$ va (E.36) ni yozishda $\dot{q}_{a0} = \partial q_a / \partial x^0 = \partial q_a / \partial (ct) = (1/c) \partial q_a / \partial t = (1/c) \dot{q}_a$ ekanligi hisobga olingan. U holda (E.7) ni inobatga olib

$$\int T^{00} d\Omega = \sum_a \dot{q}_a \frac{\partial L}{\partial \dot{q}_a} - L \quad (E.37)$$

ni topamiz. (E.37) formulaning o'ng tomonida turgan ifoda bu sistemaning energiyasidir. Shu sabab

$$\int T^{00} d\Omega = E \quad (E.38)$$

va T^{00} ni biz energiyaning hajmiy zichligi deb qabul qilamiz

$$T^{00} = w. \quad (E.39)$$

(E.38) ifodani (E.35) formulaga qo'yib $\alpha = 1/c$ ekanligi topamiz. Demak

$$p^\mu = \frac{1}{c} \int \sum_\nu T^{\mu\nu} df_\nu. \quad (E.40)$$

(E.40) formulada integrallash gipersirt bo'yicha olinadi (bu gipersirtga 3-fazo ham kiradi).

$$p^\mu = \frac{1}{c} \int T^{\mu 0} df_0 = \frac{1}{c} \int T^{\mu 0} d\Omega. \quad (E.41)$$

(E.41) formulada integrallash faqat 3-fazoda bajariladi ($x^0 = \text{const}$).

Energiya-impuls 4-tenzorining $T^{0\nu}$ elementlarining fizik ma'nosini aniqlash maqsadida (E.32) tenglamani $\mu = 0$ uchun yozamiz

$$\sum_{\nu=0}^3 \frac{\partial T^{0\nu}}{\partial x^\nu} = \frac{\partial T^{00}}{\partial x^0} + \sum_{k=1}^3 \frac{\partial T^{0k}}{\partial x^k} = 0 \quad (E.42)$$

yoki

$$-\frac{1}{c} \frac{\partial T^{00}}{\partial t} = \sum_{k=1}^3 \frac{\partial T^{0k}}{\partial x^k}. \quad (\text{E.43})$$

Oxirgi tenglamaning ikkala tomonini c ga ko'paytirib biror Ω hajm bo'yicha integral olamiz

$$-\frac{\partial}{\partial t} \int_{\Omega} T^{00} d\Omega = \int_{\Omega} \sum_{k=1}^3 c \frac{\partial T^{0k}}{\partial x^k} d\Omega. \quad (\text{E.44})$$

(E.44) formulaning chap tomonidagi integral Ω hajmda mujassamlashgan energiyaga teng. O'ng tomonidagi integral belgisi ostida esa biror $\vec{S}$ vektorning odatdagi 3-divergentsiya turibdi. Bu $\vec{S}$ vektor quyidagi komponentlarga ega

$$S_x = cT^{01}, S_y = cT^{02}, S_z = cT^{03}. \quad (\text{E.45})$$

Shu sababli (E.44) ni quyidagicha yozish mumkin

$$-\frac{\partial E}{\partial t} = \int_{\Omega} \nabla \vec{S} d\Omega. \quad (\text{E.46})$$

Biror Ω hajm ichidagi energiyaning vaqt o'tishi bilan o'zgarishi (hosilasi) shu hajm sirtidan energiyaning oqimiga teng bo'lishi lozim. U holda $\vec{S}$ vektor - energiya oqimining hajmiy zichligi vektori ekan va (E.45) ga binoan energiya-impuls tenzorining elementlari energiya oqimining hajmiy zichligi vektori komponentlari bilan

$$T^{01} = \frac{1}{c} S_x, T^{02} = \frac{1}{c} S_y, T^{03} = \frac{1}{c} S_z. \quad (\text{E.47})$$

formular yoedamida ifodalanar ekan. $T^{\mu\nu}$ tenzori simmetrik $T^{0k} = T^{k0}$ bo'lganligi bois

$$T^{10} = \frac{1}{c} S_x, T^{20} = \frac{1}{c} S_y, T^{30} = \frac{1}{c} S_z. \quad (\text{E.48})$$

Endi 4-impuls vektorining fazoviy koordinatalariga e'tiborimizni qaratamiz

$$p^k = \frac{1}{c} \int T^{k0} d\Omega. \quad (\text{E.49})$$

Oxirgi formulani

$$p^k = \int \frac{T^{k0}}{c} d\Omega = \int g^k d\Omega \quad (\text{E.50})$$

deb yozamiz. Bu yerdan koordinatalari T^{k0}/c bo'lgan vektor impuls zichligini ifodalar ekan

$$\vec{g} = \frac{T^{10}}{c} \vec{i} + \frac{T^{20}}{c} \vec{j} + \frac{T^{30}}{c} \vec{k} \text{ yoki, } g_x = \frac{1}{c} T^{10}, g_y = \frac{1}{c} T^{20}, g_z = \frac{1}{c} T^{30}. \quad (\text{E.51})$$

$$\vec{p} = \int \vec{g} d\Omega. \quad (\text{E.52})$$

(E.51) va (E.48) formulalarni taqqoslab impuls zichligi vektori va energiya oqimi zichligi vektori komponentlari orasidagi o'zaro bog'lanishni topamiz

$$g_k = \frac{1}{c^2} S_k, \quad k=1,2,3 \quad (\text{E.53})$$

yoki vektor ko'rinishda

$$\vec{g} = \frac{d\vec{p}}{d\Omega} = \frac{1}{c^2} \vec{S}. \quad (\text{E.54})$$

Natija qilib quyidagilarni aytish mumkin: sistemaning energiyasi oqimi va impulsi orasida o'zaro bog'lanish mavjud. Yani impuls zichligi energiya oqimi zichligining yorug'lik tezligi kvadratida bo'linganiga teng.

Endi energiya-impuls tenzorining T^{ik} elementlarini topamiz. Buning uchun (E.32) ni $\mu = i$ qiymat uchun yozamiz

$$\sum_{\nu=0}^3 \frac{\partial T^{i\nu}}{\partial x^\nu} = \frac{\partial T^{i0}}{\partial x^0} + \sum_{k=1}^3 \frac{\partial T^{ik}}{\partial x^k} = 0 \quad (\text{E.55})$$

Oxirgi formulani $x^0 = ct$ va $T^{i0} = cg_i$ ekanligini inobarga olib

$$-\frac{\partial g_i}{\partial t} = \sum_{k=1}^3 \frac{\partial T^{ik}}{\partial x^k} \quad (\text{E.56})$$

deb yozamiz. Hosil bo'lgan ifodaning ikkala tomonidan ham biror hajm Ω bo'yicha integral olamiz va (E.52) dan foydalaniz

$$-\frac{\partial}{\partial t} p_i = \int_{\Omega} \sum_{k=1}^3 \frac{\partial T^{ik}}{\partial x^k} d\Omega \quad (\text{E.57})$$

ni qo'lga kiritamiz. (E.57) formulaning o'ng tomonidagi integralni Ostrogradskiy-Gauss teoremasi yordamida o'zgaritamiz

$$-\frac{\partial}{\partial t} p_i = \int_{\Omega} \sum_{k=1}^3 \frac{\partial T^{ik}}{\partial x^k} d\Omega = \oint_{\vec{f}} \sum_{k=1}^3 T^{ik} df_k = -\oint_{\vec{f}} \vec{\sigma}_i d\vec{f}. \quad (\text{E.58})$$

Bu yerda $\vec{\sigma}_i$ ($i=1,2,3$) – vektor quyidagi koordinatalari bilan aniqlanadi

$$\sigma_{ik} = T^{ik} \quad (\text{E.59})$$

yoki

$$\vec{\sigma}_i = T^{i1}\vec{i} + T^{i2}\vec{j} + T^{i3}\vec{k}. \quad (\text{E.60})$$

(E.58) formulaning chap tomonida Ω hajmda joylashgan sistemaning impulsining i - komponentasining kamayish tezligi turibdi. U holda formulaning o'ng tomoni Ω hajmni o'rab olgan f sirt orqali impulsning i - komponentasining oqimini ifodalaydi, $\vec{\sigma}_i$ esa p_i impuls oqimi ma'nosini kasb etadi. (E.59) formuladagi σ_{ik} - p_i impuls komponentining oqim zichligi vektorining k - komponentasidir. Demak, σ_{ik} 3-tenzor bo'lib, impuls oqimi zichligini tavsiflaydi. Bu yerda skalyar miqdorlarning (xususan energiya, zaryad,... b.) oqimi zichligi vektor bo'lishini va vektor miqdorlarning (xususan impuls, ... b.) oqimi zichligi tenzor bo'lishini eslatib o'qtish joiz. Birlik vaqt davomida biror sirtning birlik yuzasi orqali o'tuvchi impuls bu shu yuzaga ta'sir etuvchi kuchdir.

Yani qaralayotgan sirt atrofida kuchlanishni tavsiflaydi. Shu sabab σ_{ik} tenzor **kuchlanish tenzori** deb ataladi. Nihoyat biz energiya-impuls tenzorining barcha elementlarini aniqlab bo'ldik. (E.39), (E.47), (E.48) va (E.59) larni inobatga olib energiya-impuls tenzorining umumiy ko'rinishini yozamiz

$$T^{\mu\nu} = \begin{pmatrix} w & S_x/c & S_y/c & S_z/c \\ S_x/c & \sigma_{xx} & \sigma_{xy} & \sigma_{xz} \\ S_y/c & \sigma_{yx} & \sigma_{yy} & \sigma_{yz} \\ S_z/c & \sigma_{zx} & \sigma_{zy} & \sigma_{zz} \end{pmatrix}. \quad (\text{E.61})$$

Energiya-impuls 4-tenzorining elementlari energiya va impulslarning hajmiy zichliklari, bu zichliklarning oqimi zichliklari bilan bog'liq ekan. Shu sabab ham uning nomi energiya-impuls tenzori deb qo'yilgan.

MAXSUS NISBIYLIK NAZARIYASI ELEMENTLARI

I. GALILEY NISBIYLIK PRINTSIPI

Zarra harakatini bir biriga nisbatan $\vec{V}$ tezlik bilan harakatlanuvchi ikki K va K' sanoq sistemalarida ko'rib chiqamiz (Fig.1). Koordinatalar sistema o'qlarini suratda tasvirlangandek qilib olamiz. Harakat va vaqt hisobi boshlanishidan oldin sanoq sistemalar boshi O va O' ustma ust tushgan bo'lsin. Newton mexanikasida vaqt barcha inertsional sanoq sistema (ISS) larda bir xil kechadi va teng : $t = t'$. Shu sabab Galiley nisbiylik printsiptini ifodalovchi formulalar

$$\begin{aligned} x &= x' + Vt \\ y &= y' \\ z &= z' \\ t &= t' \end{aligned} \quad (1)$$

shaklida yoziladi. Bu formulalar birinchi koordinatalar sistemasidan ikkinchisiga o'tishga imkon beradi. (1) formulalar Galiley almashtirishlari deb ham ataladi. (1) formuladagi birinchi tenglamadan vaqt bo'yicha hosila olib

$$v_x = v'_x + V \quad (2)$$

formulani topamiz. Umumiy holda (2) formulani

$$\vec{v} = \vec{v}' + \vec{V} \quad (3)$$

deb yozish va uni biror sanoq sistema (SS) sidan boshqa SS ga otishda tezliklarning almashtirilishi formulasi deb qarash mumkin. Uni quyidagicha talaffuz etish kerak: zarraning K SS dagi tezligi $\vec{v}$ zarraning K' SS dagi tezligi $\vec{v}'$ va SS larning nisbiy harakati tezligi $\vec{V}$ lar yig'indisidan iborat. (3) formuladan ham hosila olib

$$\vec{a} = \vec{a}' \quad (4)$$

ni topamiz. Demak, moddiy nuqtaning tezlanishi ikkala SS sida ham bir xil ekan. Shu sababli ham K va K' SS larida moddiy nuqtaga ta'sir etuvchi kuchlar ham teng bo'ladi: $\vec{F} = \vec{F}'$. Natijada, ikkala SS sida moddiy nuqta massasi teng dega xulosa kelib chiqadi. Agar $m\vec{a} = \vec{F}$ tenglik K SS sida bajarilsa, $m\vec{a}' = \vec{F}'$ tenglik K' SS sida ham bajarilishi kelib chiqadi. Yani K va K' SS lar ekvivalentdir. Xulosa: *Mexanika qonunlari barcha ISS larida bir xilda talaffuz etiladi va bajariladi.* Yuqoridagi xulosa *Galileyning nisbiylik printsipti* (GNP) deb ataladi. Barch SS larda bir xil qiymatga ega bo'lgan kattalik *invariant* deyiladi (lotin tilida "invariantis" "o'zgarmas" ma'noni




FIG. 1: K' ISS si K ISS siga nisbatan doimiy v_x tezlik bilan harakatlanmoqda. x va x' o'qlar ustma ust tushadi, z va z' , y va y' o'qlar parallel. $t = t' = 0$ s da sanoq boshlari O va O' ustma ust tushishadi.

anglatadi). GNP Newton mexanikasining oqibatidir. Newton mexanikasida fazo va vaqt absolyut deb qaraladi. Newton mexanikasida invariantlarga jism massasini va elektr zaryad miqdorini misol etib keltirish mumkin. Agar moddiy nuqta harakatini ifodalovchi tenglama qaralayotgan SS dan boshqa SS ga biror almashtirish yordamida o'tilishda o'z ko'rinishi o'zgartirmasa, bunday tenglama ushbu almashtirilish amaliga nisbatan invariant deb ataladi. Bunda, harakat tenglamasida qatnashuvchi miqdorlar alohida o'zgarishi mumkin, ammo ularni bog'lovchi munosabat o'zgarmaydi. Misol uchun jism ustidan bajarilgan ish va uning kinetik energiyasining orttirmasi har xil ISS larda har xil qiymat qabul qilishiga qaramay, ular orasidagi munosabat $\Delta E_k = A$ barcha ISS larda bir xil. Invariant tushunchasi yordamida GNP quyidagicha talaffuz etish mumkin: *mexanika tenglamalari Galiley almashtirishiga nisbatan invariantdir.*

II. MAXSUS NISBIYLIK NAZARIYASI POSTULATLARI

1905 yili A.Einshtein "Ann.der Physik" nomli olmon ilmiy jurnalida "Harakatlanuvchi jismlar elektrodinamikasi haqida" nomli maqola chop etti. Bu maqolada gravitatsion ta'sirlashuv juda zaif bo'lgan hollarda fazo va vaqtning xususiyatlari yangi ta'limotlar asosida qaytadan ko'rib chiqilgan edi. Ta'limotning negizini ikki postulat tashkil etdi. Birinchi postulat *Einshteinning nisbiylik printsipti* (ENP) bo'lsa, ikkinchisi bu *yorug'lik tezligining doimiyligi printsiptidir.*

1. *Nisbiylik printsipti.* Tabiat qonunlari barcha ISS lar uchun bir xilda talaffuz etiladi.
2. *Yorug'lik tezligi doimiyligi printsipti.* Yorug'lik tezligi manba tezligiga bo'g'liq emas va barcha ISS

larida bir qiymatga ega.

Birinchi postulat bilan Einstein Galileyning mexnikaga oid nisbiylik printsiplarini hamma fizikaviy hodisalarga kengaytirdi. Shu bilan birga u Galiley almashtirish formulalari (1) faqat kichik tezliklar sohasida qoniqarli ishlashi, u Lorents almashtirish formulalarining xususiy holi ekanligini va katta tezliklarda Lorents almashtirish formulalari ishlatilishi kerakligini ko'rsatib berdi. Natijada ENP ni quyidagicha talaffuz etish mumkin: *tabiat hodisalarini ifodalovchi tenglamalar Lorents almashtirishiga nisbatan invariantdir*. Einsteinning ikkinchi postulatinining to'g'riligi amerikalik fizik A.A.Maykelson (1852-1931) ning 1887 yili Morli bilan birga o'tkazgan tajribasida o'z tasdig'ini topdi. Maykelson tajribasida yorug'likning Yerning orbital harakati yo'nalishi bo'yicha va unga perpendikulyar yo'nalishda teng yo'llar bosib o'tishga ketgan vaqtlarining farqi o'lchandi. Agar yorug'lik tezligi Yerning orbital tezligiga bog'liq bo'lganda o'lchanayotgan vaqtlar har xil bo'lardi. Ammo, tajriba bu vaqtlar teng ekanligini va shu orqali yorug'lik tezligining manba tezligiga bog'liq emasligini isbotladi. Yorug'lik tezligi barcha ISS larda bir xil qiymatga ega yani invariant kattalikdir. Bundan tashqari yorug'lik tezligi tabiatdagi eng katta cheklangan tezlik bo'lib ham topiladi. Jismlar orasidagi hech qanday ta'sirlashuv yorug'lik tezligi c dan katta tezlik bilan tarqalishi mumkin emas! Cheklangan tezlikning mavjudligi Newton mexanikasida absolyut deb hisoblangan "bir vaqtda" tushunchasi aslida nisbiy ekanligiga olib keladi. Buni oson tushunib olish uchun quyidagi misolni ko'rib chiqamiz. Tekis harakatlanayotgan vagon o'rtasida yorug'lik signali tarqalsin (Fig.2).

Barcha ISS larida yorug'lik c tezlik bilan tarqaladi. shu sababli vagon ichidagi kuzatuvchi yorug'lik signalining vagon boshi (2- nuqta) va oxiriga (1- nuqta) teng vaqtlarda etib borganligini qayd qiladi. Ammo platformada turgan kuzatuvchi yorug'lik signalining vagon oxiriga (1- nuqta) bosiga (2- nuqta) nisbatan ertaroq kelganini qayd etadi. Ko'rib turganimizdek har xil SS sistemalarida "bir vaqtda" tushunchasi har xil. Cheklangan tezlikning mavjudligi fazo va vaqtning Newton mexanikasidek absolyutligiga, ularning bir biridan mustaqil bo'lishiga chek qo'yib, ular o'zaro bog'liq va bir butun to'rt o'lchamli fazo-vaqt hosil qilishini ko'rsatadi. Einsteinning postulatlarini negiziga yaratilgan mexanika *katta tezliklar mexanikasi* yoki *relyativistik mexanika* deb ataladi. Relyativistik mexanika kichik tezliklarda Newton mexanikasiga o'tadi. Ixtiyoriy "nuqtaviy" hodisa (elementar zarraning parchalanishi yoki biror zarraning ma'lum vaqtda biror joyda bo'lishi) to'rt miqdor bilan tavsiflanadi: uchta koordinata x, y, z hodisaning qayerda sodir bo'lganligini ko'rsatsa, vaqt t qachon sodir bo'lganligini ko'rsatadi. Bu kattaliklarning qiymatlari biz kuzatayotgan SS ga bog'liq. Fazo-vaqtda o'qlari x, y, z va ct bo'lgan dekart koordinatalar sistemasini kiritamiz. Bu yerda qulaylik uchun vaqt t o'rniga o'lcham birligi uzunlik birligiga to'g'ri keluvchi ct kattalikni o'q etib oldik. U holda ixtiyoriy hodisani bu fazo-vaqtda *dunyoviy nuqta*




FIG. 2: a - vagonidagi kuzatuvchi (K' SS sida) ga nisbatan 1- va 2- nuqtalar tinch turibdi, shu sababli yorug'lik signali bu nuqtalarga teng vaqtda etib boradi. b - platformadagi kuzatuvchi (K SS sida) 1- nuqta yorug'lik signaliga qarshi tomon harakatlanmoqda, 2- nuqta esa yorug'lik signaliga tomon harakatlanmoqda. Natijada signal 1- nuqtaga ertaroq, 2- nuqtaga kechroq keladi.

deb ataluvchi nuqta bilan tasvirlashimiz mumkin. Vaqt o'tishi bilan dunyoviy nuqta fazo-vaqtda o'z vaziyatini o'zgartiradi va *dunyoviy chiziqli* deb ataluvchi traektoriya chizadi. Hatto oddiy fazoda moddiy nuqta harakatlanmagan taqdirda ham uning dunyoviy nuqtasi ct o'qiga parallel to'g'ri chiziqli bo'yicha ko'chadi. Biror ISS sidan boshqa ISS siga o'tganda x, y, z, ct o'qlar mos ravishda x', y', z', ct' larga o'tadi. Bunday o'tishda koordinatalar va vaqt qanday o'zgarishini ko'rib chiqamiz.

III. LORENTS ALMASHTIRISH FORMULALARI

Fig.3 da ko'rsatilgandek K va K' SS lari bo'lsin. Biror hodisa sodir bo'lsin va u K SS sida x, y, z, t , K' SS sida x', y', z', t' lar bilan tafsivlansin. Bu ikkala SS laridagi koordinatalar va vaqtlar orasidagi o'zaro bog'lanish formulalarini qidiramiz. Fazo va vaqtning bir jinsligidan qidirilayotgan formulalar chiziqli bo'lishi kelib chiqadi. Fig.3 da ko'rsatilgandek $y' = 0$ tekislik $y = 0$ tekislik bilan, $z' = 0$ tekislik esa $z = 0$ tekislik bilan ustma ust tushadi. Bundan y va y' bir vaqtning o'zida, boshqa koordinatalarga bog'liq bo'lmasdan, nolgacha teng bo'lishi kerak degan xulosa kelib chiqadi. Bu faqat $y = \alpha y'$ shart bajarilganda bo'lishi mumkin. Qaralayotgan SS lar teng huquqli ekanligidan oxirgi formulani $y' = \alpha y$ deb ham yozishimiz mumkin. Bu yerdan $\alpha = \pm 1$ ni topamiz. Bir tomonga yo'nalgan o'qlar uchun $\alpha = +1$ ni olamiz. U holda $y = y'$ yoki $y' = y$. Xuddi shunday tarzda $z = z'$ yoki $z' = z$ ni topsa ham bo'ladi. Ko'rib turganimizdek y va z lar x' va t' larga bog'liq emas. Shu sababli x' va t'




FIG. 3: K' SS si K SS siga nisbatan doimiy $\vec{V}$ tezlik bilan harakatlanmoqda. x va x' o'qlar ustma ust tushadi, z va z' , y va y' o'qlar parallel. $t = t' = 0$ s da sanoq boshlari O va O' ustma ust tushishadi.

lar ham y va z larga bog'liq bo'lmaydi. O'z navbatida x va t lar y' va z' larga bog'liq emas. Qarabsizki, x va t lar faqat x' va t' larning chiziqli funktsiyasi bo'lishi mumkin:

$$x = \gamma(x' + Vt'). \quad (5)$$

SS larning teng huquqligi bois

$$x' = \gamma(x - Vt). \quad (6)$$

deb yozishimiz mumkin.

Endi $c = \text{const}$ printsipidan foydalanamiz. $t_0 = t'_0 = 0$ s yani O va O' nuqtalar ustma ust turganda sanoq boshlaridan bir vaqtda yorug'lik signali tarqatilsin va biror vaqt o'tgandan keyin yorug'lik ekranga tushsin. Yorug'likning ekranga tushish hodisasi K SS sida x, t va K' SS sida x', t' miqdorlar bilan ifodalanadi. Shu bilan birga K va K' SS larida, mos ravishda

$$x = ct \quad (7)$$

$$x' = ct' \quad (8)$$

munosabatlar bajariladi. (7)-(8) formulalarni (5) va (6) formulalarga qo'yib

$$ct = \gamma(ct' + Vt') = \gamma(c + V)t'$$

$$ct' = \gamma(ct - Vt) = \gamma(c - V)t$$

ni topamiz. Bu tenglamarni o'zaro ko'paytirib va tt' ga qisqartirib

$$\gamma = \frac{1}{\sqrt{1 - v^2/c^2}} = \frac{1}{\sqrt{1 - \beta^2}} \quad (9)$$

ni qo'lga kiritamiz. Bu yerda $\beta = v/c$. Topilgan natijalarni (5) va (6) formulalarga qo'yib koordinatalar almashtirilishi formulasini topamiz:

$$x = \frac{x' + Vt'}{\sqrt{1 - \beta^2}}, x' = \frac{x - Vt}{\sqrt{1 - \beta^2}}. \quad (10)$$

Endi vaqt almashtirilishi formulasini aniqlaymiz. Buning uchun 1) (10) tenglamadan x ni yo'qatamiz va hosil bo'lgan tenglamadan t ni topamiz; 2) (10) tenglamadan x' ni yo'qatamiz va hosil bo'lgan tenglamadan t' ni topamiz:

$$t = \frac{t' + (V/c^2)x'}{\sqrt{1 - \beta^2}}, t' = \frac{t - (V/c^2)x}{\sqrt{1 - \beta^2}}. \quad (11)$$

Topilgan barcha natijalar quyidagilar:

$$x = \frac{x' + Vt'}{\sqrt{1 - \beta^2}}, y = y', z = z', t = \frac{t' + (V/c^2)x'}{\sqrt{1 - \beta^2}}, \quad (12)$$

$$x' = \frac{x - Vt}{\sqrt{1 - \beta^2}}, y' = y, z' = z, t' = \frac{t - (V/c^2)x}{\sqrt{1 - \beta^2}}. \quad (13)$$

Bu formulalar *Lorents almashtirish formulalari* deb ataladi. Lorents almashtirish formulalari yordamida K SS sidan K' SS siga o'tiladi va aksincha. Lorents almashtirish formulalarida fazo va vaqt kattaliklari o'zaro aralashib ketgan. K SS sidagi t vaqt K' SS sidagi faqat vaqt t' bilangina emas, balki x' koordinata bilan ham aniqlanadi. $c \rightarrow \infty$ holda Lorents almashtirish formulalari Galiley almashtirish formulalariga o'tadi. Taqribiy qilib Galiley almashtirish formulalari juda kichik tezliklar $v \ll c$ uchun o'rinli va yaxshi bajariladi desa bo'ladi. $V > c$ bo'lgan holda x, x', t, t' miqdorlar mavhum bo'lib qoladi yani ma'noga ega emas. Bu jismlarning c dan katta tezlik bilan harakatlana olmasligidir. Lorents almashtirish formulalariga simmetrik ko'rinish berish mumkin. Buning uchun uni x va ct yani bir xil o'lcham birlikli miqdorlar uchun yozamiz:

$$x = \frac{x' + \beta(ct')}{\sqrt{1 - \beta^2}}, y = y', z = z'(ct) = \frac{(ct') + \beta x'}{\sqrt{1 - \beta^2}}, \quad (14)$$

$$x' = \frac{x - \beta(ct)}{\sqrt{1 - \beta^2}}, y' = y, z' = z(ct') = \frac{(ct) + \beta x}{\sqrt{1 - \beta^2}}. \quad (15)$$

IV. LORENTS ALMASHTIRISHIDAN KELIB CHIQUVCHI OQIBATLAR

Lorents almashtirishidan kelib chiquvchi ba'zi natijalar kundalik kuzatuvlarimizga qarama qarshidek tuyuladi. Bunga sabab biz kuzatigan hodisalar juda kichik tezliklarda ro'y beradi va oqibatda quyida ko'rib chiqadiga effektlarni sezmaymiz. Ammo, yorug'lik tezligi c ga yaqin tezlik bilan harakatlanuvchi elementar zarralar fizikasida bu effektlar yaqqol seziladi.




FIG. 4: "Bir vaqtda" tushunchasining nisbiyligiga oid.

A. "Bir vaqtda" tushunchasining nisbiyligi

K_A va K_B ISS larini ko'rib chiqamiz (Fig.4).

K_A SS sining x_1^A va x_2^A ($x_1^A < x_2^A$) nuqtalarida ikki hodisa bir vaqtning o'zi t_A da sodir bo'lsin. K_B SS sida bu ikki hodisa mos ravishda t_1^B va t_2^B vaqtlarda qayd etiladi. Ushbu vaqtlarning farqini topamiz. Agar K_B K_A ga nisbatan o'ng tomonga harakatlanayotgan bo'lsa (Fig.4a), K_A ni K , K_B ni K' deb qabul qilish va t_1^B va t_2^B larni (13) formula bilan topamiz:

$$t_1^B = \frac{t^A - (V/c^2)x_1^A}{\sqrt{1 - \beta^2}}, t_2^B = \frac{t^A - (V/c^2)x_2^A}{\sqrt{1 - \beta^2}}. \quad (16)$$

Ularning farqi

$$t_2^B - t_1^B = \frac{-(V/c^2)(x_2^A - x_1^A)}{\sqrt{1 - \beta^2}} < 0. \quad (17)$$

Agar K_B K_A ga nisbatan chap tomonga harakatlanayotgan bo'lsa (Fig.4b), K_A ni K' , K_B ni K deb qabul qilish va t_1^B va t_2^B larni (12) formula bilan topamiz:

$$t_1^B = \frac{t^A + (V/c^2)x_1^A}{\sqrt{1 - \beta^2}}, t_2^B = \frac{t^A + (V/c^2)x_2^A}{\sqrt{1 - \beta^2}}. \quad (18)$$

Ularning farqi

$$t_2^B - t_1^B = \frac{(V/c^2)(x_2^A - x_1^A)}{\sqrt{1 - \beta^2}} > 0. \quad (19)$$

Yuqoridan ko'rinin turibdiki, K da bir vaqtda sodir bo'lgan hodisalar boshqa SS larida bir vaqtda sodir bo'lmas ekan. Ko'rib chiqqanimizdek K_A SS sining x_1^A

nuqtada sodir bo'lgan hodisa x_2^A nuqtadagi hodisaga nisbatan K_B SS sida erta $t_1^B < t_2^B$ yoki kech $t_1^B > t_2^B$ kuza-tilishi mumkin. Shuni taqiqlab o'tish kerakki, hozir biz topgan natija faqat o'zaro sabab-oqibat munosabati bilan bog'lanmagan hodisalarga taalluqli. Ko'rib chiqqan hodilar haqiqatdan ham bir birga ta'sir etolmaydi. Agar hodisalar orasida sabab-oqibat bog'lanish bo'lsa, SS lar qanday bo'lmasin sabab oqibatdan oldin sodir bo'ladi. Elementar zarraning paydo bo'lishi barcha SS larida uning parchalanishidan oldin sodir bo'ladi.

B. Jism uzunligining nisbiyligi

Jism uzunligini bir birga nisbatan v tezlik bilan harakatlanayotgan K va K' SS larida taqqoslaymiz (Fig.5). Sterjenni hisob oson bo'lishi uchun x va x' o'qlari yo'nalishida joylashtiramiz va u K' SS sida tinch turibdi deb faraz etamiz. Unda K' SS sida sterjen uzunligini o'lchash uchun bir vaqtning o'zida uning 1- uchi x'_1 va 2- uchi x'_2 koordinatalari aniqlanib, ularning ayirmasini topishimiz lozim: $l_0 = x'_2 - x'_1$. Bu uzunlik sterjenning tinchlikdagi uzunligi deb aytiladi, chunki u sterjen bilan bog'liq K' SS sida o'lchangan. Sterjen uzunligini K SS sida o'lchash uchun uning uchlari koordinatalari bir vaqtda aniqlanishi lozim: $l = x_2 - x_1$. Shuni esda tutish kerakki, sterjen K ga nisbatan $v = V$ tezlik bilan harakatda bo'ladi. l va l_0 larni taqqoslash uchun Lorents almashtirish formulalaridan x_1, x_2 va t ni x'_1 va x'_2 bilan bog'lovchi (13) formulani olishimiz darkor:

$$x'_1 = \frac{x_1 - Vt}{\sqrt{1 - \beta^2}}, x'_2 = \frac{x_2 - Vt}{\sqrt{1 - \beta^2}} \quad (20)$$

Bu yerdan

$$x'_2 - x'_1 = \frac{x_2 - x_1}{\sqrt{1 - \beta^2}} \quad (21)$$

(21) formulada SS lar nisbiy tezligi V ni sterjen tezligi v bilan almashtirib

$$l = l_0 \sqrt{1 - \beta^2} \quad (22)$$

formulaga kelimiz. Demak, harakatlanuvchi sterjen uzunligi tinch turgan sterjen uzunligidan kichik bo'larkan. Bu xulosa umumiy bo'lib harakatdagi barcha jismlarning uzunligi harakat yo'nalishida qisqaradi. Bu qisqarish jism tezligiga bog'liq. Tezlik qancha katta bo'lsa qisqarish ham shuncha katta bo'ladi. Harakatdagi jism uzunligining qisqarishi hodisasi *lorents* yoki *fitsjerald qisqarishi* deb nomlanadi. Harakatda jismning ko'ndlang o'lchamlari o'zgarmaydi, qisqarish faqat harakatlanish yo'nalishida bo'ladi.




FIG. 5: Sterjen K' SS sida tinch turibdi. U K SS siga nisbatan K va K' SS lari nisbiy tezligi V ga teng bo'lgan v tezlik bilan harakatlanadi.

C. Hodisalar orasidagi vaqt oralig'i

K' SS sining x' nuqtasida ikki hodisa ketma ket t'_1 va t'_2 vaqtlarda ro'y bersin. K' SS sida bu hodisalar orasida $\Delta t' = t'_2 - t'_1$ vaqt oralig'i mavjud bo'ladi. Ikkala hodisa orasida vaqt oralig'i K SS siga nisbatan qanday bo'lishini topamiz. K' SS K SS ga nisbatan V tezlik bilan harakatlanayapdi deb hisoblaymiz. K SS da bu hodisalar orasidagi vaqt intervali $\Delta t = t_2 - t_1$ bo'lsin. $\Delta t'$ va Δt larni taqqoslash uchun t, t' va x' larni o'zaro bog'lovchi (12) formulaning oxirgisini olish darkor:

$$t_1 = \frac{t'_1 + (V/c^2)x'}{\sqrt{1 - \beta^2}}, t_2 = \frac{t'_2 + (V/c^2)x'}{\sqrt{1 - \beta^2}}. \quad (23)$$

Bu yerdan

$$t_2 - t_1 = \frac{t'_2 - t'_1}{\sqrt{1 - \beta^2}} \quad (24)$$

ni topamiz. Agar hodisalar biror jism bilan bog'liq bo'lsa, K' SS sida qayt etilgan vaqt intervali shu jism bilan bog'liq yani unga nisbatan tinch turgan soat bilan aniqlangan hisoblanadi. Jism bilan bog'liq soat bilan o'lchangan vaqt *jismning xususiy vaqti* deb ataladi va τ harfi orqali belgilanadi. Unda $\Delta t' = \tau$. Bu soat K SS siga nisbatan v tezlik bilan harakatda bo'lyapdi, shu sababli $\Delta t = t_2 - t_1$ jismga nisbatan v tezlik bilan harakatlanayotgan soat bilan o'lchanadigan vaqt intervali hisoblanadi. Natijada

$$\Delta \tau = \Delta t \sqrt{1 - v^2/c^2} \quad (25)$$

ni topamiz. (25) formuladan jismning xususiy vaqti jismga nisbatan harakatda bo'lvchi soat bilan o'lchangan

vaqtdan kichik bo'lishini ko'rsatadi. Umuman, xususiy vaqt doimo jism bilan bog'langan soat bilan o'lchanadi va shu sabab barcha ISS larida o'zgarmas yani invariant bo'lib topiladi. K SS sida yashovchi kuzatuvchi fikricha Δt vaqt intervali unga nisbatan tinch turgan soatda o'lchangan vaqt intervali, $\Delta \tau$ esa unga nisbatan v tezlik bilan harakatlanuvchi soatda o'lchangan vaqt intervali. $\Delta \tau < \Delta t$ bo'lganligi bois, harakatdagi soat tinch turgan soatdan sekin yuradi deb aytsak bo'ladi. (25) monosabatning to'g'riligini quyidagi hodisaning kuzatilishi dalil-laydi. Koinotdan keluvchi zarralar tarkibida 20-30 km balandlikda tug'iluvchi μ -myuon deb ataluvchi nostabil zarralar bor. Bu zarraning yashash vaqyi ~ 2 mks va elektron (pozitron) ga va ikki neytrinoga parchalanadi. Bu zarralar yashash vaqtida $3 \cdot 10^8 \text{ km/s} \cdot 2 \cdot 10^{-6} \text{ s} = 600 \text{ m}$ yo'l bosadi. Qarabsizki bu zarralar yer yuziga etib kela olmasliklari kerak. Lekin, tajribaning ko'rsatishicha ular yer yuziga etib keladi. Buni quyidagicha tushuntirish mumkin: μ -myuonlar yorug'lik tezligiga yaqin tezlik-lar bilan harakatlanadi. Shu sababli yerdagi tinch tugan soat bo'yicha ularning yashash vaqti juda katta bo'ladi va ular yergacha bo'lgan masofani parchalanasdan bosib o'ta oladilar.

V. INTERVAL

Biror hodisa qayerda va qachon sodir bo'lganligi bilan tavsiflanadi. Qayerda sodir bo'lganligi koordinata x, y, z lar orqali, qachon sodir bo'lganligi t orqali ifodalanadi. Hamma miqdorlar biror SS siga nisbatan o'lchanadi. Hodisaning sodir bo'lganligini tavsiflovchi to'rt o'lchamli fazoni (fazo+vaqt) (4- fazo) kiritamiz. Tarixda birinchi marta 4-fazoni uch o'lchamli fazo va vaqtning umumiyli-gi asosida 1764 yili J.A.d'Alamber o'zining "O'lcham birlik-lari" asarida keltirgan. Einstein postulatlariga asoslanib G.Minkovskiy ta'rifiga binoan har bir hodisaga 4-fazoda x, y, z, ct miqdorlar bilan tavsiflanuvchi *dunyoviy nuqta* ni mos qo'yish mumkin. Moddiy nuqta vaqt o'tishi bilan 4-fazoda *dunyoviy chiziqlik* bo'ylab harakatlanadi. 4-fazoda yorug'lik signalining x_1, y_1, z_1 nuqtadan t_1 vaqtda chiqib t_2 vaqtda x_2, y_2, z_2 nuqtaga kelsin. Bu ikki hodisa koor-dinatalari o'zaro

$$c^2(t_2 - t_1)^2 - (x_2 - x_1)^2 - (y_2 - y_1)^2 - (z_2 - z_1)^2 = 0 \quad (26)$$

munosabat orqali bog'langan. Boshqa tomondan

$$\Delta l_{12}^2 = (x_2 - x_1)^2 + (y_2 - y_1)^2 + (z_2 - z_1)^2 \quad (27)$$

3-fazodagi ikki nuqta orasidagi masofa kvadratidir. (27) masofa formulasiga o'xshash tarzda 4-fazoda ham ikki hodisa orasida *interval* tushunchasini kiritishimiz mumkin. Ikki hodisa orasidagi intervalning kvadrati

$$\Delta s_{12}^2 = c^2(t_2 - t_1)^2 - (x_2 - x_1)^2 - (y_2 - y_1)^2 - (z_2 - z_1)^2 \quad (28)$$

formula orqali aniqlanadi. Yoki

$$\Delta s_{12}^2 = c^2 \Delta t_{12}^2 - \Delta l_{12}^2. \quad (29)$$

Juda kichik intervalni differentsial shaklida yozishimiz mumkin:

$$ds_{12}^2 = c dt_{12}^2 - dl_{12}^2. \quad (30)$$

3-fazoda Evklid geometriyasi qonunlari bajariladi, nuqtalar orasidagi interval (27) formula bilan aniqlanadi va shu sababli u *evklid fazosi* deb ataladi. Biz ko'rib chiqayotgan 4-fazo (3-fazo+vaqt) da interval

$$\Delta s_{12}^2 = c^2(t_2 - t_1)^2 + (x_2 - x_1)^2 + (y_2 - y_1)^2 + (z_2 - z_1)^2 \quad (31)$$

bilan emas, aynan (28) formula bilan aniqlanadi. Nuqtalari orasidagi masofa (interval) (28) formula bilan aniqlanadigan fazo *noevklid fazosi* deyiladi. Yorug'likning biror nuqtadan chiqib boshqa nuqtaga kelishi hodisalari orasidagi interval doimo nolga teng

$$\Delta s_{12}^2 = c \Delta t_{12}^2 - \Delta l_{12}^2 = 0. \quad (32)$$

Yorug'lik tezligi barcha ISS larida doimiy bo'lganligi bois (32) tenglik ham barcha ISS larida o'rinalidir. Shu sababli ixtiyoriy K va K' ISS laridagi intervallar bir biri bilan

$$\Delta s = a \Delta s' \quad (33)$$

munosabat orqali bog'langan bo'lishi lozim. Bunda a biror doimiy son. ISS lar teng huquqli bo'lganligi bois

$$\Delta s' = a \Delta s \quad (34)$$

deb ham yozishimiz mumkin. (33) va (34) formulalardan $a^2 = 1$ yoki $a = \pm 1$ ekanligini topamiz. Barcha SS larida interval teng bo'lishi kerak va shu sabab $a = 1$ qiymatni tanlaymiz. Unda $\Delta s = \Delta s'$ yani ikki hodisa orasidagi interval invariantdir. Uch o'lchamli fazoda ikki nuqta orasidagi masofa barcha SS larida teng bo'lganidek 4-fazoda ham ikki hodisa orasidagi interval invariant bo'ladi. Intervalning doimiyliigi Einstein postulatlarining mantiqiy xulosasidir. Intervalning invariantligini boshqacha yo'l bilan ham ko'rsatish mumkin. $\Delta s = \sqrt{c^2 \Delta t^2 - \Delta l^2}$ formulada Δl odatdagi fazoda ikki nuqta orasidagi masofa. Agar qaralayotgan hodisa bitta zarra bilan sodir bo'lgan bo'lsa $\Delta l / \Delta t$ zarra tezligi v ni anglatadi. U holda

$$\Delta s = c \Delta t \sqrt{1 - \Delta l^2 / c^2 \Delta t^2} = c \Delta t \sqrt{1 - v^2 / c^2}. \quad (35)$$

(25) formulaga yordamida (35) ni $\Delta s = c \Delta \tau$ deb yozamiz. Lekin c va xususiy vaqt τ invariant. Demak, interval ham invariant. Demak, yorug'lik tezligi c , interval Δs va xususiy vaqt oralig'i $\Delta \tau$ invariantlar hisoblanar ekan. 3-fazodagi nuqtalar orasidagi interval kvadratidan farqli ($\Delta l^2 > 0, \Delta l > 0$) (28) formula bilan aniqlanadigan interval kvadrati Δs^2 musbat (agar $c \Delta t > \Delta l$), manfiy (agar $c \Delta t < \Delta l$) va nolga (agar $c \Delta t = \Delta l$) teng bo'lishi mumkin. Yuqorida ko'rsatganimizdek yorug'likning biror dunyoviy nuqtadan chiqib boshqa dunyoviy nuqtaga borisi hodisalari orasidagi interval nolga teng. Δt vaqt mobaynida yorug'lik vakuumda $\Delta l = c \Delta t$ masofani bosib o'tadi. Interval ham mos ravishda haqiqiy (agar $\Delta s^2 > 0$), mavhum (agar $\Delta s^2 < 0$) va nolga teng bo'ladi. Intervalning invariantligi sababli uning ishorasi barcha SS larida bir xil bo'ladi yani boshqa SS siga o'tishda interval ishorasi o'zgarmaydi. Intervalni ishorasiga qarab ikki turga bo'lish qabul etilgan:

1. $\Delta s^2 > 0$. U holda

$$c^2 \Delta t^2 - \Delta l^2 = c^2 \Delta t'^2 - \Delta l'^2 > 0. \quad (36)$$

Biz shunday K' SS sini topishimiz mumkinki, unda $\Delta l' = 0$ bo'ladi. Yani hodisalar bir nuqtada sodir bo'ladi. Ammo, biz bu hodisalar bir vaqtda sodir bo'lgan SS sini topa olmaymiz, unday SS mavjud bo'lmaydi. K' SS sida bu hodisalar orasidagi vaqt oralig'i

$$\Delta t' = \frac{\Delta s}{c} \quad (37)$$

bilan ifodalanadi. Haqiqiy qiymatga ega bo'lgan interval *vaqtga o'xshash* interval deb ataladi.

2. $\Delta s^2 < 0$. U holda

$$c^2 \Delta t^2 - \Delta l^2 = c^2 \Delta t'^2 - \Delta l'^2 < 0. \quad (38)$$

Biz shunday K' SS sini topishimiz mumkinki, unda $\Delta t' = 0$ bo'ladi. Yani hodisalar bir vaqtda sodir bo'ladi. Ammo, biz bu hodisalar bir nuqtada sodir bo'lgan SS sini topa olmaymiz, unday SS mavjud bo'lmaydi. K' SS sida bu hodisalar orasidagi masofa

$$\Delta l' = i \Delta s \quad (39)$$

bilan topiladi. Mavhum intervallar *fazoga o'xshash* intervallar deb ataladi.

Bir zarra ustida sodir bo'luvchi hodisalar faqat vaqtga o'xshash interval bilan farqlanadi. Rosstdan ham zarra tezligi doimo c dan kichik, shu sabab $\Delta l \leq c\Delta t$. Bundan $\Delta s^2 \geq 0$ ekanligi kelib chiqadi. Fazoga o'xshash intervalga o'zaro sabab-oqibat bilan bog'liq bo'lmagan hodisalar misol bo'la oladi. Bu holda $\Delta s^2 < 0$ yani $\Delta l > c\Delta t$. Oxirgi ifodani shunday talqin etish lozim: 1- nuqtadan chiqqan signal 2- nuqtaga t vaqt o'tgandan keyin ham etib bora olmaydi va shu sabab bu nuqtalar orasidagi hodisalar sabab-oqibat bilan bog'liq emas.

VI. TEZLIKLAR QO'SHILISHI VA ALMASHTIRILISHI

K SS sida zarra tezligining komponentlari

$$v_x = \frac{dx}{dt}, v_y = \frac{dy}{dt}, v_z = \frac{dz}{dt} \quad (40)$$

formulalar bilan ifodalanadi. O'z navbatida K' SS sida ham tezlik komponentlari

$$v'_{x'} = \frac{dx'}{dt'}, v'_{y'} = \frac{dy'}{dt'}, v'_{z'} = \frac{dz'}{dt'} \quad (41)$$

bilan aniqlanadi. Shtrixlangan tezlik komponentlari va shtrixlanmagan tezlik komponentlari orasidagi munosabatni aniqlaymiz. Buning uchun Lorents almashtirishidan foydalanamiz ($\beta = V/c$):

$$dx = \frac{dx' + Vdt'}{\sqrt{1 - \beta^2}}, dy = dy', dz = dz', \quad (42)$$

$$dt = \frac{dt' + (V/c^2)dx'}{\sqrt{1 - \beta^2}}, \quad (43)$$

(42) formuladagi dx ni dt ga bo'lib va (41) ni inobatga olib

$$v_x = \frac{v'_{x'} + V}{1 + Vv'_{x'}/c^2} \quad (44)$$

ni topamiz. dy ni dt ga va dz ni dt ga bo'lib yana ikki formulani topamiz:

$$v_y = \frac{v'_{y'}\sqrt{1 - \beta^2}}{1 + Vv'_{x'}/c^2}, v_z = \frac{v'_{z'}\sqrt{1 - \beta^2}}{1 + Vv'_{x'}/c^2}. \quad (45)$$

(44) va (45) formulalar yordamida tezlikning K' SS sidagi komponentlari K SS siga almashtiriladi. Teskari almashtirish formulalari quyidagicha bo'ladi:

$$v'_{x'} = \frac{v_x - V}{1 - Vv_x/c^2}, v'_{y'} = \frac{v_y\sqrt{1 - \beta^2}}{1 - Vv_x/c^2}, v'_{z'} = \frac{v_z\sqrt{1 - \beta^2}}{1 - Vv_x/c^2}. \quad (46)$$




FIG. 6: K' SS sida zarralar x' o'qiga parallel ravishda bir birga qarab $\vec{v}'_1 = \vec{V}$ va $\vec{v}'_2 = -\vec{V}$ tezliklar bilan harakatlanmoqda. Zarralarning tezliklari modullari K va K' SS lari nisbiy tezligi V ga teng $v'_1 = v'_2 = V$. To'qnashuvdan keyin zarralar birikib qoladi va uning tezligi K' SS sida nolga teng bo'ladi.

$V \ll c$ hollarda bu formulalar Newton mexanikasidagi tezliklarni almashtirish formulasiga o'tadi. Agar zarra x va x' o'qlari boyicha harakatda bo'lsa, (44) formula

$$v = \frac{v' + V}{1 + v'V/c^2} \quad (47)$$

shakliga keladi. Hatto, zarra $v' = c$ tezlik bilan harakatlanganda ham $v = c$ natijani qo'lga kiritamiz. Bu natija Lorents almashtirish formulalari, qolaversa yorug'lik tezligining doimiyliigi yoki invariantligi xulosasidir. Agar $v' = c$ va $V = c - \alpha$ (bu yerda α juda kichik miqdor) bo'lsa, (46) formula $v = c$ natijaga olib keladi. Yani agar qo'shiluvchi tezliklarning har biri c dan kichik bo'lsa, natijaviy tezlik ham c dan kichik bo'ladi. Ammo, Lorents formulalari $V = c$ holda ishlamaydi. Buning ma'nosi hech qanday moddiy zarra yorug'lik tezligiga erisha olishi mumkin emasligidadir.

VII. RELYATIVISTIK IMPULS

Saqlanish qonunlari, tabiat qonunlari singari, barcha ISS larida bajarilishi lozim. Yani Lorents almashtirishiga nisbatan invariant bo'lishi kerak. Impuls saqlanish qonuni invariant bo'ladimi? Keling shuni tekshiraylik. Jism impulsi $\vec{p} = m\vec{v}$ bilan beriladi. Masalani osonlashtirish uchun ikki zarraning absolyut noelastik markaziy to'qnashuvini ko'rib chiqaylik (Fig.6).

Suratda ko'rsatilgandek K' SS sida zarralarning impulsi to'qnashuvdan oldin va keyin nolga teng, yani impuls saqlanish qonuni bajariladi. Endi impuls saqlanish qonunini K SS sida ko'rib chiqamiz. Birinchi va ikkinchi zarraning K SS sidagi tezliklari

$$v_{1x} = \frac{v'_{1x'} + V}{1 + Vv'_{1x'}/c^2} = \frac{V + V}{1 + VV/c^2} = \frac{2V}{1 + V^2/c^2} \quad (48)$$

$$v_{2x} = \frac{v'_{2x'} + V}{1 + Vv'_{2x'}/c^2} = \frac{-V + V}{1 + V(-V)/c^2} = 0 \quad (49)$$

ga teng bo'ladi. Demak, zarralarning to'qnashuvdan oldingi to'liq impuls

$$mv_{1x} + mv_{2x} = \frac{2mV}{1 + V^2/c^2}, \quad (50)$$

to'qnashuvdan keyin esa $2mV$ bo'ladi. Ko'rinib turibdiki, zarralarning to'qnashuvdan oldingi to'liq impuls to'qnashubdan keyingi to'liq impulsiga teng bo'lamiy qolyapdi. Yani impuls saqlanish qonunining invariantligi ta'minlanmay qolyapdi. Izlanishlarning ko'rsatishicha bunga sabab impulsning

$$\vec{p} = m\vec{v} = m \frac{d\vec{r}}{dt} \quad (51)$$

shaklida ta'riflanishi ekan. Impuls saqlanish qonunining invariantligini ta'minlash uchun yuqoridagi (51) formulada dt ni zarraning xususiy vaqti $d\tau$ bilan almashtirish kifoya qilar ekan. U holda impuls ta'rifi shaklida

$$\vec{p} = m \frac{d\vec{r}}{d\tau} \quad (52)$$

ni qabul etamiz. B yerda $d\vec{r}$ zarraning impuls $\vec{p}$ aniqlanayotgan SS sidagi ko'chishi. $d\tau$ ushbu $d\vec{r}$ ko'chishni bosib o'tish uchun sarflangan vaqt, bu vaqt zarra bilan birga harakatlanayotgan soatda o'lchanadi. (25) formuladan foydalanib zarra impulsini

$$\vec{p} = m \frac{d\vec{r}}{dt} \frac{1}{\sqrt{1 - v^2/c^2}} = \frac{m\vec{v}}{\sqrt{1 - v^2/c^2}} \quad (53)$$

deb yozamiz. Bu yerda dt impuls aniqlanayotgan SS si soatida o'lchanuvchi vaqt intervali va $\vec{v}$ zarraning K SS sidagi tezligi. Demak, relyativistik impuls

$$\vec{p} = \frac{m\vec{v}}{\sqrt{1 - v^2/c^2}} \quad (54)$$

munosabat bilan aniqlanar ekan. $v/c \ll 1$ holda (54) formula Newton mexanikasi qo'llaniladigan odatdagi $\vec{p} = m\vec{v}$ impulsiga o'tadi. Endi oldingi zarralar to'qnashishini ko'rib chiqishni davom ettiramiz. K SS sida zarralarning to'qnashuvdan oldingi to'liq impuls (54) ga muvofiq

$$\frac{mv_{1x}}{\sqrt{1 - v_{1x}^2/c^2}} = \frac{m \cdot 2V}{(1 + V^2/c^2)\sqrt{1 - \left(\frac{2V/c}{1 + V^2/c^2}\right)^2}} = \frac{2mV}{1 - V^2/c^2} \quad (55)$$

ga teng. To'qnashuvdan keyin zarralar birikib yangi $M = 2m/\sqrt{1 - V^2/c^2}$ massali zarra hosil qilishadi va u K SS siga nisbatan V tezlik bilan harakatda bo'ladi. Shu sabab uning impuls

$$\frac{MV}{\sqrt{1 - v^2/c^2}} = \frac{2mV}{1 - v^2/c^2} \quad (56)$$

ga teng bo'ladi. (56) ni (55) ga taqqoslab impuls saqlanish qonuni K SS sida ham orinlanganini ko'ramiz.

VIII. RELYATIVISTIK ENERGIYA

Newtonning 2- qonuni $d\vec{p}/dt = \vec{F}$ ga relyativistik impuls (54) ni qo'yamiz:

$$\frac{d}{dt} \left(\frac{m\vec{v}}{\sqrt{1 - v^2/c^2}} \right) = \vec{F}. \quad (57)$$

Newton mexanikasidan farqli kuch $\vec{F}$ relyativistik mexanikada invariant kattalik emas, chunki u SS sining tanlab olinishiga bog'liq. Har xil SS sida uning moduli va yo'nalishi turlicha bo'ladi. Bundan tashqari kuch $\vec{F}$ va tezlanish $\vec{a}$ bir biriga kollinear bo'lmaydi. Moddiy nuqta kinetik energiyasi ifodasini topishimiz uchun kinetik energiyasi orttirmasi moddiy nuqta ustidan bajarilgan ishga teng ekanligini esga olamiz $dE_k = dA$. (57) tenglikning o'ng tomonini $d\vec{s}$ ko'chishga, chap tomonini esa unga teng miqdor $\vec{v}dt$ ga ko'paytamiz

$$\vec{v} \frac{d}{dt} \left(\frac{m\vec{v}}{\sqrt{1 - v^2/c^2}} \right) dt = \vec{F} d\vec{s}. \quad (58)$$

(58) ning o'ng tomonidagi ko'paytma elementar ish dA ni anglatadi. Demak, chap tomoni kinetik energiyaning orttirmasini anglatadi

$$dE_k = \vec{v} \frac{d}{dt} \left(\frac{m\vec{v}}{\sqrt{1 - v^2/c^2}} \right) dt = \vec{v} d \left(\frac{m\vec{v}}{\sqrt{1 - v^2/c^2}} \right). \quad (59)$$

(59) formulada differentsiyalash amalini bajaramiz

$$\begin{aligned} dE_k &= \vec{v} \left[\frac{1}{\sqrt{1 - v^2/c^2}} d(m\vec{v}) + m\vec{v} d \left(\frac{1}{\sqrt{1 - v^2/c^2}} \right) \right] = \\ &= \vec{v} \left[\frac{m d\vec{v}}{\sqrt{1 - v^2/c^2}} + \frac{m\vec{v}(v/c^2) dv}{(1 - v^2/c^2)^{3/2}} \right]. \end{aligned} \quad (60)$$

Topilgan natijani umumiy maxarajga keltirib

$$dE_k = \frac{mvdv}{(1 - v^2/c^2)^{3/2}} = d \left(\frac{mc^2}{\sqrt{1 - v^2/c^2}} \right) \quad (61)$$

ni topamiz. Bu yerdan

$$E_k = \frac{mc^2}{\sqrt{1-v^2/c^2}} + const. \quad (62)$$

Kinetik energiya $v = 0$ da nolga teng bo'lishi kerak. Shu sabab $const = -mc^2$ bo'lishi lozim. U holda

$$E_k = \frac{mc^2}{\sqrt{1-v^2/c^2}} - mc^2 = mc^2 \left(\frac{1}{\sqrt{1-v^2/c^2}} - 1 \right). \quad (63)$$

(63) formulada energiyani v/c hadning darajalari bo'yicha Teylor qatoriga yoyamiz

$$\begin{aligned} E_k &= E_k(0) + E'_k(0) \frac{v}{c} + \frac{1}{2} E''_k(0) \left(\frac{v}{c} \right)^2 + \dots = \\ &= 0 + 0 \cdot \frac{v}{c} + \frac{mc^2}{2} \left(\frac{v}{c} \right)^2 + \dots \end{aligned} \quad (64)$$

Kichik tezlikda (64) formula Newton mexanikasida kinetik energiya $E_k = mv^2/2$ formulaga aylanadi. Saqlanish qonunlari Lorents almashtirish formulalariga nisbatan invariant bo'lishi kerak. Yillar davomida yig'ilgan tajriba natijalari energiyaning saqlanish qonuni faqat (63) formuladagi kinetik energiyaga yana boshqa had mc^2 energiya qo'shilgandagina invariant bo'lishini ko'rsatadi. Shu sababli relyativistik mexanikada erkin zarraning energiyasi

$$E = \frac{mc^2}{\sqrt{1-v^2/c^2}} \quad (65)$$

formula bilan beriladi va bu energiya zarraning *to'liq energiyasi* deb ataladi. Tinch turgan zarra $E_0 = mc^2$ energiyaga ega bo'ladi. Bu energiya jismning tinchlikdagi energiyasi deb ataladi va u jism ichki energiyasini ifodalaydi. Jismning tinchlikdagi energiyasi deganda uni tashkil etuvchi zarralar tinchlikdagi energiyalari, ularning kinetik energiyalari va ularning o'zaro ta'sirlashish energiyasi. Tinchlikdagi energiyaga jismning tashqi maydondagi potentsial energiyasi kirmaydi. Relyativistik mexanikada "to'liq energiya" termini Newton mexanikasidagi to'liq energiya terminidan boshqa ma'noga ega. Newton mexanikasida to'liq energiya deganda jismning kinetik energiyasi va uning tashqi maydondagi potentsial energiyalari yig'indisini tushuniladi. Relyativistik mexanikada esa faqat jism kinetik energiyasi va tinchlikdagi energiyasi yig'indisi tushuniladi. (54) va (65) formulalardan jismning to'liq energiyasini va impulsini bog'lovchi

$$\vec{p} = \frac{E}{c^2} \vec{v} \quad (66)$$

munosabatni topamiz. (54) va (65) formulalardan jism energiyasini faqat impuls orqali ifodalovchi

$$E = \sqrt{p^2 c^2 + m^2 c^4} \quad (67)$$

formulani topish mumkin. Oxirgi tenglikdan

$$E^2/c^2 - p^2 = m^2 c^2 = inv \quad (68)$$

ekanligi kelib chiqadi. Yani $E^2/c^2 - p^2$ ning qiymati barcha ISS larida teng.

IX. ENERGIYA VA MASSA ORASIDAGI MUNOSABAT

(65) formulaga binoan jism massasi va uning tinchlikdagi energiyasi

$$E_0 = mc^2 \quad (69)$$

munosabat bilan bog'langan. Bu yerdan jism massasining Δm ga o'zgarishi uning tinchlikdagi energiyasining ΔE_0 ga o'zgarishiga olib kelishi kelib chiqadi. Massa va energiya o'zgarishi

$$\Delta E_0 = c^2 \Delta m \quad (70)$$

formula bilan bog'liq. Yuqoridagi xulosa massa va tinchlikdagi energiya orasidagi o'zaro bog'lanish munosabati deyiladi. Massaning va energiyaning o'zaro bunday munosabatda bo'lishi ta'sirlashuvchi zarralarning to'liq massasining saqlanmasligiga olib keladi. Buni ko'rsatish uchun bir biriga qarab v tezlik bilan harakatlanuvchi ikki m massali zarralarning noelastik markaziy to'qnashuvini ko'rib chiqamiz. To'qnashuvdan oldin zarralarning to'liq energiyasi $2mc^2/\sqrt{1-v^2/c^2}$ ga teng. To'qnashish natijasida M massali bitta zarra hosil bo'ladi va u tinch qoladi, uning to'liq energiyasi Mc^2 bo'lsa

$$Mc^2 = \frac{2mc^2}{\sqrt{1-v^2/c^2}}, M = \frac{2m}{\sqrt{1-v^2/c^2}} > 2m \quad (71)$$

ekanligi kelib chiqadi. Yani hosil bo'lgan murakkab zarra massasi uni tashkil etuvchi zarralar massalari yig'indisidan katta bo'lar ekan. Topilgan natija to'qnashuvchi zarralarning kinetik energiyalarining mos ravishda murakkab zarraning tinchlikdagi energiyasiga o'tishi va shu sababli uning massasi $\Delta m = \Delta E/c^2$ ga o'tishi bilan tushuntiriladi. Tinch turgan zarraning parchalanishida teskari holat kuzatiladi. Hosil bo'lgan zarralar to'liq massasi oldingi zarra massasidan zarralarning to'liq kinetik energiyasi yig'indisining c^2 bo'linganiga kichik bo'ladi. Agar jism N ta zarradan tashkil topgan bo'lsa, uni parchalab yuborish uchun kerak bo'lgan energiya shu jismning *bog'lanish energiyasi* deb ataladi va u

$$E_b = c^2 \sum_{i=1}^N m_i - Mc^2 \quad (72)$$

formuladan topiladi. Bu yerda M jism massasi, m_i jism tarkibiga kiruvchi i - zarra massasi.

X. FOTON

Newtom mexanikasida massasi nolga teng zarra ko'rib chiqilmaydi. Bunday zarra cheksiz kichik kuch ta'sirida juda katta tezlanish olgan bo'lardi. Relyativistik mexanikada $m = 0$ zarra bo'lishi uning qonunlarida zid emas. (54) va (65) formulalarga binoan $m = 0$ zarra faqat $v = c$ tezlik bilan harakatlanganda energiya va impuls ega bo'ladi. Shu sababli massasi nolga teng zarra faqat yorug'lik tezligi c bilan harakatdagina mavjud bo'lishi mumkin ekan. Bunaqa zarraning impulsi (66) ga binoan

$$p = \frac{E}{c} \quad (73)$$

bilan beriladi. Massasi nolga teng zarraga yorug'lik *fotonini* misol etib keltirish mumkin. Foton energiyasi va impulsi

$$E = h\nu, p = \frac{h\nu}{c} \quad (74)$$

ga teng. Bu yerda h Plank doimiysi, ν yorug'lik chastotasi. Yorug'lik bu fotonlar oqimi. Yorug'lik biror jism sirtiga tushib yutilsa, unga fotonlari impulsini beradi. Natijada yorug'likning jism sirtiga bosimi kuzatiladi. Agar, jism sirtining birlik maydoniga vaqt birligida N foton tushib yutilsa, unga fotonlar $W = Nh\nu$ energiya va $p = W/c = Nh\nu/c$ impuls beradi. Ko'rsatilayotgan bosim $P = W/c$ ga teng bo'ladi. Bu yerda W ni yorug'lik energiyasi oqimi zichligi, yani vaqt birligida birlik maydonga tushuvchi energiya miqdori deb qarash mumkin. Yorug'lik bosimi juda kichik va odatda sezilmaydi. Masalan, bir million kd li yorug'lik manbasi o'zidan 1 m masofada 10^{-7} Pa bosim hosil etadi.

“Nazariy fizika” (Elektrodinamika) fanidan qisqacha

Glossariy

Aberratsiya – yoritgichga bo’lgan yo’nalishning kuzatuvchi tezligiga bog’liqlikni tavsiflovchi hodisa.

Bio-Savar-Laplas formulasi – tok elementi hosil qilgan magnit maydoni induktsiyasini topishga imkon beradigan va Bio-Savar-Laplas qonuni ifodalovchi formula.

Dipol – o’zaro bog’langan ikkita musbat va manfiy zaryaddan tashkil topgan elektr tizimi.

Dopler effekti – qabul qilgichda qayd etilgan elektromagnit to’lqin chastotasi (to’lqin uzunligi) ning harakatlanuvchi manba tezligiga bo’liqligini ifodalovchi munosabat.

Efir – klassik fizika tamoyillariga ko’ra efir g’ayritabiiy va qarama-qarshi xossalarni o’zida mujassam etgan gipotetik muhit bo’lib, unda elektromagnit to’lqinlar tarqalgan degan fikrda bo’lishgan. Ammo tajribalar efirning yo’qligini ko’rsatdi.

Elektron – yunoncha so’z bo’lib qahrabo degan ma’noga ega.

Elektromagnit induktsiya – magnit maydonining o’zgarishi natijasida o’tkazgichlarda elektr tokining hosil bo’lishi hodisasi.

Om qonuni – elektr zanjirida kuchlanish, tok kuchi va zanjir qarshiligi orasidagi munosabatni ifodalovchi qonun. Om qonuni zanjirning bir qismi yoki to’liq zanjir uchun ham ishlatiladi

Joul-Lents qonuni – o’tkazgichda tok o’tayotganda ajralib chiquvchi issiqlik miqdorini tavsiflovchi qonun.

Kulon qonuni – elektrostatikaning asosiy qonuni bo’lib ikki nuqtaviy elektr zaryadining ta’sirlanishi tavsiflaydi.

Maksvel tenglamalari – elektrodinamikaning eng asosiy qonuni va ularni ifodalovchi tenglamalar tizimi bo’lib, 4 ta tenglamadan iborat. Tenglamalar integral va differentsial shakllarda yozilishi mumkin.

Nuqtaviy elektr zaryad – qaralayotgan sharoitlarda o’lchamlarini inobatga olmasa ham bo’ladigan elektr zaryadi (yani zaryadlangan moddiy muqta).

Ostragradskiy-Gauss teoremasi – elektr maydoni kuchanganligi (induktsiyasi) yoki magnit maydoni induktsiyasi (kuchanganligi) ning berk sirt orqali oqimini shu sirt ichida joylashgan elektr zaryadlari miqdori yoki sirtni kesib o’tuvchi elektr toklari miqdori bilan bog’lovchi munosabat-formula.

Tenglamaning kovariant shakli – umumiy (maxsus) nisbiylik nazariyasida bir sanoq tizimida ikkinchi sanoq tizimiga Lorents almashtirishlari orqali o’tishda o’z shaklini o’zgartirmay qoladigan tenglama shakli.

Skin effekt – o’tkazgichdan o’tayotgan o’zgaruvchan tokning tebranishlar chastotasi ortishi bilan tokning o’tkazgich sirti bo’yicha o’tish hodisasi

Xabbl qonuni – galaktikalarning bir-birlaridan uzoqlashish darajasini, uzoqlanish tezligining ular orasidagi masofaga bog'lovchi munosabat.

BYNDPI

Краткий Глоссарий по предмету «Теоретическая физика» (Электродинамика)

Аберрация - это явление, сущность которого заключается в зависимости направления на светило от скорости наблюдателя.

Формула Био-Савара-Лапласа - это формула, которая позволяет нам находить индукцию магнитного поля, создаваемого элементом тока, и представляет собой закон Био-Савара-Лапласа.

Диполь - это электрическая система, состоящая из двух взаимосвязанных положительных и отрицательных зарядов.

Эффект Доплера - это отношение зависимости частоты (длины волны) электромагнитной волны, зарегистрированной в приемнике, от скорости движущегося источника.

Эфир - согласно принципам классической физики это гипотетическая среда с аномальными и противоречивыми свойствами, в которой, как считается, распространяются электромагнитные волны. Но эксперименты показали, эфира нет.

Электрон - это греческое слово, означающее янтарь.

Электромагнитная индукция - это возникновение электрического тока в проводнике в результате изменения магнитного поля.

Закон Ома - это закон, который описывает взаимосвязь между напряжением, током и сопротивлением цепи в электрической цепи. Закон Ома применяется на часть или всю цепочку.

Закон Джоуля-Ленца - это закон, который описывает количество тепла, выделяемого при прохождении тока через проводник.

Закон Кулона - это основной закон электростатики, который описывает взаимодействие двух точечных электрических зарядов.

Уравнения Максвелла - это основной закон электродинамики и представляющая их система уравнений, состоящая из 4 уравнений. Уравнения могут быть записаны в интегральной и дифференциальной формах.

Точечный электрический заряд - это электрический заряд (то есть заряженное вещество), линейными размерами которой можно игнорировать в рассматриваемых условиях.

Теорема Остроградского-Гаусса - представляет собой формулу для соотношения потока напряженности электрического поля (индукции) или индукции магнитного поля (напряжения) через замкнутую поверхность с количеством электрических зарядов внутри этой поверхности или количеством электрических токов, пересекающих поверхность.

Ковариационная форма уравнения - это форма уравнения, которая в общей (специальной) теории относительности не меняет свою форму при переходе от одной системы отсчета к другой с использованием преобразований Лоренца.

Скин-эффект - явление прохождения тока через поверхность проводника при увеличении частоты колебаний переменного тока, проходящего через проводник.

Закон Хаббла - это соотношение между расстояниями между галактиками с их относительными скоростями.

ВУЗДРИ

A brief Glossary on the subject “Theoretical physics” (Electrodynamics)

Aberration - is a phenomenon which produces an apparent motion of celestial objects about their true positions, dependent on the velocity of the observer.

Bio-Savara-Laplasa's formula - this formula, which allows us to find the induction of the magnetic field, created by the current element, and represents the law of Bio-Savara-Laplace.

Dipol - the electric system, consisting of two interconnected positive and negative charges.

Doppler effect - is the change in frequency of a wave in relation to an observer who is moving relative to the wave source.

Ether, also spelled **aether**, also called **luminiferous ether** - in physics, a theoretical universal substance believed during the 19th century to act as the medium for transmission of electromagnetic waves (e.g., light and X-rays), much as sound waves are transmitted by elastic media such as air. The ether was assumed to be weightless, transparent, frictionless, undetectable chemically or physically, and literally permeating all matter and space. The theory met with increasing difficulties as the nature of light and the structure of matter became better understood. It was seriously weakened (1887) by the Michelson-Morley experiment, which was designed specifically to detect the motion of Earth through the ether and which showed that there was no such effect. According to the principles of classical physics, ether - this hypothetical environment with anomalous and protivorechivymi svoystvami, in kotoroy, as schitaetsya, rasprostranyayutsya electromagnetic waves. But the experiments showed that the translations were not.

Electron - is a Greek word, stands for an amber.

Electromagnetic or magnetic induction - is the production of an electromotive force (i.e., voltage) across an electrical conductor in a changing magnetic field.

Ohm's law - states that the voltage or potential difference between two points is directly proportional to the current or electricity passing through the resistance, and directly proportional to the resistance of the circuit.

Joule Lenz law - when an electric current pass through a conductor, the amount of heat released in the conductor is directly proportional to the square of the current strength, the resistance of the conductor, and the current passage time.

Coulomb's law or Coulomb's inverse-square law - is an experimental law of physics that quantifies the amount of force between two stationary, electrically charged particles. The electric force between charged bodies at rest is conventionally called electrostatic force or Coulomb force.

Maxwell's equations - are a set of coupled partial differential equations that, together with the Lorentz force law, form the foundation of classical electromagnetism, classical optics, and electric circuits. Maxwell first used the equations to propose that light is an electromagnetic phenomenon.

Point electric charge – is a charged particle (body) linear size of which can be neglected under considering conditions.

Ostrogradsy-Gauss's theorem states that the surface integral of a vector field over a closed surface, which is called the flux through the surface, is equal to the volume integral of the divergence over the region inside the surface. Intuitively, it states that *the sum of all sources of the field in a region (with sinks regarded as negative sources) gives the net flux out of the region.*

The covariant form of equation – is a form of equation of classical electromagnetism, in particular, Maxwell's equations and the Lorentz force, which is manifestly invariant under Lorentz transformations.

Skin effect - is the tendency of an alternating electric current to become distributed within a conductor such that the current density is largest near the surface of the conductor, and decreases exponentially with greater depths in the conductor.

Hubble's law, also known as **the Hubble–Lemaître law** - is the observation in physical cosmology that galaxies are moving away from the Earth at velocities proportional to their distance.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIJ VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIK UNIVERSITETI



Ro'yxatga olindi: BD-5110200-2.06

2018 - yil 18.08

NAZARIY FIZIKA

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	100000 - Gumanitar
Ta'lim sohasi:	110000 - Pedagogika
Ta'lim yo'nalishi:	5110200 - Fizika va astronomiya o'qitish metodikasi

Toshkent - 2018

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2018-yil "18" 08 dagi 4 -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018-yil "25" 08 dagi 744 -sonli buyrug'i bilan ma'qullangan fan dasturlarini tayanch oliy ta'lim muassasasi tomonidan tasdiqlashga rozilik berilgan.

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:

M. Djorayev – TDPU «Fizika va astronomiya o'qitish metodikasi» kafedrası professori, ped.f.d., professor
T. Muratov – TDPU «Fizika va astronomiya o'qitish metodikasi» kafedrası katta o'qituvchisi
E. Xo'janov – TDPU «Fizika va astronomiya o'qitish metodikasi» kafedrası o'qituvchisi

Taqrizchilar:

I.Kokanbaev – Qo'qon DPI «Fizika va astronomiya o'qitish metodikasi» kafedrası dotsenti, f.-m.f.n.

D.T.Kuletov – Toshkent Turizm kasb-hunar kolleji fizika va astronomiya o'qituvchisi

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o'quv-uslubiy Kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2018 - yil 06 dagi 11 -sonli bayonnomasi).

Ўғриганда. (Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й. 6-сон, 70-модда)

15. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, Т.: Ўзбекистон. 2014. -46 б.
16. И.В. Мещерский. Сборник задач по теоретической механике. М.: Наука. 1992 г.
17. Umumiy fizika kursidan masalalar to'plami. M.S.Sedrik tahriri ostida Toshkent.: O'qituvchi. 1992 y.
18. Tursunov S., Kamolov J. "Elektr va magnitizm", T.: O'qituvchi, 1996 y.
19. В.В. Мултановский, А.С. Васильевский. Электродинамика. М.: Просвещение, 1998 г.
20. O. Qodirov, A. Boydedaev. Kvant fizika. Toshkent, "O'zbekiston" nashriyoti, 2005y.
21. Е.М. Гершензон и др. Курс общей физики. Оптика и атомная физика. М.: "Просвещение", 1997 г.
22. E. Rasulov. U Begimqulov Kvant fizikasi. 1-tom., T. "Fan va texnologiya", 2009 y.
23. E. Rasulov. U. Begimqulov Kvant fizikasi. 2- tom T.: "Fan va texnologiya", 2009 y.
24. Л.Д. Ландау и Е.М. Лифшиц. Статистическая физика. М.: Наука. 1999 г.
25. И.В. Савельев. Основы теоретической физики. Том 1. М.: Наука. 1992 г.
26. В. Шпольский. Атомная физика. В двух томах. Москва.: Наука. 1992 г.
27. К. Н. Мухин. Экспериментальная ядерная физика. В двух томах. Москва.: 1998 г.
28. А. И. Наумов. Физика атомного ядра и элементарных частиц. Москва.: 2000 г.
29. Paul Peter Urone, Roger Hinric "College Physics" Californiya 2002

Internet saytlari

30. www.tdpu.uz
31. www.pedagog.uz
32. www.ziyounet.uz
33. www.edu.uz

I. O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

Nazariy fizika fani klassik mexanika, elektrodinamika, kvant mexanika, statistik fizika va termodinamika bo'limlarini o'z ichiga oladi. Ushbu fan 5110200 - fizika va astronomiya o'qitish metodikasi bakalavriat ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarga nazariy fizika kursi sifatida o'qitiladi.

Nazariy fizika fani fizikaning barcha bo'limlari, oliy matematikaning differentsial va integral hisobi, ehtimollar nazariyasi, matematik statistika, astoronomiya va astrofizika, tabiiy-ilmiy va boshqa fanlar bilan uzviy bog'langan.

Nazariy fizikani o'zlashtirgan talaba makro va mikro dunyodagi moddalarning tuzilishi, ularning tashkil etuvchilarning xususiyatlarini, ulardagi turli jarayonlarning o'tish modellari va nazariyalari haqidagi qonuniyatlarini o'rganadi, yangi axborot texnologiyalarini qo'llab, olgan bilimlari pedagogik va ilmiy faoliyatida qo'llaydi.

Nazariy fizika fanini o'qitishda yangi ta'lim texnologiyalari, elektron plakatlar, tarqatma materiallar, elektron darsliklar va qo'llanmalar, virtual laboratoriyalar, internet ma'lumotlari, lokal tarmoqdagi turli o'quv, ilmiy bilimni nazorat qilish bo'yicha ma'lumotlar jamlamasidan foydalaniladi. Mustaqil ta'lim, aqliy hujum, vaziyatli masalalarni yechish, diskussiya, rolli o'yinlar, referatlar yozish kabi pedagogik usullar bilan fanning o'qitilishi amalga oshiriladi.

II. O'quv fanining maqsadi va vazifasi

Nazariy fizika fanini o'qitishdan maqsad – talabalarda, bo'lajak fizika o'qituvchisiga zarur bo'lgan darajada: makro- va mikrodunyoda modda va maydonning harakat qonunlarini nazariy jihatdan asoslash, moddaning va uni tashkil etgan mikrozarralar xossalari o'rganish, mikro va makroskopik sistemalarning turli holatlar nazariyasi, ularning fizik modellari xaqida nazariy bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishdir.

Fanning vazifasi - talabalarga nazariy fizika kursining bo'limlari (klassik mexanika, elektrodinamika, kvant mexanika hamda statistik fizika va termodinamika) doir tushunchalar, qonuniyatlarini o'rgatishdan iborat.

Lagranj tenglamalari, mexanikadagi saqlanish qonunlarini, harakat tenglamalarini integrallashni, finit va infinit potentsial maydonlardagi harakat tebranma harakat qonunlari; muhitlar chegarasidagi elektr maydoni, vakuumda va muhitda elektromagnit maydon xususiyatlarini, Maksvell tenglamalarini, elektrodinamikaning eksperimental asoslarini, elektrostatik potentsiallarni; noaniqlik, moslik, qo'shimchalik kvant prinsiplari, operatorlar, Shredenger tenglamasi va uni yechish metodlari va misollarini, g'alayon nazariyasini; makroskopik sistemaning muvozanat va nomuvozantli holatlari, termodinamik potentsiallar, statistik sistemalarning kvant va klassik xususiyatlari, kvant sistemasiining kanonik va mikrokanonik taqsimoti, ideal gaz xususiyatlari bilishdagi *bilimga*;

- nazariy fizika qonunlarini, teoremlarini, gipoteza va aksiomalarini isbot qila bilish, uning mazmun va mohiyatini to'g'ri tushunib, muayyan misollarni yecha olish kabi *ko'nikma*;

-talaba nazariy fizika kursining bo'limlariga doir amaliy mashg'ulotlarda o'zlashtirilgan barcha mavzular bo'yicha masalalar yechish, seminar uchun

referatlarini tayyorlash, masalalarning hisob-kitob ishlarini o'tkazish, mavzular yuzasidan xulosalar chiqara olish, fizikaviy qonuniyatlarni o'zlashtirish, ularni keying pedagogic faoliyatlarida qo'llash *malakasiga ega bo'lishi kerak*;

III. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

1-MODUL. KLASSIK MEKANIKA

1-mavzu. Nazariy fizika va olam manzarasi

Olamning klassik manzarasi. Nazariy fizika fani maqsad va vazifalari. Gravitatsion, elektromagnit, kuchli va kuchsiz maydonlar. Ularning ta'sir doirasi. Olamning zamonaviy ilmiy konsepsiyasi.

2-mavzu. Fizika qonunlarining simmetriyasi

Simmetriya shartlari. Fizik tizimlarning yuqori va past simmetriyasi. Energiya saqlanish qonunini vaqt birjinsiligi bilan bog'liqligi. Impuls saqlanish qonunini fazo birjinsiligi bilan bog'liqligi. Impuls momentini saqlanish qonunini fazo izotropligi bilan bog'liqligi. Ko'chish, siljish va buralishga nisbatan fizik tenglamalarni invariantligi. Xarakat integrallari.

3-mavzu. Klassik mexikaning asosiy tushunchalari

Absolyut qattiq jism, absolyut erkin zarra, moddiy nuqta modeli, uzluksiz muhit modeli. Mazkur tushunchalarni klassik mexanika masalalarida qo'llash. Ularning qu'lanish doirasi.

4-mavzu. Eng kichik ta'sir prinsipi Lagranj funksiyasi, Lagranj tenglamalari

